

**З.Т. Абдулҳакимов**

**МИНТАҚА ВА МАҲАЛЛИЙ  
ХЎЖАЛИКЛАР ИҚТИСОДИЁТИ  
ФАНИДАН МАСАЛАЛАР  
ТҮПЛАМИ**

**ўқув қўлланма**



Тошкент  
“IQTISODIYOT” – 2014

511.55(0-4)

A15

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА ЎРТА МАҲСУС  
ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ

НАМАНГАН МУҲАНДИСЛИК-ТЕХНОЛОГИЯ  
ИНСТИТУТИ

З.Т. АБДУЛҲАКИМОВ

**МИНТАҚА ВА МАҲАЛЛИЙ  
ХЎЖАЛИКЛАР ИҚТИСОДИЁТИ  
ФАНИДАН МАСАЛАЛАР ТҮПЛАМИ**

ЎҚУВ ҚЎЛЛАНМА

102401

13

ТОШКЕНТ – “IQTISODIYOT” – 2014

УЎК: 332.12(575.1)(075)  
КБК: У 65+я 292(575.1)

**Абдулхакимов З.Т. Мингақа ва маҳаллий хўжаликлар иқтисодиёти фанидан масалалар тўплами. Ўқув кўлланма. –Т.: “IQTISODIYOT”, 2014. – 112 б.**

Ушбу ўқув кўлланмада “Мингақа ва маҳаллий хўжаликлар иқтисодиёти” фанида берилган мавзулар тартиби асосида мавзуларга доир услубий кўрсатмалар, масалалар, уларни ечиш услублари ва масалаларни ечиш усувларини ўзлаштириб, мустаҳкамлаб олиш учун кўшимча масалалар келтирилган.

Мазкур ўқув кўлланма Давлат таълим стандартларига мувофиқ ишлаб чиқилган ўқув дастури асосида тайёрланган бўлиб, уни 5340100-«Иқтисодиёт» таълими йўналишидаги бакалаврлар, магистрлар, илмий тадқиқотчи-изланувчилар, шунингдек, касб-хунар коллежларининг шу соҳадаги ўқитувчилари хамда корхоналарнинг иқтисодий бўлим ходимлари учун мўлжалланган.

**Abdulhakimov Z.T. Mintaqqa va mahalliy xo'jaliklar iqtisodiyoti fanidan masalalar to'plami. O'quv qo'llanma. –T.: “IQTISODIYOT”, 2014. – 112 b.**

Ushbu o'quv qo'llanmada “Mintaqqa va mahalliy xo'jaliklar iqtisodiyoti” fanida berilgan mavzular tartibi asosida mavzularga doir uslubiy ko'sratmalar, masalalar, ularni echish uslublari va masalalarni echish usullarini o'zlashtirib, mustahkamlab olish uchun qo'shimcha masalalar keltirilgan.

Mazkur o'quv qo'llanma Davlat ta'lim standartlariga muvofiq ishlab chiqilgan o'quv dasturi asosida tayyorlangan bo'lib, uni 5340100-«Iqtisodiyot» ta'limi yo'nalihidagi bakalavrlar, magistrlar, ilmiy tadqiqotchi-islanuvchilar, shuningdek, kasb-hunar kollejlarining shu sohadagi o'qituvchilari hamda korxonalarning iqtisodiy bo'lim xodimlari uchun mo'ljallangan.

Ўқув кўлланма Наманган мухандислик-технология институти ўқув-услубий кенгаши томонидан 2014 йил 18 июняғи 11/3.5-сонли йиғилиши баённомаси билан тасдиқланиб, чоп этишга тавсия этилган.

**Масъул мухаррир:** и.ф.д., доц. Р. Исимоилов

**Тақризчилар:** и.ф.д., проф. Н.М. Махмудов – ТДИУ,  
и.ф.н., доц. Б. Бойханов – НамМТИ

УЎК: 332.12(575.1)(075)  
КБК: У 65+я 292(575.1)

ISBN 978-9943-4332-5-0

© “IQTISODIYOT” нашриёти, 2014.

## МУНДАРИЖА

<b>КИРИШ.....</b>	<b>5</b>
<b>1-боб. МИНТАҚАВИЙ ИҚТИСОДИЁТ ФАНИНИНГ ПРЕД- МЕТИ, МАҚСАДИ ВА ВАЗИФАЛАРИ.....</b>	<b>6</b>
1.1. Ялпи минтақавий маҳсулотни ҳисоблаш услублари ва уларга доир масалалар.....	6
<b>2-боб. МИНТАҚАЛАРНИНГ МИНЕРАЛ ХОМАШЁ ВА ТАБИЙ РЕСУРСЛАРИ.....</b>	<b>9</b>
2.1. Чекли технологик алмаштириш нормасини аниклашга доир масала.....	9
2.2. Ресурслардан оптимал фойдаланиш масаласи.....	10
<b>3-боб. ИШЛАБ ЧИҚАРУВЧИ КУЧЛАРНИ ЖОЙЛАШТИ- РИШНИНГ (ИЧКЖ) НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ.....</b>	<b>12</b>
<b>4-боб. МИНТАҚАЛАР АҲОЛИСИ ВА МЕҲНАТ РЕСУРС- ЛАРИ.....</b>	<b>15</b>
<b>5-боб. ЎЗБЕКИСТОН МИНТАҚАЛАРИДА САНОАТ ТАР- МОГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ҲУДУДИЙ ЖИҲАТЛАРИ.....</b>	<b>21</b>
<b>6-боб. МИНТАҚАЛАРДА ИҚТИСОДИЙ-ҲУДУДИЙ ИХТИ- СОСЛАШУВ.....</b>	<b>26</b>
<b>7-боб. МИНТАҚАЛАРДА КОММУНИКАЦИЯ МАЖМУАСИ...</b>	<b>30</b>
<b>8-боб. МИНТАҚАЛАР МОЛИЯСИ ВА УНИ ТАРТИБГА СОЛИШ.....</b>	<b>34</b>
<b>9-боб. МИНТАҚАЛАРНИНГ ТАШҚИ ИҚТИСОДИЙ АЛО- ҚАЛАРИ ВА ЭКСПОРТНИ КЎПАЙТИРИШ ЙЎЛ- ЛАРИ.....</b>	<b>37</b>
<b>10-боб. МИНТАҚАЛАРНИНГ ИЖТИМОИЙ-ИҚТИСОДИЙ РИВОЖЛАНИШНИ ТАРТИБГА СОЛИШ.....</b>	<b>39</b>
<b>11-боб. МИНТАҚАЛАРНИ ИЖТИМОИЙ-ИҚТИСОДИЙ РИВОЖЛАНИШ ИМКОНИЯТЛАРИ.....</b>	<b>52</b>

<b>KIRISH.....</b>	<b>58</b>
<b>1-bob. MINTAQAVIY IQTISODIYOT FANINING PREDMETI, MAQSADI VA VAZIFALARI.....</b>	<b>59</b>
1.1. Yalpi mintaqaviy mahsulotni hisoblash uslublari va ularga doir masalalar.....	59
<b>2-bob. MINTAQALARNING MINERAL XOMASHYO VA TABIIY RESURSLARI.....</b>	<b>62</b>
2.1. Chekli texnologik almashtirish normasini aniqlashga doir masala.....	62
2.2. Resurslardan optimal foydalanish masalasi.....	63
<b>3-bob. ISHLAB CHIQARUVCHI KUCHLARNI JOYLASHTI- RISHNING (ICHKJ) NAZARIY ASOSLARI.....</b>	<b>65</b>
<b>4-bob. MINTAQALAR AHOLISI VA MEHNAT RESURSLARI....</b>	<b>68</b>
<b>5-bob. O'ZBEKISTON MINTAQALARIDA SANOAT TARMO- G'INI RIVOJLANTIRISHNING HUDUDIY JIHATLARI....</b>	<b>73</b>
<b>6-bob. MINTAQALARDA IQTISODIY-HUDUDIY IXTISOS- LASHUV.....</b>	<b>78</b>
<b>7-bob. MINTAQALARDA KOMMUNIKATSIYA MAJMUASI.....</b>	<b>82</b>
<b>8-bob. MINTAQALAR MOLIYACI VA UNI TARTIBGA SOLISH</b>	<b>86</b>
<b>9-bob. MINTAQALARNING TASHQI IQTISODIY ALOQALARI VA EKSPORTNI KO'PAYTIRISH YO'LLARI.....</b>	<b>89</b>
<b>10-bob. MINTAQALARNING IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJ- LANISHINI TARTIBGA SOLISH.....</b>	<b>91</b>
<b>11-bob. MINTAQALARNI IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANISH IMKONIYATLARI.....</b>	<b>104</b>
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXAT.....</b>	<b>109</b>

## **КИРИШ**

Мамлакатимизда амалга оширилаётган иқтисодий ислоҳотларнинг ҳозирги босқичида ишлаб чиқариш кучларини жойлаштириш ва ривожлантиришнинг мінтақавий жиҳатларини ўрганиш муҳим аҳамият касб этмоқда.

Шу боис мамлакатимизда иқтисодий ислоҳотларни амалга оширишда, яқин истиқболда, мінтақаларда табиий, минерал ҳомашё ва сув-ер имкониятидан оқилона фойдаланиш, мінтақаларнинг демографик ҳолатини ҳамда аҳолини иш билан бандлигини, бозор тузилмаси, транспорт йўллар ва коммуникация ҳолатини, жумладан, энергетика, табиий газ ва ичимлик суви билан таъминланиши, мінтақаларнинг молиявий барқарорлигига ўз-ўзини молиялаштириш, маҳаллий бюджетнинг камомадини бартараф этиш ва инвестиция ресурсларини кучайтириши имкони яратилади.

Бу эса ўз навбатида келажак авлодни ҳар томонлама етук, билимли ва ўз ишининг устаси қилиб тарбиялашдек масъулиятни юклайди. Бундан кўринадики, бўлажак иқтисодчи мутахассисдан турли мінтақаларнинг географик ўрни, табиий шароити, ресурслари, ихтисослашувдаги фарқли ва ўхшаш томонларини аниклаб, уларнинг хусусияларини таҳлил қилишини ўрганиш, мамлакат ҳудуди ва унинг мінтақаларини табиий-ресурс салоҳиятини, ривожланиш даражасини, етакчи тармоклар жойлашуви ҳакида тушунчаларни билиш, ҳар бир мінтақанинг табиий-иқтисодий, демографик, экологик ва бошка хусусиятларини хисобга олган ҳолда иқтисодиётни юксалтириш бўйича вазифаларини ҳудудлар ижтимоий-иқтисодий ривожланиши билан муштарак ҳолда амалга оширишнинг ўзига хос хусусиятларини ўрганиши лозим бўлади.

Бундан ташқари кўлланмани ҳар бир ўқувчисига тушунарли бўлишини таъминлаш учун муаллиф барча масалалар ва уларнинг ечилиш усуллари ҳамда кўрсатмаларни ҳам кирил ҳам лотин алифбосида баён этган. Шунингдек, ушбу кўлланмада берилган масалалар ва уларнинг ечилиш усуллари турмушимизда кўплаб дуч келадиган жараёнларни ўз ичига олган.

Шу маънода тақдим этилаётган кўлланма талабаларда мінтақаларнинг турли иқтисодий салоҳиятларини, бозор ислоҳотларини амалга ошириш, аввало, ҳудудий даражада намоён бўлишини, мавжуд ижтимоий-иқтисодий муаммоларни ҳал этишда ҳудудий бошқарув органлари масъулияти ва уларнинг ваколатлари кенгайишини ҳамда муҳим иқтисодий масалалар тармок, умумреспублика миқёсидан ҳудудий даражага ўтказилишини амалда кандай бораётганини ўргатишда муҳим аҳамият касб этади.

# I-боб. МИНТАҚАВИЙ ИҚТІСОДИЁТ ФАНИНИНГ ПРЕДМЕТИ, МАҚСАДИ ВА ВАЗИФАЛАРИ

## 1.1. Ялпи минтақавий маҳсулотни хисоблаш услублари ва уларга доир масалалар

Ялпи минтақавий маҳсулот ҳам ялпи ички маҳсулот каби иккита усул: яғни ишлаб чикариш ва пировард фойдаланиш усууллари бўйича хисобланади. Ишлаб чикариш усули бўйича ялпи минтақавий маҳсулот – минтақалар бўйича ялпи ишлаб чиқарилган товар ва хизматлар билан оралик истеъмол ўртасидаги фарқ бўйича хисобланади. Бошқача қилиб айтганда у минтақа тармокларида яратилган барча кўшилган кийматлар йигиндисига teng. ЯММ бозор баҳоларида хисоблаш учун юқоридаги кийматга маҳсулотларга қўйилган соф соликни қўшиш зарур. Унинг формуласи куйидаги кўринишга эга бўлади:

$$ЯММ = (Я - ОИ) + M_{cc} \text{ ёки } ЯММ = \sum_{i=1}^n ЯКК + M_{cc}$$

бу ерда: Я – ялпи ишлаб чикариш;

ОИ – оралик истеъмол;

$M_{cc}$  – маҳсулотга соф солик.

Пировард фойдаланиш усули бўйича ҳисобланган ЯММ – пировард истеъмол ва ялпи жамғаришга килинган барча харажатлар йигиндиси сифатида аникланади ва у куйидаги формула бўйича аникланади:

$$ЯММ = ПИ + ЯЖ$$

бу ерда: ПИ – пировард истеъмол;

ЯЖ – ялпи жамғарма.

Миллий даромад соф миллий маҳсулотдан билвосита(эгри) соликларни айирмасига teng бўлган кўрсаткич ҳисобланади.

Соф миллий маҳсулот ялпи ички маҳсулотдан аммортизация ажратмасини айирмасига teng.

Ялпи миллий маҳсулот – ўз мамлакати ёки хорижда жойлашуви-дан катъи назар, миллий корхоналар томонидан яратилган маҳсулот ва хизматлар умумий хажмининг жами киймати. ЯММ кўрсаткичига соф экспорт (экспорт ва импорт ўргасидаги фарқ) киради.

Ялпи ички маҳсулот – маълум вакт давомида, масалан, бир йилда яратилган ва бевосита истеъмолчиларга бориб етадиган барча тайёр маҳсулот ва кўрсатилган хизматларнинг бозор нархидаги киймати.

### 1-масала

Жадвалда келтирилган маълумотлар асосида ЯИМ, СММ, МД ва ЯММни хисобланг.

T/н	Кўрсаткичлар	Белгиланиши	млрд. пул бирлиги
1.	Ёлланма ходимларнинг иш ҳақи	W	194,2
2.	Товар ва хизматлар экспортни	E	13,4
3.	Якка кўйилмалардан даромадлар	H	23,3
4.	Амортизация	A	21,8
5.	Товар ва хизматларнинг давлат ҳариди	G	59,4
6.	Бизнесга эгри соликлар	T <sub>1</sub>	12,3
7.	Соф хусусий ички инвестициялар	I	52,1
8.	Фоиз ставкаси	R	14,5
9.	Корпорациялар фойдаси	P	33,9
10.	Товар ва хизматлар импорти	I <sub>m</sub>	16,5
11.	Даромад солиги	T <sub>2</sub>	33,7
12.	Истеъмол харажатлар	C	219,1
13.	Ялпи жамгарма	S	65,7

## МАСАЛАНИНГ ЕЧИЛИШИ

### 1-усули харажатлар кўринишида аниқлаш

ЯИМ ни 2 хил усулда ҳисоблаб топиш мумкин.

Биринчиси харажатлар орқали ҳисоблаш формуласини кўйида-  
гича тасвириш мумкин:

$$ЯИМ = C + I + G + X_n$$

тengлигини эътиборга олган ҳолда дастлаб,  $X_n$  – соф экспорт кийма-  
тини аниқлаб оламиз.  $X_n$  – экспорт ва импорт ўртасидаги фарқ.

$$X_n = 16,5 - 13,4 = 3,1 \text{ бундан}$$

$$ЯИМ = C + I + G + X_n = 219,1 + 52,1 + 59,4 + 3,1 = 333,7$$

### 2-усули даромадлар кўринишида аниқлаш

$$ЯИМ = W + H + A + T + R + P = 194,2 + 23,3 + 21,8 + 46 + 14,5 + 33,9 = 333,7$$

Харажатлар ва даромадлар кўринишида ҳисоблаб топилган ЯИМ  
хажми ўзаро мос келади. Чунки миллий иктисодиёт доирасида бир  
субъект томонидан қилинган ҳар қандай харажат иккинчи субъект учун  
даромад бўлиб тушади.

$$СММ = ЯИМ - A = 333,7 - 21,8 = 311,9$$

$$МД = СММ - T_1 = 311,9 - 12,3 = 299,6$$

$$ЯММ = (Я - ОИ) + M_{cc} = (333,7 - 219,1) + ЯММ$$

### 2-масала

Режа йилидаги фонд қайтимини аниқланг. Режа йилидаги ялпи  
миллий маҳсулот 165 млрд. сўм. Миллий даромад 78 млрд сўм. Асосий  
фондларнинг ишлаб чиқарувчи қисми 220,5 млрд сўм, айланма маблағ  
қисми 31,5 млрд. сўм.

## **МАСАЛАНИНГ ЕЧИЛИШИ**

Фонд кайтими ( $f_o$ ) аниклаш формуласи куйидагича:

$$f_o = \frac{Q}{\Phi}$$

бу ерда: Q – маҳсулот ҳажми, қиймат пул кўринишида;  
 $\Phi$  – асосий ишлаб чиқариш фонdlари қиймати.

$$f_o = \frac{165}{220,5 + 31,5} \cdot 100 = \frac{165}{252} \cdot 100 = 65,5 \%$$

Фонд кайтими фонд сигимига тескари мутаносибdir. Демак, фонд кайтими қанчалик юкори ва фонд сигими қанчалик паст бўлса, ишлаб чиқариш ва меҳнат қуролларидан фойдаланиш самарадорлиги шунчалик юкори бўлади ва аксинча. Машина ва ускуналардан унумли фойдаланиш, ишлаб чиқариш технологияларини такомиллаштириш ҳамда ходимлар малакасини ошириш, фонд кайтимини кўпайтиришнинг муҳим захираси ҳисобланади.

## **МУСТАҚИЛ БАЖАРИШ УЧУН МАШҚЛАР**

### **1-масала**

Мамлакатда режа йилидаги ялпи миллий маҳсулот 150 млрд. сўм, миллий даромад 75 млрд. сўм. Ижтимоий харажатлар 84 млрд. сўм, асосий фонdlарнинг ишлаб чиқарув кисми 201,2 млрд. сўм, оборот кисми 25,4 млрд. сўмга teng бўлса, режа йилидаги фонд қийматини аникланг (%).

### **2-масала**

Вилоятда 1680 млн сўм товар-маҳсулот ишлаб чиқарилган ва унинг 1440 млн. сўм реализация килинган. Вилоятда 12,4 млн. сўм пули хизмат кўрсатилган. Умумий ҳолда вилоятнинг ижтимоий харажатлари 552,8 млн. сўм. Ижтимоий харажатларда моддий харажатларнинг салмоғи 65 %ни ташкил этса, корхоналарнинг фойдасини аникланг.

### **3-масала**

Мамлакатда режалаштирилаётган йилдаги аҳоли сони – 25 млн. кишини ташкил этиб, жами ижтимоий маҳсулот – 56 млрд. сўм ва моддий харажатлар – 31 млрд. сўмга teng бўлганда ишлаб чиқарилган миллий даромадни ва аҳолини жон бошига тўғри келадиган миллий даромадини аникланг.

## **2-боб. МИНТАҚАЛАРНИНГ МИНЕРАЛ ХОМАШЁ ВА ТАБИЙ РЕСУРСЛАРИ**

### **2.1. Чекли технологик алмаштириш нормасини аниқлашга доир масала**

#### **Услубий күрсатма**

Иқтисодиётда ишлаб чиқариш түгрисида гап борар экан, биринчи навбатда мавжуд хомашё ва ресурслардан самараали фойдаланиш назарда тутилади. Бунинг учун “Чекли технологик алмаштириш нормаси” тушунчасини англаб олиш зарур бўлади. Чекли технологик алмаштириш нормаси( $MRTS_{xy}$ ) – ишлаб чиқариш ҳажми ўзгармаганда бир бирлик X омилни неча бирлик Y омил билан алмаштириш мумкин бўлган иқтисодий кўрсаткичга айтилади ва куйидаги формула билан аниқланади:

$$MRTS = \frac{K}{L} \quad (1)$$

бунда:  $K$  – капитал ёки ишлаб чиқариш омилларидан бири;

$L$  – меҳнат сарфи ёки ишлаб чиқариш омилларидан иккинчиси деб қараш мумкин.

Ишлаб чиқариш омиллари деб, бирор неъматни ишлаб чиқаришда фойдаланиладиган ҳар қандай товар ёки неъматларга айтилади.

#### **1-масала**

Айтайлик, минтақада умумий ишлаб чиқариш функциясини  $Q = L^{0.4} K^{0.2}$  билан ифодалансин. Минтақа ялпи харажати 15 млрд. сўмга тенг бўлиб, меҳнат нархи 2 млрд. сўм ва капитал киймат 2,5 млрд. сўм бўлса, минтақада максимал маҳсулот ишлаб чиқаришни таъминлайдиган ресурслар сарфи аниқлансан.

#### **МАСАЛАНИНГ ЕЧИЛИШИ:**

$$MRTS = \frac{0,4 L^{-0,2} K^{0,2}}{0,2 L^{0,4} K^{-0,4}} \quad \text{ёки} \quad MRTS = \frac{2K}{L}$$

аниқланган натижага кўра, мувозанат нуқтада:

$$\frac{2K}{L} = \frac{2}{2,5}; \quad K = \frac{1}{2,5} L \quad \text{га тенг бўлади.}$$

Масала шартига кўра,  $2L + 2,5K = 15$  бўлади. Бундан,  $K$  ни  $L$  орқали ифодалаш орқали,

$$2L + 2,5 \cdot \frac{1}{2,5} L = 15 \quad 3L = 15 \quad L = 5 \Rightarrow K = \frac{1}{2,5} \cdot 5 = 2$$

Ифодани ҳосил қиласыз ва бу орқали  $L=5$  va  $K=2$  мікдорда сарфлаш лозимлигини аниклаймиз.

Жавоб: мөннат 5 бирлик, капитал 2 бирлик сарфланганда мінтақада максимал маҳсулот ишлаб чиқарылади.

## 2.2. Ресурслардан оптималь фойдаланиш масаласи

### Услубий күрсатма

Ишлаб чиқариш жараёни самарадорлигига, яғни маҳсулот ишлаб чиқаришнинг максимал даражасига эришишда, энг аввало, хомашё ва ресурслардан фойдаланишни оптималь сарфланадиган ҳолатларни аниклаш лозим. Бундан ташқари, албатта, ишлаб чиқаришнинг узлуксизлиги ва давомийлигини таъминлашда ишлаб чиқарувчиларнинг мувозанат шартлари бажарилиши хам мұхым аҳамият касб этади. Юқорида келтирилған фирмалар бир-бири билан чамбарчас боғлик.

Ишлаб чиқарувчи мувозанат ёки максимал маҳсулот ишлаб чиқариш учун оптималь сарфланадиган мөннат ва капитал мікдорини аниклаш шарти бўлиб, ишлаб чиқаришнинг шундай ҳолати тушуниладики, бунда ҳар қандай омил учун сарфланадиган бир бирлик пул мікдори, бир хил мікдордаги маҳсулот ишлаб чиқарылишини таъминлайди. У куйидаги формула орқали ифодаланади:

$$\frac{MRF_1}{P_1} + \frac{MRF_2}{P_2} + \dots + \frac{MRF_n}{P_n} \text{ ёки } \frac{MRF_1}{MRF_2} = \frac{P_1}{P_2}$$

бунда:  $MRF$  – ишлаб чиқарылган маҳсулот бирлиги;

$P$  – омил учун сарфланадиган бир бирлик пул мікдори.

Юқорида келтирилған ифодадан фойдаланган ҳолда ишлаб чиқарувчининг мувозанат шартини келтириб чиқариш мүмкін:

$$\frac{MP_1}{P_1} = \frac{MP_2}{P_2} = \dots = \frac{MP_n}{P_n}$$

### 2-масала

Мінтақада хомашё ресурслари мавжуд бўлиб, маҳсулот ишлаб чиқариш учун факат мөннат ва капиталга ҳаражат қилиши режалашибтирилған. Режага кўра, мөннат сарфи қиймати  $P_L = 10$  млн. сўм,  $P_K = 20$  млн. сўмга тенг бўлиши керак. Мінтақа бюджети 300 млн. сўмга тенг. Мінтақада ишлаб чиқариш функцияси  $Q(K, L) = K^{\frac{2}{3}} \cdot L^{\frac{1}{3}}$  кўринишда ифодаланса, мінтақада максимал маҳсулот ишлаб чиқариш учун канча капитал ва мөннатдан фойдаланиш талаб этилади.

## **МАСАЛАНИНГ ЕЧИЛИШИ:**

Бизга маълумки, максимал ишлаб чиқариш ҳажми ўзгарувчан омилнинг чекли унумдорлиги нолга тенг бўлганда таъминланади  $MP_L = 0$ . Шунинг учун биз меҳнат омилларининг чекли унумдорлигини топишида ишлаб чиқариш функциясидан масала шартига кўра, хусусий хосила олиб, уни нолга тенглаштирамиз

$$MP_K = \frac{dQ}{dK} = \frac{1}{2} \times \sqrt{\frac{L}{K}}, \quad MP_L = \frac{dQ}{dL} = \frac{1}{2} \times \sqrt{\frac{K}{L}}$$

буларни ишлаб чиқарувчининг мувозанат шарти

$$\frac{MP_K}{P_K} = \frac{MP_L}{P_L} \text{ га қўйсак, } \sqrt{\frac{K}{L}} = 1 \text{ бўлади.}$$

Бундан  $K = L$  эканини аниклаймиз.

Масала шартига асосан,  $10 \cdot L + 20 \cdot K = 300$  дан  $30 \cdot L = 300$  бундан  $L = 10$  га тенглиги келиб чиқади.

Жавоб:  $K = L = 10$  бирлик.

## **МУСТАҚИЛ БАЖАРИШ УЧУН МАШҚЛАР**

### **1-масала**

$Q = K^{0.5}L$  функция билан берилган ишлаб чиқаришнинг 8 бирлик капитал ва 4 бирлик меҳнатдан фойдаланилганда чекли технологик алмаштириш нормаси, яъни капитални меҳнат омили билан алмаштириш нормаси нимага тенг бўлади?

### **2-масала**

Минтақа аграр соҳага ихтисослашган бўлиб, қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини ишлаб чиқаради ва минтақа ишлаб чиқариш функцияси  $Q = 2K^{\frac{1}{2}}L^2$  орқали ифодаланади. Меҳнат сарфи қиймати 6 млн. сўм, капитал нархи 10 млн. сўм. Минтақа ялпи харажати 1800 млн. сўм бўлса, максимал маҳсулот ҳажми ва уни таъминловчи ресурслар сарфини аникланг.

### **3-масала**

Худудий корхонанинг ишлаб чиқариш функцияси  $Q = 6K^2 \cdot L^3$  кўринишга эга. Капитал харажати 60 млн. сўм, ишчи кучи қиймати 130 млн. сўм бўлса, корхона маҳсулот ишлаб чиқариши учун қанча ишчи кучидан ва қанча миқдордаги капиталдан фойдаланади?

## **З-БОБ. ИШЛАБ ЧИҚАРУВЧИ КУЧЛАРНИ ЖОЙЛАШТИРИШНИНГ (ИЧКЖ) НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ**

### **Услубий кўрсатма**

Ўтиш даврини бошидан кечираётган, ўзларининг мустақил минтақавий сиёсатини жорий этаётган мамлакатлар, жумладан, Ўзбекистон учун хорижий олимлар ва минтақашунос мутахассислар томонидан ишлаб чиқилган ишлаб чиқаришни жойлаштиришнинг назарий асослари муҳим илмий ва амалий аҳамият касб этади. Улар чуқур илмий изланишларга, бой тажрибага ва минтақавий экспертизаларга асосланган.

Ишлаб чиқариш кучларини оқилона ва самарали жойлаштириш деганда маҳсулот ишлаб чиқариш харажатларини минимал ҳолатга келтириш ва ишлаб чиқаришнинг барча (тайёр маҳсулотгача бўлган) босқичларини муайян ҳудудга жойлаштириш тушунилади.

### **1-масала**

Агар корхонада маҳсулот ишлаб чиқариш бўйича 5 та ишлаб чиқариш жараёнларининг давомийлиги 0,5; 1,5; 0,25; 0,75; 1,0 (мин) бўлса, хамда соатига 480 та деталь ишлаб чиқарилаётган бўлса ишлаб чиқариш занжиридаги ишчилар жойлашувини ва уларнинг умумий сонини аникланг.

### **МАСАЛАНИНГ ЕЧИЛИШИ**

Давомийлиги бўйича энг минимал жараённинг меҳнат сифими аникланади:  $480 \cdot 0,25 = 120$  мин. Ишловчиларнинг зарур бўлган сони 2 та ( $120:60$ ). Қолган жараёнлар учун ишловчилар сони қуидаги формула ёрдамида аникланади:

$$P_c = \frac{J_D}{J_{\min}}$$

бу ерда:  $P_c$  – ишловчилар сони;

$J_D$  – ишлаб чиқариш жараёнларининг давомийлиги;

$J_{\min}$  – ишлаб чиқаришнинг энг минимал жараёни.

Шундай килиб, биринчи жараёнда 4 киши ( $\frac{0,5}{0,25} \cdot 2$ ), иккинчисида – 12та ( $\frac{1,5}{0,25} \cdot 2$ ), учинчисида – 2та, тўртинчисида – 6та ( $\frac{0,75}{0,25} \cdot 2$ ) ва бешинчисида – 8та ишчи ( $\frac{1,0}{0,25} \cdot 2$ ). Жами – 32 киши.

Текшириш. 480 та деталнинг меҳнат сарфи 1920 мин (480·4). 32 та ишчи ҳам соатига 1920 мин ишлайди (32·0), шундай экан занжиришимиз тўхтовсиз ишлайди.

## 2-масала

Вилоятда фаолият юритаётган корхона 3 та цехдан иборат. Агар 1-цехда бир ойда бажарилаётган ишлар меҳнат сарфи 4569 норма-соат, 2-цехида – 5860 ва 3-цехда – 2513 норма-соат бўлса, цехларнинг ўзаро боғлиқ участкаларида минимал, бироқ етарли ишчилар сонини хисобланг. Ишлаб чиқариш нормалари режасининг бажарилиши мос холда 118, 124 ва 111 %, битта ишчининг иш вақти жамғармаси 176 соат.

## МАСАЛАНИНГ ЕЧИЛИШИ

Ҳар бир участка бўйича ишчилар сони қўйидаги формула ёрдамида ҳисобланади:

$$P_c = \frac{M_c \cdot 100}{H_T \cdot H_{y\phi}}$$

Бу ерда:  $P_c$  – ишчилар сони;

$M_c$  – участка бўйича ишлар ҳажмининг меъёрдаги меҳнат сиғими;

$H_T$  – ҳисобот давридаги битта ишчининг иш вақти жамғармаси;

$H_{y\phi}$  – режалаштирилаётган ишлаб чиқариш нормалари бажарилишининг ўртача фоизи.

Бизнинг мисолимизда  $P_1 = \frac{4569 \cdot 100}{176 \cdot 118} = 22$  киши;

$P_2 = \frac{5860 \cdot 100}{176 \cdot 124} = 27$  киши; ва  $P_3 = \frac{2513 \cdot 100}{176 \cdot 111} = 13$  киши.

## 3-масала

Агар корхона цехидаги ишчилар ўз оператив вақтларининг 10 %ини ўз-ўзларига хизмат кўрсатишга сарфлаётган бўлсалар, асосий ишчиларга хизмат кўрсатиш учун зарур бўладиган ёрдамчи ишчиларнинг минимал, бироқ етарли сонини аниқланг. Цехдаги асосий ишчилар сони 300 киши, сменадаги оператив вақт 410 минут.

## МАСАЛАНИНГ ЕЧИЛИШИ

Ўз-ўзига хизмат кўрсатишга кетаётган оператив вақт сарфлари йигиндиси 12300 минут (300·410·0,1). Зарур бўлган ёрдамчи ишчилар сони 330 киши. (12300:410).

## **МУСТАҚИЛ БАЖАРИШ УЧУН МАШҚЛАР**

### **1-масала**

Корхонада маҳсулот ишлаб чиқариш жараёни 5 та ўзаро боғлиқ ва кетма-кет бажариладиган операциялардан иборат бўлиб, уларнинг меҳнат сифими 16, 22, 4, 31 ва 15 минут. Агар смена ичидаги маҳсулот ишлаб чиқариш режаси 240 дона бўлса, хар бир операцияни бажариш учун ва умуман ишлаб чиқариш занжирига зарур бўлган ишчилар сонини аниқланг.

### **2-масала**

Цехнинг учта ўзаро боғлиқ ишлаб чиқариш участкаларида нормаланган ишлар меҳнат сифими 2050, 3440 ва 1890 меъёр-соатни ташкил қиласди. Агар биринчи икки участкада битта ишчининг ойлик иш вакти жамғармаси 176 соатдан бўлса, учинчисида белгиланган қисқартирилган иш куни бўйича-154 соат бўлса, участкалар бўйича ишчилар сонини ва уларнинг цехдаги умумий сонини аниқланг.

### **3-масала**

Корхонада 100 та асосий станокчи ишчилар бор. Смена давомида уларнинг ҳар бири кесувчи асбобни чархлаш учун 35 минут ва ярим маҳсулотни келтириш учун 42 минут сарфлайди. Асбоб чархловчи ва автокараларни ҳайдовчилардан иборат ёрдамчи ишчилар бригадаси ташкил қилинса, асосий ишчилар ёрдамчи ишлардан озод бўладилар. Уларнинг ҳар бирини сменадаги оператив вакти 343 дан 420 минут-гача кўпаяди. Агар ихтисослаштирилган бригада шароитида бу ишларнинг меҳнат сифими 20 % камайса ёрдамчи ишчилар бригадасидаги асбобларни чархловчи ва автокаралар ҳайдовчиларининг сонини хисобланг.

### **4-масала**

Смена давомида 100 та болалар кўйлаги ишлаб чиқарилади. Битта кўйлакни ишлаб чиқариш учун кетадиган меъёр-соатлар йиғиндиси 40 минутни ташкил қиласди. Агар жараёнларнинг меҳнат сарфи 1:3:2:0, 5:0, 25:0,5 га tengлаштирилган бўлса, ишчиларнинг смена бўйича сонини ва иш жойлари бўйича таксимланишини аниқланг.

## **4-боб. МИНТАҚАЛАР АҲОЛИСИ ВА МЕҲНАТ РЕСУРСЛАРИ**

### **Услубий кўрсатма**

Ҳар бир ўлка, ҳудуд, вилоят ёки мамлакатнинг ижтимоий-иқтисодий ривожланиши, аввало, шу жойда яшовчи аҳолининг меҳнат фаолиятига боғлик. Маҳаллий аҳолининг меҳнат маданияти, жамоа ишларидаги ижтимоий фаолиги, билим ва малакалари, оиласвий таркиби, ёши ва жинси шу ўлкада иқтисодий тараққиётнинг ривожланшида катта роль ўйнайди.

Аҳолининг туғилишини ўлимдан кўплиги натижасида меҳнат ресурслари сони кўпаяди. Айрим ҳудудларда инсон ресурсларининг микдорига аҳоли миграцияси ҳам сезиларли таъсир кўрсатади. Меҳнат ресурсларининг ошиб бориши ўз навбатида аҳолининг бандлигини таъминлаш муаммосини келтириб чиқарадики, бу масалани ечишда меҳнат бозори мухим аҳамият касб этади.

Меҳнат бозори бозор инфратузилмасида ишчи кучини ёллаш ва ундан фойдаланиш бўйича ижтимоий-иқтисодий ва меҳнат муносабатлари мажмуи бўлиб, меҳнатга бўлган талаб ва таклифда ўз ифодасини топади.

Меҳнат бозоридаги вазият фақатгина иш билан бандлар ва ишсизларнинг мутлак сони орқали эмас, балки иш билан бандлик ва ишсизлик даражаси орқали ҳам баҳоланади.

Мамлакат, минтака ёки ҳудудлардаги меҳнат ресурслари сонини аниқлашдаги бошлангич маълумотлар бўлиб, ушбу ҳудуд аҳолисининг сони, таркиби ва ҳаракати кўрсаткичлари хизмат қилади. Бунда қуйидаги кўрсаткичлар назарда тутилади.

1) Йил давомида аҳолининг ўртача йиллик сони:

$$P = \frac{P_{\text{ю.б}} + P_{\text{ю.о}}}{2};$$

бу ерда:  $P_{\text{ю.б}}$  – аҳолининг йил бошидаги сони;

$P_{\text{ю.о}}$  – аҳолининг йил охиридаги сони.

2) Йил давомида умумий тугилиш коэффициенти ( $n$ ) (промиллда):

$$n = \frac{N_i}{P} \cdot 1000;$$

3) Йил давомида умумий ўлиш коэффициенти ( $m$ ) (промиллда):

$$m = \frac{N_j}{P} \cdot 1000;$$

4) Йил давомида аҳолининг табиий ўсиши (камайиши):

$$E = N_i - N_j;$$

бу ерда:  $N_i$  – йил давомида тугилганлар сони;

$N_j$  – йил давомида вафот этганлар сони;

5) Аҳолининг табиий ўсиш коэффициенти ( $K_i$ ) (промиллда):

$$K_i = \frac{E}{P} 1000;$$

6) Йил давомида аҳолининг механик (миграцион) кўпайиши (камайиши):

$$C = M_i - M_j;$$

бу ерда:  $M_i$  – йил давомида кўчиб келган аҳоли сони;

$M_j$  – йил давомида кўчиб кетган аҳоли сони.

7) Аҳолининг механик кўпайиши коэффициенти:

$$K_m = \frac{C}{P} 1000;$$

8) Йил давомида аҳолининг умумий кўпайиши:

$$\Delta P = E + C;$$

9) Аҳолининг умумий ўсиш коэффициенти ( $K_u$ ) (промиллда):

$$K_u = \frac{\Delta P}{P} 1000;$$

10) Таҳлил қилинаётган йил охирига ёки келаси йил бошига аҳоли сони башорати ( $P_k$ ):

$$P_k = P_n + E + C;$$

Мехнат ресурслари меҳнатга лаёкатли ўшдаги ҳамда меҳнатга лаёкатли ўшдан кичик ва катта ўшдаги ишлайтган фуқаролардан ташкил топади. Ҳозирги вактда Ўзбекистон Республикаси меҳнат қонунчилигига асосан меҳнатга лаёкатли ўш чегараси эркаклар учун 16-60; аёллар учун 16-55 ўш ҳисобланади. Бироқ одам организмига каттиқ таъсир этувчи психофизиологик омиллар билан боғлиқ баъзи бир касбий фаолият турлари учун пенсияга чиқиш чегараси 5-10 баъзан ундан ҳам кўпроқка кисқаради. Бу ноқулай оғир меҳнат шароитлари билан боғлиқ ишлаб чиқаришга (масалан кончилар) ҳамда йиллар давомида “меҳнат формаси”ни тутиб туриш имконияти йўқолишига (масалан балет) тегишли.

Реал ҳаётда кўргина имтиёзли пенсионерлар ўз ишида ёки бошқа ишларда меҳнат қилишни давом эттирадилар, шу меҳнат ресурслари таркибиغا кирадилар. Ишламайдиганлари эса улар таркибидан чиқарилади. Меҳнатга лаёкатли ўшдаги одамларнинг маълум

қисмини соғлигининг ёмонлиги туфайли ҳеч қачон ишламаган ёки ишламай кўйганлар ташкил этади. Улар I ва II гурӯҳ ногиронлари бўлиб, уларни давлат пенсия билан таъминлайди. Шундай қилиб меҳнат ресурслари сони қуидагича аниқланади:

$$MP = P_{m1} + P_{noz} + P_{nen} + P_{ysm};$$

Бу ерда:  $P_{m1}$  – меҳнатга лаёқатли аҳоли сони;

$P_{noz}$  – I-II гурӯҳ ногиронлари ва имтиёзли пенсионерлар;

$P_{nen}$  – пенсия ёшида ишлаётганлар;

$P_{ysm}$  – 16 ёшгача бўлган ишлаётган ўсмирлар.

Меҳнат ресурсларининг табиий кўпайиши:

$$MP_t = P_k - P_q;$$

бу ерда:  $P_k$  – меҳнатга лаёқатли ёшга тўлганлар;

$P_q$  – меҳнатга лаёқатли ёшдан чиққанлар.

Меҳнат ресурсларининг миграцион кўпайиши ҳамда меҳнат ресурслари сони динамикасининг нисбий кўрсаткичлари (умумий, тибий ва механик кўпайиш коэффицентлари) барча аҳоли учун ўхшашиб кўрсаткичларни ҳисоблаш каби аниқланади.

### 1-масала

Агар жорий йилда минтақанинг меҳнат ресурслари бўйича қуидаги маълумотлар мавжуд бўлса, келаси йилнинг бошида меҳнатга лаёқатли аҳоли сонини аниқланг: йил бошида меҳнатга лаёқатли аҳоли сони 70 млн. киши; йил давомида меҳнатга лаёқатли ёшда ўлганлар – 0,2 млн. киши; ушбу йилда меҳнатга лаёқатли ёшга тўлган ёшлар – 2 млн. киши; жорий йилда пенсия ёшига етганлар-1,6 млн. киши.

## МАСАЛАНИНГ ЕЧИЛИШИ

Масала шартига кўра:

$$P_{u,b} = 70 \text{ млн}, \quad P_k = 2 \text{ млн}, \quad P_{nen} = 1,6 \text{ млн}$$

Келаси йил бошига аҳоли сони башорати ( $P_k$ ) орқали белгилаб, қуидаги формула орқали аниқланади:

$$P_k = P_n + E + C;$$

бу ерда:  $E$  – Йил давомида меҳнатга лаёқатли аҳолининг табиий ўсиши (камайиши);

102401

*с* – Йил давомида меҳнатга лаёқатли ахолининг механик (миграцион) кўпайиши (камайиши).

$$E = P_k - P_n - P_{nen} = 2 \text{млн} - 0,2 \text{млн} - 1,6 \text{млн} = 0,2 \text{млн}$$

Масала шартига кўра, йил давомида меҳнатга лаёқатли ахолининг механик (миграцион) кўпайиши кузатилмаган шу боис, *C* = 0 бўлгани учун, масала жавоби куйидагича бўлади:

$$P_k = P_n + E + C; = 70 \text{млн} + 0,2 \text{млн} = 70,2 \text{млн}$$

## 2-масала

Минтақанинг меҳнатга лаёқатли аҳоли сони 80 млн. кишини ташкил этади, ш.ж. ишламайдиган I-II гурӯҳ ногиронлар – 1,2 млн. киши; ишлайдиган ўсмирлар-0,1 млн. киши; ишлайдиган пенсionерлар – 4,5 млн. киши. Меҳнат ресурслари сонини аниқланг.

## МАСАЛАНИНГ ЕЧИЛИШИ

Масала шартига кўра:

$$P_m = 80 \text{млн} \text{ киши}; P_{noz} = 1,2 \text{млн} \text{ киши};$$

$$P_{nen} = 4,5 \text{млн}-\text{киши}; P_{ycm} = 0,1 \text{млн} \text{ киши};$$

$$MP = P_m + P_{noz} + P_{nen} + P_{ycm} = 80 + 1,2 + 4,5 + 0,1 = 85,8 \text{млн}$$

## 3-масала

Минтақа аҳолиси сони 120 минг кишини ташкил қиласди, базис даврда ахолининг ўсиш коэффиценти-100 промилл, меҳнат ресурслари улуши – 50 %. Меҳнат ресурсларининг аҳоли сонидаги улуши ўзгармагани ҳолда режалаштирилаётган давр бошига аҳоли ва меҳнат ресурсларининг истиқболдаги сонини аниқланг.

## МАСАЛАНИНГ ЕЧИЛИШИ

Масала шартига кўра:

$$P = 120 \text{ минг} \quad K_i = 100 \text{ промилл}$$

Давр бошига аҳоли сони

$$P_n = 120 \cdot \text{минг} \cdot 50\% = 60 \cdot \text{минг}$$

$$K_i = \frac{E}{P} \cdot 1000; \Rightarrow E = (K_i \cdot P) / 1000 = (100 \cdot 120000) / 1000 = 1200$$

Меҳнат ресурсларининг истиқболдаги сони:

$$P_k = P_n + E + C = 60 \cdot \text{минг} + 1,2 \cdot \text{минг} = 61,2 \cdot \text{минг}$$

#### **4-масала**

Агар вилоятда меҳнатга лаёқатли аҳоли сони 750 минг киши, меҳнатга лаёқатли ёшдаги I-II гурӯҳ ногиронлар – 10 минг киши, 16 ёшгача бўлган ишловчи ёшлар – 15 минг киши, меҳнатга лаёқатли ёшдан юқори ёшда ишловчилар – 55 минг киши бўлса, меҳнат ресурслари сонини аниқланг.

### **МАСАЛАНИНГ ЕЧИЛИШИ**

Масала шартига кўра:

$$P_{ml} = 7500 \text{ минг киши}; P_{noz} = 10 \text{ минг киши};$$

$$P_{ySM} = 15 \text{ минг киши}; P_{neu} = 55 \text{ минг киши};$$

Меҳнат ресурслари сонини:

$$MP = P_{ml} + P_{noz} + P_{neu} + P_{ySM} = 750 + 10 + 15 + 55 = 830 \text{ минг}$$

### **МУСТАҚИЛ БАЖАРИШ УЧУН МАШҚЛАР**

#### **1-масала**

Агар минтақада жорий давр бошида меҳнатга лаёқатли аҳоли сони 1 млн. киши; меҳнатга лаёқатли ёшга кирувчи аҳоли сони 25 минг киши; меҳнатга лаёқатли ёшдан чиқиб кетувчилар – 17 минг киши; меҳнатга лаёқатли ёшдан ўлганлар – 5 минг киши; меҳнатга лаёқатли ёшдаги механик ўсиш – 3 минг киши бўлса, режалаштирилаётган давр охирида меҳнатга лаёқатли аҳоли сонини аниқланг.

#### **2-масала**

Йил бошида меҳнатга лаёқатли ёшдаги вилоят аҳолиси 1 млн. кишини ташкил қилган, пенсия ёшидаги ва 16 ёшгача бўлган ишловчилар сони 35 минг кишидан иборат. Йил давомида меҳнатга лаёқатлилар таркибида куйидаги ўзгаришлар юз берди: 260 минг киши меҳнатта лаёқатли ёшга тўлган; 65 минг киши бошқа вилоятлардан кўчиб келган; пенсия ёшида ишловчилар 20 минг киши; пенсия ёшига, ногиронликка ўтганлар ва ўлганлар 150 минг киши; 15 мингта пенсионер ишлашдан тўхтаган; меҳнатга лаёқатли 75 минг киши бошқа ҳудудларга кўчиб кетган. Йил боши ва охирида меҳнат ресурслари сонини; меҳнат ресурсларининг умумий, табиий ва механик ўсишни ҳамда мос равишда меҳнат ресуслари харакати коэффицентларини ҳисобланг.

#### **3-масала**

Вилоятда аҳолининг умумий ўсиш коэффиценти 10 промилл, аҳолининг умумий сонидаги меҳнат ресурслари улуши базис даврига

нисбатан 0,01 пунктга пасайиши, режалаштирилаётган давр бошида аҳоли сони 10 млн.киши, меҳнат ресурслари – 6 млн.кишини ташкил қилгани ҳолда ҳудуд бўйича меҳнат ресурсларининг истиқболдаги сонини хисобланг.

#### **4-масала**

Минтақанинг меҳнатга лаёқатли аҳоли сони йил бошида 1 млн. киши; меҳнатга лаёқатли ёшга тўлганлар 30 минг киши; шу ёшлардаги ўлганлар 5 минг киши; меҳнатга лаёқатли ёшдан ошганлар 35 минг киши; бошқа ҳудудлардан келганлар 350 минг киши; кетганлар – 100 минг киши бўлса йил охирида ҳудудда меҳнатга лаёқатли ёшдаги аҳоли сонини аниқланг.

## 5-боб. ЎЗБЕКИСТОН МИНТАҚАЛАРИДА САНОАТ ТАРМОГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ХУДУДИЙ ЖИҲАТЛАРИ

### Услубий қўрсатма

Тармоқлар орасида асосий бўғин саноатнинг ишлаб чиқариш мажмуаси ҳисобланади. Саноат мажмуасининг муҳим хусусияти шундаки, унинг барча тармоқларида меҳнат воситалари ва истеъмол товарлари, миллий даромаднинг катта қисми яратилади, илмий-техника тараққиётига эришилади. Айни пайтда Ўзбекистондаги меҳнатга яроқли аҳолининг асосий қисми ҳам саноат ишлаб чиқаришида банд. Ижтимоий меҳнат унумдорлиги моддий ишлаб чиқаришида банд бўлган битта ишловчига тўғри келадиган миллий даромад ўлчови билан баҳоланади. Ҳисоб-китобларни мутлақ ва нисбий ўлчовларда амалга ошириш мумкин.

Индувидуал меҳнат унумдорлиги –  $M$  вақт бирлигига (соат, смена, ой, квартал, йил) ишлаб чиқарилган маҳсулот сони (ишлар ҳажми) билан ўлчанади, шунингдек, иш ёки маҳсулот бирлигини ишлаб чиқариш учун сарфланган вақт орқали(киши -соат, киши-смена) ҳам аниқланади. Биринчи ҳолатда меҳнат унумдорлиги маҳсулот ишлаб чиқариш ўзгаришини, иккинчисида эса маҳсулот меҳнат сарфини билдиради. Биринчи ва иккинчи қўрсаткичлар ўртасида тескари мутаносиб боғликлик мавжуд.

Амалий ҳисоб-китобларда меҳнат унумдорлиги ўзгариши индекси – ( $I_M$ ) меҳнат сарфи индекси –  $I_{M_1}$  га тескари ўлчов сифатида аниқланади:

$$I_{M_1} = \frac{1}{I_{M_1}}; \text{ ва акси } I_{M_1} = \frac{1}{I_{M_1}}$$

Фоизлардаги ҳисоб-китобларда ( $a$ - меҳнат унумдорлиги,  $b$  - меҳнат сарфи) қуйидагилардан фойдаланилади:

$$A = \frac{b \cdot 100}{100 - b} \quad B = \frac{a \cdot 100}{100 + a}$$

Вақт бирлигига маҳсулот ишлаб чиқариш ҳам маҳсулот ҳажми каби қўрсаткичларда: натурал, шартли-натурал, меҳнат ва қиймат бирликларида ўлчанади. Ҳисоб-китобларни амалга оширишда қуйидагиларга эътибор бериш зарур:

Вақт миқёси бир хил бўлиши керак. Масалан, 7 соатлик иш куни қабул қилинган бўлса, давомийлиги бошқача бўлган иш кунларини 7 соатлика ҳисоб-китоблар орқали келтириш мумкин.

Мехнат унумдорлиги шартли-натурал усулда ўлчанганда, маҳсулотнинг бошқа қандайдир хусусиятларига кўра эмас, балки норматив мехнат салмоғини ҳисобга олган ҳолда амалга ошириш зарур.

Натурал кўрсаткичларни нисбий норматив мехнат сарфи коэффициенти орқали шартли-натурал кўринишга келтирилганда ўлчов бирлиги сифатида энг кам мехнат сарфига эга бўлган маҳсулотни қабул қилиш тавсия этилади.

Қиймат усулидан фойдаланиб мехнат унумдорлигини аникрок ўлчаш учун доимий ўзгарувчан таркибий индекслар ва тузилмавий ўзгаришлар ҳисобланади. Ўзгарувчан таркиб индекси ҳисобот даврида ишлаб чиқарилган маҳсулотни ( $B_1$ ) базис давридаги кўрсаткич билан ( $B_0$ ) солиштириш орқали аниқланади. Мазкур кўрсаткич маҳсулот ассортиментигина эмас, балки унинг материал талаблиги таркибидағи ўзгаришларнинг таъсири остида бўлади.

Ушбу таъсиrlарни бартараф этиш учун доимий таркибининг индекси мехнат унумдорлиги хусусий индексларининг ўрта ҳисобдаги арифметик кўрсаткичи сифатида ҳисобланаб чиқарилса, ушбу хусусий индекслар ходимларнинг сони ёки ҳисобот давридаги ишланган вақт бўйича ҳисобланган бўлади.

Хусусий индекслар корхонанинг бўлинмалари бўйича ёки аниқроғи тақкосланадиган маҳсулот ва ишнинг айрим турлари бўйича ҳисоблаб чиқарилади.

Таркибий индекс ўзгарувчан таркиб индексининг доимий таркиб индексига нисбати сифатида аниқланади.

### 1-масала

Режа бўйича маҳсулот ҳажми 2000 дона, ҳисобот бўйича 2200 дона, меҳнат сарфлари режа бўйича 400 киши-смена, ҳақиқатда 423 киши-смена. Мехнат унумдорлиги ўсишини ишлаб чиқариш ва меҳнат сарфи бўйича ҳисоблаш керак.

## МАСАЛАНИНГ ЕЧИЛИШИ

Мехнат унумдорлигининг ўсиши 1 киши-сменадаги маҳсулот ишлаб чиқаришнинг ўзгариши бўйича аниқланади яъни,  $MU = \frac{Q_2/M_{2c}}{Q_1/M_{1c}}$  формула орқали топилади:  $MU = \frac{Q_2/M_{2c}}{Q_1/M_{1c}} = \frac{2200/423}{2000/400} = 104\%$  демак, ишлаб чиқариш режага нисбатан 104 %ни ташкил қилган.

Махсулот ишлаб чиқаришга кетган мөхнат сарфини 3,85 %  
 $(M_e = \frac{M_{2e}/Q_2}{Q_1/(M_{1e} \cdot 100)} = \frac{423/2200}{2000/(400 \cdot 100)} = \frac{0,1923}{0,05} = 3,85)$  га нисбатан қуийдаги формула орқали аниқланади:

$$M_e = \frac{M_{2e}/Q_2}{M_{1e}/Q_1}$$

$$M_e = \frac{M_{2e}/Q_2}{M_{1e}/Q_1} = \frac{423/2200}{400/2000} = \frac{0,1923}{0,2} = 0,9615$$

Мөхнат сарфининг пасайиши бўйича ўлчанган мөхнат унумдорлигининг ўсиши ўша юқорида кўрсатилганидек, 4 %ни ташкил қилган яъни,

$$MY = \frac{1}{0,9615} = 1,04 \text{ ёки } MY = \frac{M_{1e}/Q_1}{M_{2e}/Q_2} = \frac{400/200}{423/2200} = 1,04$$

## 2-масала

Корхонада уч турдаги №1, №2 ва №3 маҳсулотлар ишлаб чиқаради ва ҳар бир маҳсулотдан юқорида келтирилган тартибда режа асосида 100, 250 ва 760 дона ҳақиқатда эса 120, 225 ва 820 дона маҳсулот ишлаб чиқарилган бўлиб, битта маҳсулотнинг мөхнат сарфи 20, 15 ва 5 норма-соатга тенг. Ушбу келтирилган маълумотлар асосида мөхнат унумдорлиги ўсишини шартли-натурал кўрсаткичларда аниқланг. (Ишловчилар сони ўзгармайди).

## МАСАЛАНИНГ ЕЧИЛИШИ

Ўлчов бирлиги сифатида минимал мөхнат сарфига эга бўлган №3 – маҳсулот қабул қилинади. Шунда шартли-натурал ўлчовда маҳсулот ишлаб чиқариш кўрсаткичлари қайидагича бўлади:

$$\text{Режа: } 100 \cdot \frac{20}{5} + 250 \cdot \frac{15}{5} + 750 \cdot \frac{5}{5} = 400 + 650 + 760 = 1910 \text{ дона}$$

$$\text{Ҳисобот: } 120 \cdot \frac{20}{5} + 225 \cdot \frac{15}{5} + 820 \cdot \frac{5}{5} = 480 + 675 + 820 = 1975 \text{ дона}$$

Ишловчилар сони ўзгармаганлиги учун маҳсулот ишлаб чиқаришнинг ошиши мөхнат унумдорлигининг ўсишига пропорционал:

$$MY = \left( \frac{Q_h}{Q_r} - 1 \right) \cdot 100$$

бу ерда:  $Q_h$  – ҳисобот бўйича ишлаб чиқарилган маҳсулот ҳажми,

$Q_r$  – режа бўйича ишлаб чиқарилган маҳсулот ҳажми

$$MY = \left( \frac{Q_h}{Q_r} - 1 \right) \cdot 100 = \left( \frac{1975}{1910} - 1 \right) \cdot 100 = (1,034 - 1) \cdot 100 = 3,4 \%$$

### 3-масала

Ускунани янгисига алмаштирилгандан сўнг маҳсулотнинг бирлигига кетадиган меҳнат сарфи 18 % камайди. Меҳнат унумдорлиги ошиши имкониятини аниқланг.

### МАСАЛАНИНГ ЕЧИЛИШИ

Берилган масалани ечишда  $MU = \frac{M_s \cdot 100}{100 - M_s}$  формуладан фойдаланамиз.

бу ерда:  $MU$  – меҳнат унумдорлиги;

$M_s$  – меҳнат сафи;

$$MU = \frac{18 \cdot 100}{100 - 18} = \frac{1800}{82} = 21,95 \%$$

Индекс усули билан хисобланса:

$$MU = \frac{I_{MU}}{I_T}; \quad MU = \frac{100}{100 - 18} = \frac{100}{82} = 1,2195$$

### 4-масала

Янги технологиянинг жорий қилиниши билан 1000 сўм товар маҳсулотининг меҳнат сарфи ( $t$ ) 210дан 186 киши соатга камайди. Меҳнат унумдорлиги ўсишини ва меҳнат сарфи камайишини хисобланг.

### МАСАЛАНИНГ ЕЧИЛИШИ

Берилган масала шартидан келиб чиккан ҳолда куйидаги формуладан фойдаланамиз

$$MU = \frac{M_s}{I_T} \cdot 100 - 100; \quad MU = \frac{210}{186} \cdot 100 - 100 = 112,9 - 100 = 12,9 \%$$

$$M_s = 100 - \frac{186}{210} \cdot 100 = 100 - 88,57 = 11,43 \% \text{ ёки 2-усул, яъни } 100 / (100 + e)$$

$$\text{формуласи билан хисоблаганда } M_s = \frac{MU \cdot 100}{100 + MU} = \frac{12,9 \cdot 100}{100 + 12,9} = 11,43 \%$$

### 5-масала

Минтака корхоналарида ташкилий техник чора-тадбирлар режаси амалга оширилганда «А» маҳсулотнинг (12000 дона ишлаб чиқарилади) меҳнат сарфи 12 дан-10,2 норма соатга камайган, «Б» маҳсулотнинг (750 дона ишлаб чиқарилади) меҳнат сарфи 56 дан 48 норма соатгача, «В» маҳсулотники (495 дона) 124 дан 117 норма-соатгача камайган. Корхонанинг барча маҳсулотлар бўйича ишлаб чиқаришнинг меҳнат сарфи базавий шароитлар бўйича 124000 норма-соатни ташкил қилган эди. Меҳнат унумдорлиги ўсишини аниқланг.

## **МАСАЛАНИНГ ЕЧИЛИШИ**

Мехнат сигими камайшининг умумий йиғиндиси мөъёр-соатда:

$$M_c = 12000 \cdot (12 - 10,2) + 750 \cdot (56 - 48) + 495 \cdot (124 - 117) = 31065$$

$$M\% = \frac{31065 / 100}{1240000 - 31065} = 2,6 \%$$

### **МУСТАҚИЛ БАЖАРИШ УЧУН МАШҚЛАР**

#### **1-масала**

Мамлакат миллий иқтисодиётида миллий даромадлар 4,2 % ўсган, моддий ишлаб чиқаришда иш билан бандлар сони эса 0,6 %га ошган. Мазкур йил учун ижтимоий меҳнат унумдорлиги қанчага ошганлигини аникланг.

#### **2-масала**

30 йилда миллий даромад 6 марта ўси, аҳоли сони 24 %га ошди, моддий ишлаб чиқаришда банд бўлган аҳолининг умумий аҳоли сонидаги улуши 10 %га қискарди. Ижтимоий меҳнат унумдорлиги неча фоиз ўси.

#### **3-масала**

5 йил давомида миллий даромад 290 дан 375 млрд. сўмгача ўси, бу вақт давомида меҳнаттага лаёкатли аҳоли сони 153,4 дан 170 млн. кишигача ўси. Моддий ишлаб чиқаришда банд бўлганлар салмоғи 76,9 фоиздан 75 фоизга тушди. Берилган даврда ижтимоий меҳнат унумдорлиги қанчага ўси?

#### **4-масала**

Агар миллий даромад яратишда банд бўлган меҳнатга яроқли аҳоли сони 9,5 млн. дан 9,3 млн. кишига камайган бўлса, яратилган миллий даромад ҳажми жорий даврда 9664100 млн. сўмдан 9872100 млн. сўмга кўпайган бўлса (шу даврда баҳолар 120 % ўсган), шу давр мобайнида ижтимоий меҳнат унумдорлиги ўзгаришини аникланг.

#### **5-масала**

Агар миллий даромад 2048,4 дан 2233,1 млрд. сўмгача ошса (нарх 120 %га ўсган бўлса), меҳнаттага лаёкатли аҳоли сонидан, моддий ишлаб чиқаришда бандлар 8,5 млн. кишидан 7,3 млн. кишигача камайса, ижтимоий меҳнат унумдорлиги қанчага ўзгарган?

## 6-боб. МИНТАҚАЛАРДА ИҚТИСОДИЙ-ХУДУДИЙ ИХТИСОСЛАШУВ

### Услубий күрсатма

Ихтисослаштириш – түшүнчәси бу турли миңтақаларда бир хил номдаги ёки ўзаро ўрнини босадиган маҳсулотлар ишлаб чиқарилишининг энг ўзаро фойдали худудларга нисбатан иқтисодий чегараларини аниқлаштырып берилген көмек.

Шуны алохыда таъкидлаш лозимки, ихтисослашган худудларда ишлаб чиқарылган маҳсулотларни сотищда уларнинг иқтисодий самарадорлигини оширишда оптималь вариантын аниқлаш лозим болади. Бунда мазкур ёки бошқа худудларда ишлаб чиқарыладиган маҳсулотларни тарқатадиган оптималь худудларнинг чегаралары бу маҳсулотни ишлаб чиқариш ва ташиш харажатлари турли катталикда бўлган пунктларга мос келиши кўзда тутилади.

Маҳсулотларни мақсадга мувофиқ сотиш худудларини аниқлаш назарий жиҳатдан куйидаги иқтисодий математик тенглама билан асослаб берилади:

$$Q_1 + X \cdot T_p = Q_2 \cdot (M - X) \cdot T_p$$

Бу ерда:  $X$  – мазкур худудда ишлаб чиқарылган маҳсулотни ташиш узоклигининг охирги чегараси;

$Q_1$  ва  $Q_2$  – мазкур в бошқа худудларда ишлаб чиқарылган маҳсулот бирлигининг таннархи;

$T_p$  – маҳсулот бирлигини 1 км га ташиш таннархи (1 т/км харажатлари);

$M$  – ишлаб чиқариш пунктлари ўртасидаги масофа.

Юқоридаги тенгламага мувофиқ мазкур худуд маҳсулотини ташишнинг охирги (мақсадга мувофиқ) радиуси куйидаги формулада хисоблаб чиқилади:

$$X = \frac{Q_2 + M_p - Q_1}{2T_p}$$

Албатта берилган бу ечим жуда соддалашган характерга эга. Амалиётда бошқа бир катор жумладан, маълум худудларнинг эҳтиёжларини коплаш учун ишлаб чиқариш кувватларининг етишмаслиги, аксинча, ортиқчалиги, алока йўлларининг мавжудлиги ва ҳолати, турли транспорт турларида маҳсулотларни ташиш киймати каби бошқа омиллар ҳам хисобга олинади. Шу сабабдан ана шундай хилдаги масалаларни амалда замонавий математик методлар, хусусан, чизиқли дастурлаш методларини кўллаш асосида ечишга тўғри келади.

Хўжалик тармоқларини ихтисослашган ёки хизмат кўрсатадиган тармоқлар категориясига киритишнинг меъзонлари бўлиб турли кўрсаткичлар хизмат қилади. Шу мақсадларда фойдаланиладиган кўрсаткичларнинг хилма-хиллиги шароитида уларнинг ҳар бири у ёки бу даражада ҳудудий ишлаб чиқаришнинг қандайдир икки томонидан бирини ифодалайди, яъни ишлаб чиқариш ва айирбoshлаш. Ишлаб чиқариш томони тармоқнинг мамлакат миқёсида минтақада ривожланиш даражасини таърифлайди. Жумладан, ҳудуднинг ихтисослашиши, тармоқ бўйича мамлакатдаги салмоғини, умумий мамлакат аҳолисидаги салмоғига нисбатини белгилайди.

$$K_i^r = \frac{U_i^r \cdot A}{U_i \cdot A^r}$$

бу ерда:  $K_i^r = r$  – ҳудуддаги ( $r = 1, 2, 3, \dots, n$ )  $i$  – тармоқнинг ( $i = 1, 2, 3, \dots, m$ ) ихтисослашиш коэффициенти;

$U_i^r - r$  – ҳудуддаги  $i$  – тармоқ ишлаб чиқаришининг ҳажми;

$U_i - i$  – тармоқнинг ишлаб чиқаришини умуман мамлакат бўйича ҳажми;

$A^r - r$  – ҳудуддаги аҳоли сони;

$A$  – бутун мамлакатнинг умумий аҳолиси сони;

$K$  – кўрсаткичи бирга teng ёки бирдан катта бўлганда ( $K_i^r / U_i$ ) тармоқлар ихтисослашган тармоқлар бўлади ёки ҳудуднинг ихтисослашиши локализация коэффициенти орқали ҳудуднинг тармоқ бўйича мамлакатдаги салмоғини мамлакатнинг барча саноатидаги (кишлөк хўжалиги в.б.) ҳудуд салмоғига нисбати сифатида аниқланади:

$$K^r = \frac{U_i}{U}$$

бу ерда:  $U_i - i$  – ҳудуддаги барча саноат (кишлөк хўжалиги) маҳсулот ишлаб чиқариш ҳажми;

$U$  – умуман мамлакат бўйича барча саноат (кишлөк хўжалиги) маҳсулоти ишлаб чиқариш ҳажми.

Ихтисослашишнинг айирбошлиш томонини тармоқнинг ҳудудий айирбошлишда, яъни ишлаб чиқарилган маҳсулотни олиб кетишида қатнашиши даражаси таърифлайди. Шу мақсадда ҳудудлараро товарлилик коэффициенти – $a$ , кўрсаткичларидан фойдаланилади. Бу кўрсаткич маҳсулотни соф чиқаришнинг, яъни бошқа ҳудудлардан ана шундай маҳсулот олиб келишни чиқариб ташлаб, мазкур ҳудудда уни ишлаб чиқаришнинг умумий ҳажмига нисбати сифатида аниқланади:

$$a_i^r = \frac{f_i^r - I_i^r}{X_i^r}$$

бу ерда:  $a_i^r - i$  – тармоқнинг ( $i = 1, 2, 3, \dots, m$ ),  $r$  – худуддаги ( $r = 1, 2, 3, \dots, n$ ) –худудлараро товарлилик коэффициенти;

$f_i^r - i$  – тармоқнинг  $r$  – худуддан маҳсулотни олиб чикиши;

$I_i^r - r$  – худудга  $i$  – тармоқ маҳсулотини олиб келиш;

$X_i^r - r$  – худудда  $i$  – тармоқ ишлаб чикириши ҳажми.

Формулага мувоғик ихтисослашган тармоқнинг  $a$  коэффициенти 0,5 дан юкори ( $a_i^r > 0,5$ ) кўрсаткичга бўлади.

### 1-масала

Ангренда ишлаб чикирилаётган кўмирнинг ташиш таннархи 800 тн/км, Фарғонада ишлаб чикирилаётган цементнинг ташиш таннархи 650 тн/кмни ташкил этади. Агар икки худудда маҳсулот ишлаб чикириш ҳажми мос равишда 5 минг тонна кўмир ва 12 минг тонна цемент бўлса, ушбу худудлардаги маҳаллий эҳтиёжларни кондириш учун ҳаракат масофасини топинг.

### МАСАЛАНИНГ ЕЧИЛИШИ

$$\begin{aligned} M &= \frac{Q_1 + X_1 \cdot T_{p1} + Q_2 \cdot X_2 \cdot T_{p2}}{Q_2 T_{p2}} = \frac{5 + 310 \cdot 800 + 12 \cdot 315 \cdot 650}{12 \cdot 650} = \\ &= \frac{248000 + 2457000}{780} = 3468 \text{ km} \end{aligned}$$

### 2-масала

Минтақани ихтисосланганлик коэффициентини аниқланг. Худудда ишлаб чикирилган ялпи маҳсулот 6,5 млрд. сўм. Мамлакат ялпи ички маҳсулот 13 млрд. сўмга тенг.

### МАСАЛАНИНГ ЕЧИЛИШИ

Масала шартига кўра,  $U_i = 6,5$  млрд. сўм;  $U = 13$  млрд. сўм

$$K_i^r = \frac{U_i}{U} = \frac{6,5}{13} = \frac{1}{2} = 0,5$$

### 3-масала

Минтақада ялпи маҳсулот ишлаб чикириш ҳажми 4,5 млрд. сўм. Минтақада ишлаб чикирилган маҳсулотнинг 2,5 млрд. сўм миқдоридагиси кўшни худудларга тарқатилиб, маҳаллий истеъмол учун 1,5 млрд. сўмлик маҳсулот худудга олиб кирилади. Масала шартидан келиб чиккан ҳолда, худудлараро товарлилик коэффициентини аниқланг.

## **МАСАЛАНИНГ ЕЧИЛИШИ**

Масала шартига кўра,  $Q_i^r = 4,5$  млрд. сўм;  $f_i^r = 2,5$  млрд. сўм;  $I_i^r = 1,5$  млрд. сўм;

$$a_i^r = \frac{f_i^r - I_i^r}{Q_i^r} = \frac{2,5 - 1,5}{6,5} = \frac{1}{6,5} = 0,15$$

## **МУСТАҚИЛ БАЖАРИШ УЧУН МАШҚЛАР**

### **1-масала**

Минтақада ишлаб чиқарилётган биринчи маҳсулот ҳажми 24 млн. сўмга тенг. Ўрин босувчи маҳсулот 36 млн.га тенг бўлиб, ушбу маҳсулотларнинг худудлараро 58 км.га тенг бўлган масофага ташиш таннахси 200 тн/км. Худуд маҳсулотини ташишнинг охирги (мақсадга мувофик) радиусини аниқланг.

### **2-масала**

Мамлакат миқёсида қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини ишлаб чиқариш ҳажми 21 млрд. сўмга тенг бўлиб, минтақада ушбу кўрсаткич 48 млн. сўмни ташкил этади. Мамлакат аҳолисининг 42 фоизи ушбу минтақада қишлоқ хўжалигига фаолият юритиши маълум бўлса, худуднинг ихтисослашиши, коэффициентини аниқланг.

### **3-масала**

Худудда ишлаб чиқарилган ялпи маҳсулот 3,1 млн. сўмга тенг. Ишлаб чиқарилган товар маҳсулотнинг 1,5 қисми (0,5 млрд. сўм)шу мамлакат ичида истеъмол қилиниши аниқ бўлса, минтақанинг ихтисосланганлик коэффициентини аниқланг:

## **7-боб. МИНТАҚАЛАРДА КОММУНИКАЦИЯ МАЖМУАСИ**

### **Услубий кўрсатма**

Ўзбекистонда ҳозирги замон транспортининг барча асосий турлари мавжуд. Жумладан, темир йўл ва автомобиль йўли, хаво ва дарё, кувур ва электр транспортлари ривожланган.

Транспорт ҳудудлар учун катта аҳамияга эга. Транспортнинг ҳудудий хусусиятлари шундай унда асосий эътибор автомобиль транспортига каратилганигидан иборат.

Албатта, техника воситасидан фойдаланилар экан. Унинг эскириши юзага келади. Ҳар бир давр учун амортизацион чегирмалар суммаси амортизацияланадиган қийматни (объектнинг бошлангич қийматидан унинг қолдик қиймати айирмаси) объектни эксплуатация килишнинг ҳисобот даври сонига бўлиш орқали ҳисобланади. Амортизация нормаси доимий ҳисобланади.

### **1-масала**

Ишлаб чиқариш корхонаси фаолиятини ривожлантириш мақсадида юк машинаси сотиб олиш кўзда тутилган. Сотиб олинадиган юк машинасининг бошлангич қиймати 10 млн. сўм, унинг беш йил муддатли эксплуатацияси охиридаги қолдик қиймати – 1 млн. сўм. Машинанинг амортизация қийматини ишлаб чиқариш ва тезлаштирилган ҳисобдан чиқариш усуllibари орқали аниқланг.

### **МАСАЛАНИНГ ЕЧИЛИШИ**

Масала шартига кўра, ҳар йиллик амортизация суммаси амортизацияланадиган қийматнинг 20 %ни ташкил қиласди ёки тўғри чизиқли ҳисобдан чиқариш усулига биноан 1800 сўмни ташкил этади. Бу ҳисоблар қуйидагича бажарилади;

$$\frac{\text{Бошлангич қиймат} - \text{колдик қиймат}}{\text{Хизмат килиш. муддати}} = \frac{10000 - 100}{5} = 1800$$

**1-усул.** Бу усул амортизация (эскириш) факат эксплуатация натижасидир ва уни ҳисоблаш жараёнида вақт даврлари аҳамият касб этади.

**Масала шартининг қўйилиши:** Сотиб олинган юк машинаси, маълум микдорда операциялар бажара олади, унинг юриш хажми (пробег) 90000 км. ҳисобланган. У ҳолда амортизация харажатлари ҳар бир км. учун қуйидагича аниқланади:

$$\frac{\text{Бошлангич киймат} - \text{колдик киймат}}{\text{Тахмин. килинаётган. ишлар хажми}} = \frac{10000 - 100}{90000} = 0.10 \text{ ҳар бир км.. учун}$$

Агар эксплуатациянинг биринчи йилда юк машинаси 20000 км. юрган, иккинчи йил – 30000, учинчи йил – 10000, тўртинчи йил – 20000 ва бешинчи йил 10000, унда амортизация ҳисоби жадвали қўйидаги қўринишда балади (1-жадвал).

### 1-жадвал

#### Ишлаб чиқариш усули орқали ҳисобланган амортизация чегирмалари суммаси

(минг сўм ҳисобида)

Ишлатилиш муддати	Бошлангич киймати	Юриши, км	Йиллик амортизация суммаси	Жамгарган амортизация	Баланс киймати
Харид киймати	10000	-	-	-	10000
1 йил охри	10000	20000	2000	2000	8000
2 йил охри	10000	30000	3000	5000	5000
3 йил охри	10000	10000	1000	6000	4000
4 йил охри	10000	20000	2000	8000	2000
5 йил охри	10000	10000	1000	9000	1000

Бу усулга мувофиқ ҳар бир объектнинг тахмин қилинаётган фойдали хизмат муддатини аниқлашда қўлланиладиган иш ёки фойдаланиш бирлиги маълум активларга мос келиши лозим.

#### 2-усул. Тезлаштирилган ҳисобдан чиқариш усуллари

Бу усул ўзи 2 усулда ҳисобланади:

**а) сонлар йигиндиси бўйича қийматни ҳисобдан чиқариш усули.** Бу усул қандайдир объектнинг хизмат қилиш йиллари суммаси орқали аниқланади ва бу сумма ҳисоблаш коэффициентида маҳраж бўлиб хизмат қиласди. Бу коэффиценциентнинг суръатида объектнинг хизмат муддати охиригача қолган йиллар сони туради.

**Масала шартининг қўйилиши:** Юк машинасининг тахмин қилинаётган фойдали хизмат муддати 5 йил. Фойдаланиш йиллари суммаси - 15 йил бўлиб уни қўйидаги кумулятив сонлар тарзида акс эттириш мумкин бўлади:

$$1+2+3+4+5=15$$

Сўнгра, ҳар бир касрни 9000 га ( $10000 - 1000$ ) тенг бўлган амортизацияланадиган қийматга кўпайтириш йўли орқали ҳар йиллик амортизация суммаси аниқланади:  $5/15$ ,  $4/15$ ,  $3/15$ ,  $2/15$ ,  $1/15$  (2-жадвал).

## 2-жадвал

### Сонлар йигиндиси бўйича қийматни хисобдан чиқариш усули орқали хисобланган амортизация чегирмалари суммаси

(минг сўм хисобида)

Ишлатилиш муддати	Бошлангич киймат	Йиллик амортизация суммаси	Жамланган амортизация	Баланс киймати
Харид киймати	10000			10000
1 йил охири	10000	(5/15x9000)=3000	3000	7000
2 йил охири	10000	(4/15x9000)=2400	5400	4600
3 йил охири	10000	(3/15x9000)=1800	7200	2800
4 йил охири	10000	(2/15x9000)=1200	8400	1600
5 йил охири	10000	(1/15x9000)=600	9000	1000

Жадвалдан кўриниб турибдики, энг катта амортизация суммаси биринчи йилда ҳисобланади, кейин йилма-йил у камаяди, жамланган амортизация кам-кам ортиб боради, баланс қиймати қолдиқ қийматга етиб бормагунича ҳар йили амортизация суммасига камайиб боради.

**6) Камайиб борувчи қолдиқ усули.** Ушбу усул сонлар йигиндиси усули тамойилларига асосланган. Бу усулда ҳар қандай қатъий ставка қўлланилиши мумкин бўлса ҳам, аммо қўпинча тўғри чизиқли усулда фойдаланган нормал ставкага нисбатан икки карра кўпайтирилган меъёри қўлланилади. Бу жараён иккиланган амортизацияда камайиб борувчи қолдиқ усули деб аталади.

**Масала шартининг қўйилиши:** Камайиб борувчи қолдиқ усулида ҳисобдан чиқаришнинг иккиланган меъёрида амортизация меъёри 40 % (2x20 %)га teng бўлади. Қайд қилинган ушбу 40 % ҳар йил охирда баланс қийматига кўпайтирилади. Амортизацияни хисоблашда тахмин қилинаётган қолдиқ қиймати, охирги йилдагисидан ташкири ҳисобга олинмайди (3-жадвал).

## 3-жадвал

### Камайиб борувчи қолдиқ усули орқали хисоблаиган амортизация чегирмалари суммаси

(минг сўм хисобида)

Ишлатилиш муддати	Бошлангич киймат	Йиллик амортизация суммаси	Жамланган амортизация	Баланс қиймати
Харид киймати	10000	-		10000
1 йил охири	10000	(40%x10000)=4000	4000	6000
2 йил охири	10000	(40%x6000)=2400	6400	3600
3 йил охири	10000	(40%x3600)=1440	7800	2160
4 йил охири	10000	(40%x2160)=864	8704	1296
5 йил охири	10000	1296–1000=296	9000	1000

Шуни алоҳида таъкидлаш лозимки, амортизация қайси усулда ҳисобланмасин, у ўз қийматини ўзгартирмайди. Аммо йиллик амортизация суммасининг фақатгина йиллик қиймати ўзгариши мумкин. Шунда ҳам умумий тўлов қиймати ўзгармайди.

## **МУСТАҚИЛ БАЖАРИШ УЧУН МАШҚЛАР**

### **1-масала**

Корхонада дастгоҳлар ишини масофадан назорат ва ҳисоб килувчи диспетчерлик қурилма ишлатила бошланди. Бу янгилик иш вақтининг йўқолишини 10 дан 2 гача камайтиради. Агар корхонадаги ишчилар 150 киши, битта ишчининг ўртacha йиллик маоши 1,2 млн сўм, битта ишчининг бир йиллик фойдали иш вақти 1840 соат, ўзгармас кўшимча харажатлар ишчилар маошининг 200 %ини ташкил қилиши маълум бўлса, ишчиларнинг маоши ва шартли ўзгармас кўшимча харажатларни иқтисод қилишдан келадиган йиллик самара миқдорини аниқланг.

### **2-масала**

Корхона бир бирлик маҳсулот ишлаб чиқариш учун 30 минг сўм харажат қиласди. Ва уни 40 минг сўмга сотади. Корхона бир кунда 300 та маҳсулот ишлаб чиқариш имкониятига эга. Корхона модернизация қилиниши билан маҳсулот ишлаб чиқариши 20 %га ортиб, харажат 10 %га сотув нархи ҳам 5 %га камайди. Корхонанинг умумий тушуми ўзгаришини аниқланг.

## **8-боб. МИНТАҚАЛАР МОЛИЯСИ ВА УНИ ТАРТИБГА СОЛИШ**

### **Услубий кўрсатма**

Худудий молия давлат молия тизимининг муҳим таркибий қисми бўлиб, у турли даражадаги (вилоят, туман, шаҳар) маҳаллий бюджетлар, нобюджет фонлари, минтақа эҳтиёжини қондириш учун сарфланадиган хўжалик субъектларининг молиявий воситаларидан иборат. Худудий молия аҳолига ижтимоий-маданий ва коммунал-маший хизмат кўрсатиш билан боғлиқ тадбирларни молиялаштириш билан шуғулланади. Шундай килиб, худудий молия - худудларнинг ижтимоий-иктисодий ривожланиши жараёнида миллий даромадни тақсимлайдиган ва қайта тақсимлайдиган иктисодий муносабатлар тизимиdir.

Молия – пул маблағларининг ҳаракати, яъни уларнинг шаклланиши, тақсимланиши ва фойдаланилиши билан боғлиқ равища вужудга келадиган муносабатлар.

Молия тизими – молиявий муносабатлар ва турли даражада уларга хизмат қилувчи молиявий муассасалардир.

Давлат бюджети – давлат харажатлари ва уларни молиявий тъминлаш манбаларининг тартиблаштирилган режаси.

Соликлар – жамиятда вужудга келтирилган соф даромаднинг бир кисмини бюджеттага жалб қилиш шакли.

Солик ставкаси – солик суммасининг солик олинадиган суммага нисбатининг фоиздаги ифодаси.

### **1-масала**

Минтақа иктисодиётида истеъмол ҳаражатлари –  $C = 2500$ , модернизациялашни амалга оширишга қилинган инвестициялар –  $I = 750$ , давлат ҳаражатлари –  $G = 850$ , трансферт тўловлари –  $TR = 150$ , давлат қарзи бўйича фоиз тўлаш –  $N = 100$  ва соликларларга тўловлар –  $T = 750$  пул бирлигига teng бўлса, аҳолининг шахсий жамғармалари, давлат жамғармалари аниқлансан. Шунингдек, агар дефицит облигациялар чиқариш билан 80 %га молиялаштирилиши маълум бўлса, давлат бюджети дефицитини қоплаш учун чиқарилган давлат облигациялари қиймати ва кўшимча пул миқдори қанчага teng бўлиши керак.

### **МАСАЛАНИНГ ЕЧИЛИШИ**

Шахсий жамғармалар куйидаги формула ёрдамида хисобланади:

$$S_p = (Y + TR + N - T) - C, \quad Y = C + I + G$$

$$Y = 2500 + 750 + 850 = 4100$$

$$S_p = (4100 + 150 + 100 - 800) - 2500 = 1000$$

Давлат жамгармалари қуйидаги формула ёрдамида ҳисобланади:

$$S_s = T - TR - G - N$$

$$S_s = 850 - 150 - 750 - 100 = -250$$

Давлат жамгармаларининг салбий белгиси давлат бюджети дефицити мавжудлигини англаради:  $BD = S_s = -250$

Дефицит 80 % облигациялар чиқариш билан молиялаштирилади, яъни:

$$\Delta B = 0,8 \cdot BD \quad \Delta B = 0,8 \cdot 250 = 200$$

Дефицитнинг қолган қисми қўшимча пул чиқариш орқали молиялаштирилади:

$$\Delta M = BD - \Delta B \quad \Delta M = BD - \Delta B = 250 - 200 = 50$$

Жавоб:  $S_p = 100$ ,  $BD = -250$ ,  $\Delta B = 200$ ,  $\Delta M = 50$

## 2-масала

Минтақа худудида фаолият кўрсатаётган корхонанинг даромади 65 млн. сўмга тент бўлиб, 5,2 млн. сўм даромад солиғи тўланса, солик ставкасини аниқланг.

## МАСАЛАНИНГ ЕЧИЛИШИ

Солик ставкасини аниқлаш учун қуйидаги формула орқали аниқланади:

$$R = \frac{R}{D} \times 100 \%$$

$$R = \frac{R}{D} \times 100 \% = \frac{5,2}{65} \cdot 100 \% = 8 \%$$

Жавоб: 8%

## 3-масала

Минтақа ишлаб чиқаришини ривожлантириш учун худудда жойлашган заводга 100 млн. сўмлик янги станок сотиб олинди. Янги станокни қўллашдан завод 10 млн. сўм соғ фойда олган бўлсин. Кутилаётган соғ фойда нормасини аниқланг.

## МАСАЛАНИНГ ЕЧИЛИШИ

$$R_{\text{н}} = \frac{\text{Соғ фойда}}{\text{Станок киймати}} = \frac{10 \text{ 000000}}{100000000} \cdot 100 \% = 10 \%$$

Жавоб: кутилаётган соф фойда нормаси 10 %га тенг

#### **4-масала**

Номинал фоиз ставкаси 16 %га тенг бўлса, инфляция даражаси иилига 12 %ни ташкил этса, унда реал фоиз ставкасини аниқланг.

### **МАСАЛАНИНГ ЕЧИЛИШИ**

Инвестиция харажатлари фойда келтиришини аниқлашда номинал фоиз ставкаси эмас, балки реал фоиз ставкаси ҳисобга олинади. Реал фоиз ставка нархлар даражасининг ўзгаришини акс эттириб, номинал ставкадан инфляция даражаси айримаси кўринишида аниқланади ( $16\% - 12\% = 4\%$ );

Жавоб: Реал фоиз ставкаси 4 %.

### **МУСТАҚИЛ БАЖАРИШ УЧУН МАШҚЛАР**

#### **1-масала**

2010 йилда миңтақа иқтисодиётининг ЯҲМ 25 млрд. сўмни ташкил этди. Бир йилдан сўнг дефлятор 1,5 мартаға ортди, реал ЯИМ эса 10 %га ўсади. 2011 йилда миңтақа иқтисодиётидаги номинал ЯММ ҳажмини топинг (масала шартида 2011 йил – базис йили деб қаралсин).

#### **2-масала**

Наманган вилояти иқтисодиётини ривожлантириш мақсадида хорижий банклардан 8 фоиз йиллик ставка бўйича 1 млрд. АҚШ доллари миқдорида кредит олди. Бу маблағлар келгуси йиллар мобайнида миллий маҳсулотни иилига 300 млн. АҚШ долларига кўпайтириш имконини берувчи лойиҳаларга инвестицияланиши маълум бўлса, олинган қарз мамлакат қарзи ошишига олиб келадими, олиб келса, қандай ўлчамда ва мамлакат фуқаролари зиммасидага молиявий юқ ошадими?

#### **3-масала**

Фермер хўжалиги белгиланган режани бажариш учун хукуматдан бир йил муддатга 4 фоиз ставка бўйича 100 млн. сўм қарз олгани маълум бўлса, йил охирида миқдори қандай бўлади ва агар йиллик инфляция суръатлари 3 %ни ташкил этса, бу қарз миқдори номинал қарз миқдоридан қандай фарқ киласи, агар инфляция мавжуд бўлмаганда қарз суммаси ва фоиз қиймати нимага тенг

## **9-боб. МИНТАҚАЛАРНИНГ ТАШҚИ ИҚТИСОДИЙ АЛОҚАЛАРИ ВА ЭКСПОРТНИ КҮПАЙТИРИШ ЙЎЛЛАРИ**

### **Услубий кўрсатма**

Ўзбекистон ўз мустақиллигининг дастлабки йилларида ёқ ташқи сиёсий ва иқтисодий алоқаларни шакллантириш юзасидан ишлаб чиқилган қуидаги асосий тамойилларга амал қилмоқда:

Жаҳон иқтисодиётининг ривожланиш тенденцияларини диққат билан кузатар эканмиз, аёнлашадики, Ўзбекистон иқтисодиётининг юқори ўсиш суръати жаҳон иқтисодиётига чуқур интеграциялашув асосида хорижий инвестиция ҳамда экспорт салоҳияти барқарор ривожланиши туфайли таъминланиши мумкин.

### **1-масала**

Минтақа аҳолисининг истеъмол харажати 2,5 млрд. сўмни ташкил этади. Минтақа ишлаб чиқаришини ривожлантириш ва аҳоли турмуш фаровонлигини ошириш учун 1,7 млрд. сўм инвестиция киритилган бўлиб, бунинг натижасида минтақа ҳудудида ишлаб чиқарилган маҳсулотнинг 1,3 млрд. сўмлиги қўшни давлатларга экспорт қилинди ва бунинг учун ҳукумат томонидан 6,5 млрд. сўм харажатлар режалаштирилганлиги маълум. Давлат харидини аниқланг.

### **МАСАЛАНИНГ ЕЧИЛИШИ**

Масала шартидан келиб чиқсан ҳолда  $E = C + I + G + X_n$  ифодадан фойдаланиш мумкин.

бу ерда:  $E$  – режалаштирилган харажатлар;

$C$  – истеъмол харажати;

$I$  – киритилган инвестиция;

$G$  – Давлат хариди;

$X_n$  – соғ экспорт.

$$G = E - (C + I + X_n) = 6,5 - (2,5 + 1,7 + 1,3) = 6,5 - 5,5 = 1$$

Жавоб: 1 млрд. сўм.

### **2-масала**

Минтақада ҳукумат томонидан белгиланган маҳаллийлаштириш дастурини амалга ошириш натижасида импортга бўлган харажатлар 1,8 бирликка ўзгарди. Агар импортга чегараланган мойиллик 0,3 бирликка тенг бўлса, минтақа даромади ўзгаришини аниқланг.

## **МАСАЛАНИНГ ЕЧИЛИШИ**

Масала шартидан келиб чиқкан ҳолда  $m = \frac{\Delta M}{\Delta Y}$  формула оркали сўралган кўрсаткични аникланади.

$$\Delta Y = \frac{\Delta M}{m} = \frac{1,8}{0,3} = 60$$

Жавоб: Минтака даромади ўзгариши 60 бирликка ўзгарган.

Ялпи даромадларнинг ошиши билан импорт ҳам ошади. Чунки, бунда истемолчилар ва инвесторлар ҳам миллий ҳам импорт маҳсулотларга бўлган харажатлари миқдорини оширадилар. Айни пайтда мамлакатнинг экспорт ҳажми шу мамлакатдаги ялпи даромадлар ( $Y$ ) миқдорига бевосита боғлиқ бўлмайди, балки товар олиб чикиб кетаётган мамлакатнинг ялпи даромадлари ўзгаришига боғлиқ бўлади. Шунинг учун ҳам мамлакатдаги ялпи даромадлар ( $Y$ ) ўзгариши билан соф экспорт ( $X_p$ ) ўртасидаги боғликлек салбийдир ва соф экспорт функциясида минус ишораси билан белгиланади.

## **МУСТАКАЙЛ БАЖАРИШ УЧУН МАШҚЛАР**

### **1-масала**

Вилоят иктисодиётини модернизациялаш учун киритилған инвестициялар 700 млн. сўмни, тасарруфдаги даромад 3,2 млрд. сўмни, истемол харажатлари 2,8 млрд. сўм, давлат бюджети ортиқчалиги 100 млн. сўмни ташкил этди. Соф экспорт миқдорини топинг.

### **2-масала**

Германияда бир дона машина ишлаб чиқаришга 10 соат, бир дона трактор ишлаб чиқаришга эса 15 соат сарфланади. Ушбу товарларни ишлаб чиқариш бўйича Ўзбекистон нисбатан пастроқ унумдорликка эга, яъни бир дона маҳсулот ишлаб чиқариш ҳажми машина учун 19 соат, трактор учун 45 соатни ташкил килади. Ушбу мамлакатлар ўртасида икки томон учун ҳам манфаатли бўлган савдони йўлга кўйиб бўладими? Агар мумкин бўлса ҳар бир мамлакат қайси товарни экспорт килишини изоҳлаб беринг.

### **3-масала**

Мамлакат иктиносидиётида миллий даромад – 85,0 млрд. сўмни, истемол харажатлари – 70,0 млрд. сўм давлат харажатлари – 15,0 млрд. сўмни ташкил этиб, инвестиция функцияси  $I = 25 - 10r^2$  билан ифодаланганда мамлакатнинг соф экспортини аникланг. Бунда жаҳон фоиз ставкаси 5 %га teng.

## **10-боб. МИНТАҚАЛАРНИНГ ИЖТИМОЙ-ИҚТІСОДИЙ РИВОЖЛАНИШИНИ ТАРТИБГА СОЛИШ**

### **Услубий күрсатма**

Минтақавий сиёсатни амалга ошириш шаклларидан бири давлат-нинг минтақаларни ижтимоий-иктисодий ривожлантириш бўйича мақсадли дастурлари ҳисобланади. Уларга ҳозир ҳам, келажакда ҳам алоҳида эътибор бериш керак.

Худудий ўсиш назарияларини кўриб чиқишида икки хил асосий ёндашув мавжуд. Биринчиси – ҳудудларда иктисодий ўсиш моделларини қўллаш. Бундай моделларни мамлакат иктисодиётининг ўсишини изоҳлаш учун ишлаб чиқилган моделларга ўхшатиш мумкин (development economics). Иккинчиси эса, алоҳида корхона ва фирмаларнинг хатти-харакатларини таҳлил этишга асосланган. Чунки минтақаларнинг иктисодий ривожланишини, авваламбор, уларнинг фаолиятигина аниқлаб беради.

Мамлакатлар бўйича иктисодий статистикани таққослаш учун маълумотлар аввал ягона валюта холига келтирилиши керак. Валюта курсларининг бозорда айирбошланишидан фарқли равишда харид қобилияти паритетининг айирбошлаш курслари мамлакатлар ўртасидаги нарх-наволардаги фарқларни ҳисобга олиш имконини беради. Шунинг учун жон бошига ЯИД (харид қобилияти паритети бўйича, АҚШ доллари ҳисобида) одамлар турмуш даражасини аниқрок ифода этади.

Назарий жиҳатдан харид қобилияти паритети бўйича 1 АҚШ доллари (уни ҳалқаро доллар ҳам деб аташади) у ёки бу мамлакат иктисодиётида АҚШ иктиносидиётидаги 1 АҚШ долларига тенг харид қобилиятига эгадир. Харид қобилияти паритетининг янги миқдор кўрсаткичлари 2008 йилдан бошлаб қўлланилиб келмоқда. Харид қобилияти паритети ҳисоблаб чиқилган, 2005 йилда сўнгги марта ўтказилган Ҳалқаро таққослаш дастури доирасидаги тадқиқотларда 146 мамлакат, аввалги тадқиқотларга қараганда 26 тадан кўпроқ мамлакат иштирок этди.

**Истеъмол савати** - инсоннинг саломатлигини саклаш ва унинг ҳаёт-фаолиятини таъминлаш учун зарур бўлган озиқ-овқат маҳсулотлари, ноозик-овқат товарлари ва хизматларнинг минимал тўпламидири. Аслида, истеъмол савати учта саватдан иборат: озиқ-овқат, ноозик-овқат, хизмат саватчалари. Истеъмол савати камида 5 йилда бир марта услубий тавсиялар асосида аниқлаштирилади. Истеъмол саватида озиқ-овқат савати муҳим ўрин тутади.

Минимал истеъмол саватини ишга лаёқатли ёшдаги аҳоли учун шакллантиришга асос қилиб ишлаётган эркак кишига суткада 2720 ккал, оқсил истеъмолини - 88,7 (шу жумладан, ҳайвоннини - 31,5), углеводларни 4412 суткани таъминловчи озиқ-овқатлар тўплами олинади.

**Озиқ-овқат савати** - бир одамнинг бир ойда овқатланиши учун кетадиган маҳсулотлар тўплами (у маҳсулотлар истеъмолининг минимал меъёри асосида ҳисоблаб чиқилган) ва бу тўплам жисмоний эҳтиёжларга мос келади, зарур қалорияни таъминлайди, асосий озиқ моддалар мавжуд ва овқатланишини ташкил этишнинг анъанавий кўнимкамаларига тўғри келади.

**Яшаш минимуми** кўрсаткичлари давлат томонидан ижтимоий сиёsat юритишда кўлланилади (хусусан, аҳолининг турмуш даражасини баҳолаш учун яшаш минимумидан паст, тенг ва юқори даромадли аҳоли салмоги аникланади), аҳолининг кам таъминланган қатламларини кўллаб-куvvatлаш учун аниқ етиб борадиган манзилли ижтимоий ёрдам учун негиз бўлиб хизмат қиласи, энг кам иш ҳаки ва пенсияларни асослашда фойдаланилади, шунингдек, кам таъминланганлик мезони ҳамдир.

Масалаларни ечишда Ўзбекистондаги оила даромадларини: иш ҳаки, моддий ердаги, нафақалар, солиқ тўланадиган бошқа тўловлар, пенсия ва стипендиялар, болаларга тўланадиган ойлик нафақалар, ёш боласига караш учун тўланадиган нафақалар, томорқа хўжалигидан олинадиган натурал маҳсулотлар қиймати, шахсий мулкидан ва шахсий томорқасидаги маҳсулотларни сотишдан келадиган даромадлар, банкдаги жамғармалари, акция ва бошқа кимматли қоғоздан келадиган фоизлар эътиборга олинади. Чунки, жон бошига тўғри келадиган даромадлар оила фаровонлигини моддий жихатдан акс эттиришни ҳисобга олиш зарур.

### **1-масала**

Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт вазирлиги аҳоли жон бошига белгиланган йиллик меъёрлар куйидагича белгиланган: нон ва нон маҳсулотлари 98,61 кг, сабзавот 104,12 кг, картошка 53,37 кг, узум 25,34 кг, гўшт ва гўшт маҳсулотлари 54,83 кг, сут ва сут маҳсулотлари 364,36 кг, тухум 181 дона. Меъёр кўрсаткичларини ҳамда жадвал маълумотларини эътиборга олган ҳолда жадвалдаги бўш катакларни тўлдиринг (1-жадвал).

**Наманган вилояти аҳолиси жон бошига түғри  
келадиган йиллик меъёрлар**

№	Кўрсаткичлар	Йиллар					
		2010			2011		
		Ҳақиқатда	Меъёр бўйича талаб килинади	Фарки	Ҳақиқатда	Меъёр бўйича талаб килинади	Фарки
1.	Аҳоли сони, минг. киши	2264,5	x	x	2304,7	x	x
2.	Ялпи ҳудудий маҳсулот ишлаб чиқариш, млрд. сўм.	1863,4			2426,6		
a)	тухум млн. дона	84,4	409,9	-325,5	99,6	409,9	-317,6
б)	сабзавот маҳсулотлари минг т	3944050,0	235779,7	158625,3	439425,0	235779,7	203645,3
в)	картошка, минг т	135344,0			152790,0		
г)	узум, минг тн.	71896,0			73991,0		
д)	сут ва сут маҳсулотлари, минг т	359777,0			384929,0		
е)	гўшт ва гўшт маҳсулотлари, минг т.	75863,0			81522,0		

Манба: Наманган вилояти статистика бошқармаси маълумотлар

### Масаланинг ечилиши

Масала шартига кўра, Наманган вилояти аҳолиси истеъмол меъёри асосида бир йил мобайнида қанча тухум истеъмол килишини аниклаш учун жами аҳоли сонини меъёр сонига кўпайтириш оркали аникланади, яъни

2010 йилда  $2264500 \cdot 181 = 409874500$  демак, меъёр бўйича  $409874500$  дона тухум аҳоли жон бошига нисбатан истеъмол учун лозим экан, ҳақиқатда эса  $84400000$  дона тухум етиширилган. Уларнинг фарқида эса  $409874500 - 84400000 = -325474500$  дона тухум етишимовчилиги аникланди.

2011 йилда эса  $2304700 \cdot 181 = 417150700$  дона тухум вилоят аҳолиси истеъмолини кондириши белгиланади, ҳақиқатда эса  $99600000$  дона тухум етиширилиб, фарки  $317550700$  донага кам экани аникланди.

2010 йилда вилоят аҳолиси бир йил давомида меъёр бўйича  $2264500 \cdot 104,12 = 235779740$  кг сабзавот истеъмол килиши мўлжалланган. Ҳақиқатда эса,  $394405000$  кг сабзавот вилоятда етиширилиб, истеъмолдан ташқари  $394405000 - 235779740 = 158625260$  кг ортиқ маҳсулот ишлаб чиқарилган.

2011 йилда эса ҳақиқатда 439425000 кг сабзавот етиширилди. Бу эса, мөйөрдан ташқари  $439425000 - 235779740 = 203645260$  кг истеъмолдан ортиқ сабзавот етиширилди.

(Қолган кўрсаткичлар ҳам худди юқорида ҳисоб-китоблар орқали амалга ошириш учун фойдаланувчиларга ҳавола этилади)

## 2-масала

Ўзбекистон Республикаси иқтисодиётида агросаноат мажмуасининг ўрнини аниқланг. Тегишли таҳлил ёзинг.

№	Кўрсаткичлар	2000 й.	2010 й.	2010 й.ни 2000 й.га нисб. фарқи (+, -)
1.	Ялпи худудий маҳсулот, млрд. сўм: Наманган вилоятида Вилоят АСМда	1863,4 972,1	2426,6 1378,9	563,2 406,8
2.	Мехнат билан банд аҳоли сони минг киши: Наманган вилоятида Вилоят АСМда	788,9 581,6	815,3 617,7	26,4 36,1
3.	Жами инвестициялар, млрд. сўм: Наманган вилоятида Вилоят АСМда	478,2 86,5	554,0 101,9	75,8 15,4
4.	АСМнинг вилоят иқтисодиётидаги салмоғини аниқланг: а) ялпи худудий маҳсулотда, % б) меҳнат ресурсларида, % в) инвестицияларда, %	52,2 73,7 18,1	56,8 75,8 18,4	4,6 2,1 0,3

Манба: Наманган вилояти статистика бошкармаси маълумотлар

## МАСАЛАНИНГ ЕЧИЛИШИ

1. Ялпи худудий маҳсулот фарқи

Вилоятда:  $2426,6 - 1863,4 = 563,2$  АСМда:  $1378,9 - 972,1 = 406,8$

2. Меҳнат ресурсларидаги фарқи

Вилоятда:  $815,3 - 788,9 = 26,4$  АСМда:  $617,7 - 581,6 = 36,1$

3. Инвестициялардаги фарқи

Вилоятда:  $554,0 - 478,2 = 75,8$  АСМда:  $101,9 - 86,5 = 15,4$

$$\text{а)} \quad \text{ЯХМ}_{2010 \text{ y.}} = \frac{972,1}{1863,4} \cdot 100\% = 52,2 \% \quad \text{ЯХМ}_{2011 \text{ y.}} = \frac{1378,9}{2426,6} \cdot 100\% = 56,8 \%$$

$$\text{б)} \quad M_{2010 \text{ y.}} = \frac{581,6}{788,9} \cdot 100 \% = 73,7 \% \quad M_{2011 \text{ y.}} = \frac{617,7}{815,3} \cdot 100 \% = 75,8 \%$$

$$\text{в)} \quad I_{2010 \text{ y.}} = \frac{86,5}{478,2} \cdot 100 \% = 18,1 \% \quad I_{2011 \text{ y.}} = \frac{101,9}{554,0} \cdot 100 \% = 18,4 \%$$

### **3-масала**

Наманган вилояти корхоналарда 1025 млн. сўмлик товар маҳсулот ишлаб чиқарилган ва унинг 625 млн. сўми реализация қилинган. Вилоятда 4,5 млн. сўмлик пулли хизмат кўрсатилган. Умумий ҳолда вилоятнинг ижтимоий харажатлари 27,6 млн. сўм. Ижтимоий харажатда моддий харажат салмоги 75 %. Вилоят корхоналарининг фойдасини аниқланг:

### **МАСАЛАНИНГ ЕЧИЛИШИ**

$$\Phi = ((1025 - 625) + 4,5) - 27,6 \cdot 0,75 = 404,5 - 20,7 = 383,8$$

Жавоб: Корхоналар фойдаси 383,8 млн. сўмга тенг.

### **4-масала**

Минтақа аҳолисини сутга бўлган эҳтаёжини қондириш учун зарур бўлган қора моллар сонини аниқланг.

Берилган маълумотлар:

1. Минтақа аҳолиси сони 49 минг киши.
2. Аҳоли жон бошига йиллик истеъмол қилиш нормаси 250 литр.
3. Битта сигирдан соғиб олинадиган сутнинг ўртача йиллик миқдори 2800 литр.

### **МАСАЛАНИНГ ЕЧИЛИШИ**

Масалани ечиш учун биринчи навбатда минтақа аҳолисининг жон бошига йиллик истеъмол нормасини аниқлаб оламиз.  
 $C_s = 49000 \cdot 250 = 12250000$  литр;

$$N_s = 12250000 : 2800 = 4375$$

Жавоб: Демак, минтақа аҳолисининг сутга бўлган эҳтиёжини қондириш учун 4375 та қорамоллар керак бўлиши лозим экан.

### **МУСТАҚИЛ БАЖАРИШ УЧУН МАШҚЛАР**

#### **1-масала**

Истеъмол савати қиймати 240 сўмни ташкил қиласи. Яшаш минумими бюджетининг (ЯМБ) тузилмаси жадвалда келтирилган. Ишга лаёқатли ишловчининг ЯМБ қийматини аниқланг.

## Мамлакат ўртача ижтимоий-демографик гурухлар бўйича яшаш минимуми бюджети тузилмаси

№	Харажатлар тури	Аҳоли жон бошига	Ижтимоий-демографик гурухлар		
			Мехнатга лаёқатлилар	Пенсионерлар	Болалар 0-6 7-15
1.	Озик-овқат	68,3	61,6	82,9	74,5 73,4
2.	Ноозик-овқат товарлар	19,1	21,4	10,0	18,9 19,8
3.	Хизматлар	7,4	8,9	7,1	6,6 6,8
4.	Соликлар ва бошқа тўловлар	5,2	8,1	-	- -
	Жами харажатлар	100	100	100	100 100

### 2-масала

Куйидаги жадвалда яшаш даражаси минимумини ўз ичига олган озиқ-овқат маҳсулотларининг баҳоси ва тузилиши бўйича маълумотлар берилган.

Х йилда минимал иш ҳақи миқдори 2450 сўмни, 4 йилдан сўнг 5440 сўмни ташкил этган. Шу йилларда белгиланган минимал иш ҳақига бериладиган ҳар бир маҳсулот турининг ҳажмини аниқланг.

Шу йилларда минимал номинал ва реал иш ҳақларининг ўзгариш характеристи бўйича худоса чиқаринг.

Яшаш даражаси минимумининг турлари	Ўлчов бирлиги	Маҳсулотларнинг бирлиғи баҳоси, сўм	
		2012 йил	2013 йил
Гўшт маҳсулотлари (мол гўшти)	Кг	1800	2000
Сут маҳсулотлари (сут)	Л	150	200
Тухум	10 дона	40	60
Балик маҳсулотлари	Кг	1500	2000
Қанд ва қандолат маҳсулотлари	Кг	550	650
Ўсимлик ёғи	Л	900	1100
Картошка	Кг	200	250
Сабзавотлар	Кг	100	150
Мевалар	Кг	600	700
Ноң маҳсулотлари	Кг	265	300

### 3-масала

Оила беш кишидан иборат: эри-қурилишда кранчи-машинист, хотин-شاҳар кутубхонасида кутубхоначи, иккита боласи мактабгача ёнда, уларнинг кари онаси-пенсионер. Оила даромади (тўлов ва соликлар чиқариб ташлангандан сўнг) эрининг иш ҳақи ойига 1800 сўм ва хотинники-600 сўм, болаларга олинадиган моддий ёрдам ва нафақалар ойига 120 сўмдан ҳар бирига, онасининг пенсияси-300 сўм, ҳамда жамғарма банкка кўйилган пулларининг йиллик

7,2 фоизини, томорқа хўжалигидан олинадиган мева-сабзавотларнинг нархи-1 йилда 1140 сўм.

Киши бошига тўғри келадиган ойлик даромадларни аниқлаш зарур ва оила фаровонлиги даражаси ҳақида хулоса чиқариш керак.

#### 4-масала

Оила беш кишидан иборат: эри-тижорат банкида юрист-маслаҳатчи, хотини уй бекаси, қизи-талаба, отаси-харбий пенсионер, онаси 2-гурух ногирони. Оиланинг умумий даромади 1 ойга эрининг ойлик маошдан – 3600 сўм, қизининг стипендияси – 200 сўм, отаси-нинг пенсияси – 950, онасининг пенсияси – 300 сўм, облигация ва бошқа қимматли қоғозлардан тушадиган 15,6 минг сўм миқдордаги йиллик фоизлар, ҳамда ота-оналари квартирасини ижарага беришдан тушадиган – ойига 2600 сўмлик даромаддан иборат.

Киши бошига тўғри келадиган ойлик даромадни ҳисобланг ва оиласидаги фаровонлик даражаси ҳақида хулосангизни беринг.

#### 5-масала

Самарали фаолият юритаётган тадбиркор оиласи тўрт кишидан иборат (эри, хотини, 2та юқори синф ўкувчи-фарзандлари). Оиланинг ойлик ўртача даромади 280 минг сўмдан иборат бўлиб, эрининг тадбиркорлик фаолияти даромадларидан (40 минг сўм) ташкил топган.

Киши бошига тўғри келадиган ойлик оила даромадини ҳисобланг ва оиланинг фаровонлиги ҳақида хулоса қилинг.

#### 6-масала

Беш кишидан иборат яхши таъминланган оила (эри-тижорат банкида юрист-маслаҳатчи, хотини-уй бекаси, қизи-талаба, отаси-харбий пенсионер, онаси 2-гурух ногирони) йиллик жами пул даромадлари 120,6 минг сўмга эга. Оила бюджетининг даромад қисми эрининг маоши (53 минг сўм), қизининг стипендияси (2,4 минг сўми) ота-оналарининг пенсияси (15 минг сўм), қимматли қоғоз ва облигация фоизлари (15,6 минг.сўм) ва уй-жой ижараси (34,6 минг сўм)дан ташкил топган.

Харажатлар қисми эса қўйидагилардан иборат: эрининг йиллик даромад солиги ва бадаллари – 10 минг сўм, уй-жой ва ижара даромадидан соликлар – 4,8 минг сўм ҳар ойлик озиқ-овқат харажатлари – 4220 сўм, ноозик-овқат товарлар хариди – 2250 сўм, турли хизматларга (уй-жой-коммунал, майший, транспорт, почта ва ҳ.к.) ҳак тўлаш

– 1665 сўм. Йиллик пул даромадларининг харажатлардан ортадиган қисми (8,1 минг сўм) омонат ва кимматли қофозлардаги жамгармаларга кетади.

Оила йиллик харажатларда солиқ ва бадалларга овқат товарлар харидига, турли хизмат ва жамгармаларга кетадиган сарфларнинг улушкини фоизда ҳисобланг.

### **Минтақавий ўсиш назарияларини таҳлил этиш масалалари**

Мамлакатнинг иқтисодий ўсиш суръатини тавсифлайдиган мазкур кўрсаткичлар (реал ЯИМ ва ахоли жон бошига реал ЯИМнинг ўсиши) миқдорий кўрсаткичлар бўлиб, улар биринчидан, маҳсулот сифатининг ошишини тўлиқ ҳисобга олмайди ва шу сабабли фаровонликнинг ҳақиқий ўсишини тўлиқ тавсифлаб беролмайди; иккинчидан, реал ЯИМ ва ахоли жон бошига ЯИМнинг ўсиши бўш вақтнинг сезиларли кўпайишини акс эттирумайди ва фаровонлик реал даражасининг пасайтириб кўрсатилишига олиб келади; учинчидан, иқтисодий ўсишни миқдорий ҳисоблаш бошқа томондан унинг атроф-муҳитга ва инсоннинг ҳаётига салбий таъсирини ҳисобга олмайди.

Шунга кўра, иқтисодий ўсишнинг барча тавсифи йиллик ўсиш суръатларининг фоиздаги ўлчовида тўлиқ ўз ифодасини топади:

$$\bar{Y}C = \frac{\frac{ЯИМ_{жорий\ давр}}{ЯИМ_{базис\ давр}} - 1}{\frac{ЯИМ_{базис\ давр}}{ЯИМ_{базис\ давр}}} \times 100\% ,$$

бу ерда:  $\bar{Y}C$  – иқтисодий ўсиш суръати, фоизда;

$ЯИМ_{базис\ давр}$  – таққосланаётган давр (йил)даги реал ЯИМ ҳажми;

$ЯИМ_{жорий\ давр}$  – жорий давр (йил)даги реал ЯИМ ҳажми.

Маълумки, ялпи миллий (ички) маҳсулот ишчи кучи, капитал ва табиий ресурслар сарфларининг функцияси ҳисобланади, яъни:

### **1-масала**

Наманган вилоятининг базис йил сифатида танлаб олинган 2000 йилга нисбатан асосий иқтисодий кўрсаткичларининг ўсиш суръатини аниқланг. Маълумотлар куйидаги жадвалда келтирилган.

№	Асосий кўрсаткичлар	Ўлчов бирлиги	2000 й.	2001 й.	2002 й.	2003 й.	2004 й.	2005 й.
1	<b>ЯХМ ишлаб чиқариш</b>	млрд сум	171,6	247,2	364,9	475,7	565,3	715,5
2	<b>Саноат маҳсулотлари ишлаб чиқариш</b>	млрд. сум	59,6	90,4	124,6	167,2	214,1	247,1
3	<b>Халқ истеъмоли моллари ишлаб чиқариш</b>	млрд. сум	47,7	60,7	80,6	95,0	110,2	119,1

Манба: Наманган вилояти статистика бошкармаси маълумотлар

## МАСАЛАНИНГ ЕЧИЛИШИ

Масала шартига кўра, базис йил сифатида 2000 йилни танлаб олиб, берилган формула ёрдамида хисоб-китоб натижаларини худди юкорида берилган жадвални чизиб олиб тўлдирамиз.

$$1) \dot{y}_{\text{ЯХМ}} = \frac{\text{ЯХМ}_{2001} - \text{ЯХМ}_{2000}}{\text{ЯХМ}_{2001}} \cdot 100 \% = \frac{247,2 - 171,6}{247,2} \cdot 100 \% = 30,6\%$$

$$2) \dot{y}_{\text{СМ}} = \frac{\text{СМ}_{2001} - \text{СМ}_{2000}}{\text{СМ}_{2001}} \cdot 100 \% = \frac{90,4 - 59,6}{90,4} \cdot 100 \% = 34,1\%$$

$$3) \dot{y}_{\text{ХИМ}} = \frac{\text{ХИМ}_{2001} - \text{ХИМ}_{2000}}{\text{ХИМ}_{2001}} \cdot 100 \% = \frac{60,7 - 47,7}{60,7} \cdot 100 \% = 2174 \%$$

№	Асосий кўреаткичлар	Ўлчов бирлиги	2001 й.	2002 й.	2003 й.	2004 й.	2005 й.
1	<b>ЯХМ ишлаб чиқариш</b>	%	30,6				
2	<b>Саноат маҳсулотлари ишлаб чиқариш</b>	%	34,1				
3	<b>Халқ истеъмоли моллари ишлаб чиқариш</b>	%	21,1				

Жадвални колгандан катақчаларини мустакил тўлдиринг

### 2-масала

Худудий жамғаришга чегараланган мойиллик кўрсаткичи 0,4 га, автоном истеъмол ҳажми 700 млн. сўмга, чегараланган солиқ ставкаси 0,25 га, даромадлар даражаси 7 млрд. сўмга тенг бўлса, худудий истеъмол ва жамғармалар ҳажми ҳамда истеъмолга ва жамғаришга чегараланган мойиллик кўрсаткичлари топилсин.

## МАСАЛАНИНГ ЕЧИЛИШИ

Масала шартида келтирилган истеъмол ва жамғармалар ҳажмини аниклашдан аввал истеъмолга чегараланган мойиллик кўрсаткичини хисоблаб топамиз:

$$MPC + MPS = 100 \Rightarrow MPC = 100 - MPS = 100 - 40 = 60\%, \text{ ёки } 0,6$$

Истеъмол функциясига кўра истеъмол харажатлари микдорини аниклаймиз

$$C = a + b(Y - Y_r) = 700 + 0.6(7000 - 0.25 \cdot 7000) = 700 + 3150 = 3850 \text{ млн. сўм.}$$

Жамғариш микдорини тасарруфдаги даромаддан истеъмол харажатларини айриб топамиз

$$S = \Delta Y - C = (Y - Y_r) - C = (7000 - 7000 \cdot 0.25) - 3850 = 5250 - 3850 = 1400$$

Истеъмолга ва жамғаришга ўртача мойилликни топамиз

$$APC = \frac{C}{\Delta Y} = \frac{3850}{5250} = 0,7 \quad APS = \frac{S}{\Delta Y} = \frac{1400}{5250} = 0.27$$

Жавоб:  $MPC = 0,6$ ,  $C = 3850$ ,  $S = 1400$ ,  $APC = 0,7$ ,  $APS = 0,27$

## **МУСТАҚИЛ ИШЛАШ УЧУН МАШҚЛАР**

### **1-масала**

Наманган вилоятининг базис йил сифатида танлаб олинган 2006 йилга нисбатан ЯХМ ва халқ истеъмол моллари ишлаб чиқариш бўйича кўрсаткичларининг ўсиш суръатини аниқланг. Маълумотлар кўйидаги жадвалда келтирилган.

№	Асосий кўрсаткичлар	Ўлчов бирлиги	2006 й.	2007 й.	2008 й.	2009 й.	2010 й.
1	<b>ЯХМ ишлаб чиқариш</b>	млрд. сум	791.4	1045.0	1449.7	1872.5	2426.6
2	Халқ истеъмоли моллари ишлаб чиқариш	млрд. сум	139.2	184.1	329.5	329.5	441.9

### **2-масала**

Кўйида жадвалда келтирилган статистик маълумотлар асосида минтақа иктисодиётининг 2006-2010 йиллардаги иктисодий кўрсаткичларининг ўсиш суръатларини аниқланг.

№	Асосий кўрсаткичлар	Ўлчов бирлиги	2006 й.	2007 й.	2008 й.	2009 й.	2010 й.
1	<b>ЯХМ ишлаб чиқариш</b>	млрд. сум	791.4	1045.0	1449.7	1872.5	2426.6
2	<b>Ялпи кишлек хўжалиги маҳсулотлари ишлаб чиқариш</b>	млрд. сум	520.1	649.4	838.2	910.0	1162.9
3	<b>Пуллик хизмат</b>	млрд. сум	104.6	149.3	231.2	316.3	434.0
4	<b>Саноат маҳсулотлари ишлаб чиқариш</b>	млрд. сум	269.9	331.6	434.5	534.5	748.7
5	<b>Чакана савдо айланмаси</b>	млрд. сум	442.5	575.9	761.5	965.1	1318.8

### **Мехнат унумдорлигини аниқлашга доир масалалар**

#### **Услубий кўрсатма**

Мехнат унумдорлиги деганда бир-бирлик меҳнат сарфига тўғри келувчи маҳсулот ҳажми тушунилади. Иктисодиётда ишлаб чиқариш функциясидан келиб чиқкан ҳолда ялпи (миллий) ички маҳсулот функцияси кўйидагича бўлади:

$$Y = f(L, K, N),$$

бу ерда: Y – ялпи миллий (ички) маҳсулот;

L – ишчи кучи сарфлари;

K – капитал сарфлари;

N – табиий ресурслар сарфлари.

Бу функционал боғланишдан келиб чиқкан ҳолда иктисодий ўсишни белгилаб берувчи бир катор хусусий кўрсаткичларни келтириб чиқариш мумкин:

- 1) **мехнат унумдорлиги (Y/L)** – маҳсулот ишлаб чиқариш ҳажмининг жонли меҳнат сарфларига нисбати;
- 2) **мехнат сиғими (L/Y)** – жонли меҳнат сарфларининг маҳсулот ишлаб чиқариш ҳажмига нисбати;
- 3) **капитал самарадорлиги (Y/K)** – маҳсулот ишлаб чиқариш ҳажмининг унга сарфланган капитал харажатларига нисбати;
- 4) **капитал сиғими (K/Y)** – капитал харажатларининг маҳсулот ишлаб чиқариш ҳажмига нисбати;
- 5) **табий ресурслар самарадорлиги (Y/N)** – маҳсулот ишлаб чиқариш ҳажмининг унга сарфланган табий ресурслар харажатларига нисбати;
- 6) **маҳсулотнинг ресурслар сиғими (N/Y)** – табий ресурслар сарфининг маҳсулот ишлаб чиқариш ҳажмига нисбати;
- 7) **ишчи кучининг капитал билан қуролланганлик даражаси (K/L)** – ишлаб чиқариш жараёнида кўлланилаётган капитал ҳажмининг ишчи кучи микдорига нисбати.

Иқтисодий ўсишни таҳлил қилишда юкорида кўриб чиқилган кўрсаткичлардан ташкари яна **кейинги қўшилган ишлаб чиқариш омиллари унумдорлиги** кўрсаткичлари хам мухим аҳамият касб этади. Бу кўрсаткичлар, бошқа омиллар сарфи ўзгармагани ҳолда, ҳар бир алоҳида омил сарфининг кўшимча ўсиши таъсирида маҳсулот ишлаб чиқариш ҳажмининг кўшимча ўсиши ҳажмини белгилаб беради:

- 1)кейинги қўшилган меҳнат унумдорлиги ( $\Delta Y/\Delta L$ );
- 2)кейинги қўшилган капитал унумдорлиги ( $\Delta Y/\Delta K$ );
- 3)кейинги қўшилган табий ресурслар унумдорлиги ( $\Delta Y/\Delta N$ ).

Бу кўрсаткичлар ялпи маҳсулот ишлаб чиқариш умумий ҳажмининг ўсишида ҳар бир омилнинг ҳиссасини намоён этиб, у қуидагича аникланади:

$$Y = (\Delta Y/\Delta L)L + (\Delta Y/\Delta K)K + (\Delta Y/\Delta N)N.$$

Неоклассик модель кўп омилли ҳисобланиб, америкалик иқтисодчи П.Дуглас ва математик Ч.Кобб яратган ишлаб чиқариш функцияси асос килиб олинган. Кобб-Дуглас модели орқали ишлаб чиқариш ҳажмининг ўсишида ишлаб чиқариш турли омилларининг улушини аниклашга ҳаракат килиниб, у қуидагича ифодаланади:

$$Y = AK^\alpha L^\beta,$$

бу ерда:  $Y$  – ишлаб чиқариш ҳажми;

$K$  – капитал сарфлари;

$L$  – ишчи кучи сарфлари;

$A$  – мутаносиблик коэффициенти;

$\alpha$  ва  $\beta$  - ишлаб чиқариш ҳажмининг ишчи кучи ва капитал сарфлари бўйича эластиклик коэффициенти ёки ишлаб чиқариш функциясининг коэффициентлари.

Эластиклик коэффициенти бир кўрсаткич миқдорининг ўзгариши натижасида бошқа бир кўрсаткич миқдорининг ўзгариши даражасини ифодалайди. Шунга кўра,  $\alpha$  коэффициенти капитал сарфларининг 1 %га ўсиши ишлаб чиқариш ҳажмининг неча фоизга ўсишини,  $\beta$  коэффициенти эса ишчи кучи сарфларининг 1 %га ўсиши ишлаб чиқариш ҳажмининг неча фоизга ўсишини кўрсатади.  $\alpha$  ва  $\beta$  нинг йигиндиси ишчи кучи ва капитал сарфларининг бир вақтнинг ўзида 1 %га ўсиши ишлаб чиқариш ҳажмининг неча фоизга ўсишини кўрсатади.

### 1-масала

Минтақада фаолият кўрсатаётган корхона маҳаллийлаштириш дастурига кўра, ҳар бири 80 минг сўмдан бўлган автомобиль эҳтиёт кисмини ишлаб чиқаради ва ракобатлашган бозорда ҳаракат килади. Агар чекли харажат ишлаб чиқарилган умумий маҳсулот ҳажмини ярмини, ўзгармас харажат 60 минг сўмни ташкил этиб, умумий харажат функцияси  $TC = 60 + Q^2$ , бўлса, корхона фойдасини максималлаштириш учун қанча миқдорда эҳтиёт кисм ишлаб чиқариши керак ва олинган фойда қанча бўлади?

## МАСАЛАНИНГ ЕЧИЛИШИ

Масала шартига кўра,  $TC = 60 + Q^2$ , бўлиб, бу ерда  $Q$  - ишлаб чиқариш ҳажми.

Чекли харажат  $MC = 2 \cdot Q$  ва ўзгармас харажат  $FC = 60$ .

Ракобатлашган бозорда ҳаракат қилаётган корхона фойдасини максималлаштирувчи шартдан фойдаланамиз:  $MC = P$  ёки  $2 \cdot Q = 80$ , бундан  $Q = 40$  та эҳтиёт кисм.

Демак, максимал фойда олиш учун корхона 40 та эҳтиёт кисм ишлаб чиқариши керак.

Олинган фойда  $\pi$  ни куйидагича аниклаймиз:

$$\pi = TR - TC = P \cdot Q - TC = 80 \cdot 40 - [60 + (40)^2] = 3200 - 1660 = 1540 \text{ минг сўм}.$$

Жавоб: 40 та эҳтиёт кисм ишлаб чиқариши керак ва бу оркали 1 млн. 540 минг сўм фойда.

### 2-масала

Минтақада 150 та корхона фаолият кўрсатади. Барча корхоналарининг умумий харажат функцияси  $TC = Q^{\frac{1}{3}} - 36Q^2 + 384Q$  кўринишда

берилган. Бу ерда  $Q$  – ишлаб чиқариш ҳажми бўлиб, минг дона ҳисобида. Узок муддатли оралиқда корхоналар мувозанат ҳолатда бўлишлари учун бозор нархи ва минтақа таклифини аниқланг.

## МАСАЛАНИНГ ЕЧИЛИШИ

Узок муддатли оралиқда ракобатлашаётган корхоналарнинг маҳсулоти нархи  $P=\min ATC$  бўлиши керак.

Ўртача харажат:  $ATC = \frac{TC}{Q} = Q^2 - 36Q + 384$  ифодани қуйидагича қиска

кўпайтувчига келтириб, масалани ечамиз:  $ATC = (Q - 18)^2 + 60$  бу функция минимум нуқтага  $Q=18$  бўлганда эришилади ва минимум қиймати 60 га тенг бўлади.

Минтақанинг таклиф ҳажми:  $Q_s = 150 \cdot 18 = 2700$ .

Жавоб: Демак, бозор нархи 60 бирлик, минтақа таклифи эса 2 млн. 700 минг донани ташкил этади.

## МУСТАҚИЛ ИШЛАШ УЧУН МАШҚЛАР

### 1-масала

Вилоятда фаолият юритаётган фирманинг чекли харажати ишлаб чиқарилабётган маҳсулот ҳажми  $Q$  га боғлиқ бўлиб, қуйидаги функция орқали берилган:

$$MC = (Q - 15)^2 + 150$$

Агар фирма сарфлаётган ўзгармас харажатлар микдори  $FC=2200$  минг сўмга тенг бўлса, фирманинг ўртача харажатини топинг.

### 2-масала

Минтақада маҳсулот ишлаб чиқариш жараёнига ўзгартириш киритилиб, меҳнат ресурслари 9 фоиз ( $L=9\%$ )га, капитални 4 фоиз ( $K=4\%$ )га орттирилса, ишлаб чиқариш ҳажми қандай ўзгаради. Бунда, ишлаб чиқариш функцияси қуйидагича:  $Q = L^{0.25} \times K^{0.75}$ .

### 3-масала

Минтақада фаолият кўрсатаётган корхона ишлаб чиқаришининг умумий харажатлар функцияси қуйидагича берилган:

$$TC = 2Q^2 - 20Q + 800$$

Бу ерда  $Q$ -ишлаб чиқариш ҳажми минг дона ҳисобида бўлиб, агар корхона маҳсулотининг бозор нархи 50 минг сўм бўлса, у қанча фойда ёки зарар кўради. Агар корхона зарар билан ишлаётган бўлса, қиска муддатли орлиқда у бозорда қоладими?

## **11-боб. МИНТАҚАЛАРНИ ИЖТИМОЙ-ИҚТІСОДИЙ РИВОЖЛАНИШ ИМКОНИЯТЛАРИ**

### **Услубий күрсатма**

Худудлар ривожланишида ўзига хос ўрин тутувчи молиялаштиришнинг турли манбалари мавжуд. Уларни күйидаги гурухларга бўлиш мумкин: давлат бюджети маблаглари; корхоналарнинг ўз маблағлари; аҳоли маблағлари; чет эл инвестициялари; бюджетлардан ташқари фондларнинг маблағлари ва ҳоказолар.

Бозор иқтисодиёти шароитида миллий иқтисодиётимиз учун зарур бўлган маҳсулотларни ишлаб чиқарувчи худуд обьектлари молиялаштирилади, хусусий молиялаштириш кенгайиб, хусусий сектор ривожланган сари давлат бюджети маблағлари ҳисобига инвестициялаш ортиб боради. **Ҳудудларнинг ижтимоий-иқтисодий ривожланиши** иқтисодиётни эркинлаштириш изчил, аниқ мақсадга йўналтирилган ҳолдагина амалга оширилади ва бу ўз навбатида макроиктисодий барқарорлик ва иқтисодий ўсишнинг барқарор суръатларини таъминлайди.

Минтақаларда ижтимоий-иқтисодий ривожланиш, авваламбор, ишлаб чиқаришнинг мавжудлиги ва унинг кенгайишига, яъни ишлаб чиқаришда фойдаланиладиган омиллар миқдорининг ўзгаришига боғлиқ бўлиб, иқтисодиётда бу **ишлаб чиқариш миқёси** тушунчасини ифодалайди ҳамда унинг самараси орқали ўлчанади.

**Миқёс самараси** – ишлаб чиқариш ҳажмининг кенгайиш суръати билан маҳсулот ишлаб чиқариш ўсиши ўртасидаги боғлиқликни ифодалайди ва у учта миқёс самараси орқали ўрганилади:

**1. Ўсуви миқёс самараси ёки нисбат миқёс самараси** – унда ишлаб чиқариш миқёсининг кенгайиши (ишлаб чиқаришда фойдаланиладиган ресурслар сарфининг ўсиши) суръатидан маҳсулот ишлаб чиқаришнинг ўсиш суръати юкори бўлган ҳолат. Масалан, ресурслар сарфи 100 фоизга ошса, маҳсулот ишлаб чиқариш суръати 120 фоиз ўсишига эришилади.

**2. Ўзгармас миқёс самарасида** ишлаб чиқаришда фойдаланиладиган ресурслар сарфининг ўсиш суръати маҳсулот ишлаб чиқаришнинг ўсиш суръатига teng бўлади, яъни ресурслар сарфи 100 фоизга ошса, маҳсулот ишлаб чиқариш ҳам 100 фоизга ўсади.

**3. Пасаювчи миқёс самараси** – ресурслар сарфининг ўсиш суръатидан маҳсулот ишлаб чиқариш суръати паст, яъни ресурслар сарфи 100 фоизга ошса, маҳсулот ишлаб чиқариш 80 фоизга ўзгаради.

## **1-масала**

Минтақада фаолият юритаётган пуллик хизмат күрсатишининг капиталга боғлиқ эластиклиги 0,8 га, меҳнатга боғлиқ эластиклиги 0,4 га тенг бўлиб, меҳнат омили 10 фоизга қисқарса, капитал омили эса 5 фоизга оширилса, ишлаб чиқариш қандай ўзгаради.

### **МАСАЛАНИНГ ЕЧИЛИШИ:**

Масала шартига кўра,  $K = 5$ ,  $L = -10$  бўлади. Ундан келиб чиқкан ҳолда ишлаб чиқариш ҳажмининг ўзгариши

$$(Q_1 - Q_0) = 0,8 \cdot 5 + 0,4(-10) = 4 - 4 = 0$$

Жавоб: Демак, ишлаб чиқариш ҳажмида ҳеч қандай ўзгариш ҳосил қилмайди.

### **Инвестициялар ва инвестицион лойиҳаларни танлашга оид масалалар**

Неокейнсча моделда инвестицияларнинг ўсиши иқтисодий ўсиш ва унинг суръатларини белгиловчи омил ҳисобланиб, у бир томондан, миллий даромаднинг ўсишига имкон яратади, иккинчи томондан эса, ишлаб чиқариш кувватларини кенгайтиради. Ўз навбатида даромаднинг ўсиши бандликнинг ошишига имкон яратади. Инвестиция ҳажмининг кўпайиши натижасида кенгайган ишлаб чиқариш кувватлари даромаднинг ўсиши орқали тўлиқ ишга туширилиши лозим.

Пул даромадининг кўшимча ўсиши(талаб) ишлаб чиқариш кувватларининг кўшимча ўсиши (таклиф)га тенглик муносабати мувоза-натни таъминлайди (Е. Домар модели).

Бу тенгликни формула тарзида ёзилса, у куйидаги кўринишга эга бўлади:

$$\Delta I \times \frac{1}{a} = I \times \sigma \quad \text{ёки} \quad \frac{\Delta I}{I} = \sigma \times a,$$

бу ерда:  $I$  – ҳар йиллик соф капитал кўйилмалар;

$\Delta I$  – соф капитал кўйилмаларнинг кўшимча ўсиши;

$\Delta I / I$  – соф капитал кўйилмаларнинг ўсиш суръати;

$1/a$  – мультипликатор;

бу ерда:  $a$  – жамғаришга бўлган ўртача мойиллик;

$\sigma$  – капитал самарадорлиги.

Шундай килиб, иқтисодиётдаги ишчи кучининг тўла бандлигини ҳамда ишлаб чиқариш кувватларининг тўлиқ ишлашини таъминловчи соф инвестициялар ёки капитал кўйилмаларнинг ўсиш суръати  $\sigma$   $x$   $a$  га тенг бўлиши лозим.

Инвестицион қарор стратегияси капитални талаб ва таклифлари баҳоларига боғлиқ.

Автоном инвестиция функцияси қуйидаги күринишга эга:

$$I = e - dR$$

бу ерда: I – автоном инвестиция харажатлари;

e – фоиз ставкаси 0 га тенг бўлгандаги инвестиция харажатларининг максимал ҳажми. У ташки иқтисодий омиллар, ресурс имкониятлари, ер, фойдали қазилма бойликлари ва бошқалар билан белгиланади;

R – реал фоиз ставкаси;

d – инвестицияларнинг реал фоиз ставкаси динамикаси ўзгаришга таъсирчанлигини миқдорий белгиловчи эмпирик коэффициент.

Агар кутилаётган фойда меъёри фоиз ставкасидан юқори бўлса, инвестициялаш фойдали ва аксинча, фоиз ставкаси кутилаётган фойда миқдоридан юқори бўлса, инвестициялашнинг фойдаси йўқ.

## 2-масала

Агар минтақа иқтисодиётда фойдаланилаётган инвестицияларнинг потенциал ўртача самарадорлиги 0,6 га, жамғаришга бўлган ўртача мойиллик 0,4 га тенг бўлса, у холда иқтисодиётдаги инвестицияларнинг ўсиш суръатини аникланг.

## МАСАЛАНИ ЕЧИЛИШИ

Юқорида келтирилган  $\frac{\Delta I}{I} = \sigma \times a$  формуладан фойдаланиб, масалада сўралган кўрсаткични аниқлаймиз. Унга кўра инвестицияларнинг ўсиш суръати:

$$\frac{\Delta I}{I} = (0,6 \cdot 0,4) \cdot 100 = 0,24 \cdot 100 = 24\%$$

Жавоб: Инвестициянинг ўсиш суръати 24 %га тенг бўлади.

## 3-масала

“General motors” компаниясини куришга 720 млн. сўм сарфланди. Ушбу компанияда бир ойда 6000 дона двигатель ишлаб чиқариш учун 18000 киши/соат меҳнат ва 30 минг кг мис сарфлайди. Ишлаб чиқарилган хар бир двигателнинг баҳоси 9000 сўм қилиб белгиланган. Агар бир ишчи соатига 4000 сўм, бир кг миснинг баҳоси 800 сўм бўлса, у холда бир ойлик умумий ўзгарувчан харажатларни, бир двигатель учун ўзгарувчан харажатларни ва бир ойдаги ҳамда умумий фойдани канчага тенг бўлишини аникланг.

## МАСАЛАНИНГ ЕЧИЛИШИ

Умумий ўзгармас харажат

$$TC = 18000 \cdot 4000 - 30000 \cdot 800 = 72000000 - 24000000 = 4800000 \text{ сўм};$$

Бир двигатель учун ўзгармас харажат

$$AC = TC / Q = 48000000 : 6000 = 8000 \text{ сўм};$$

Ҳар бир двигатель учун ўртача фойда, масала шартидан келиб чиққан ҳолда

$$AR = 9000 - 8000 = 1000 \text{ сўм};$$

Умумий фойда

$$TR = 6000 \cdot 1000 = 6000000 \text{ сўм}.$$

Жавоб: Компания умумий равишда 48 млн. сўм ва бир двигатель учун 8000 сўм ўзгарувчан харажат қиласди. Шунингдек, ҳар бир двигателдан 1000 сўм, бир ойда ишлаб чиқарган двигатели учун 6 млн. сўм умумий фойда кўради.

### 4-масала

General motors” компаниясини қуриш лойиҳасини танланганлигини тўғри ва нотўғрилигини исботланг.

## МАСАЛАНИНГ ЕЧИЛИШИ

Демак, компанияга сарфланган капитал 720 млн. сўмни ташкил этган ҳолда ойига 6 млн. сўм фойдага эга. Инвестицияни киритиш тўғрисидаги қарор тўғри ва нотўғрилигини билиш учун унинг асосий капитал қиймати ишлаш давомида келтирадиган умумий фойда суммаси билан солишириш лозим.

Ушбу завод бир хилда 15 йил ишлай олсин. У ҳолда 15 йилда ойига 6 млн. сўм фойда билан компаниянинг умумий фойдаси  $TR = 6 \cdot 15 \cdot 12 = 1080$  млн. сўмга тенг бўлади.

Жавоб: Компаниянинг 15 йилда умумий фойдаси 1 млрд. 80 млн. сўмга тенг бўлади.

Ушбу қиймат қарорнинг тўғрилигини кўрсатади. Аммо, ана шу 15 йилдан кейин бугунғи 6 млн. сўмни қийматини берадими?

Жаҳон тажрибасида кутилаётган даромад ва сотила-диган ускуналарнинг барчасини дисконтлашган нарх деб юритилиб, у дисконтлашган ҳисоб-китоб дейилади. Дисконтлашган баҳони тушуниш учун ускуна хозир сарфланадиган суммани банкка пулни кўйишдан олган даромад билан солиширилади.

### **5-масала**

Худудий инвестициялар –  $I=50$  млрд. сўмни, давлат харажатлари –  $G=20$ , соф экспорт –  $X_n=7,0$  млрд. сўм, автоном истеъмол харажатлари –  $C=100$  млрд. сўмни ва жамгармага чегараланган мойиллик –  $MPS=0,25$  ни ташкил этса, ЯҲМнинг мувозанатли даржасини аниқланг.

## **МАСАЛАНИНГ ЕЧИЛИШИ**

$$MPC = 1 - 0,25 = 0,75;$$

Масала шартидан келиб чиқкан холда истеъмол харажатлари функциясини белгилаб оламиз:

$$C = 100 + 0,75 \cdot Y \quad Y = C + I + G + X_n$$

Мавжуд маълумотларни асосий макроиктисодий айниятга қўйган холда ЯҲМнинг изланаётган мувозанатли миқдорини топамиз.

$$Y = 100 + 0,75 \cdot Y + 50 + 20 + 7 = 0,75 \cdot Y + 177$$

$$0,25 \cdot Y = 177, \quad Y = 177 : 0,25 = 780$$

Жавоб: ЯҲМнинг мувозанатли миқдори 780 млрд. сўм эканлигини аниқлаймиз.

## **МУСТАҚИЛ ИШЛАШ УЧУН МАШҚЛАР**

### **1-масала**

Вилоят иқтисодиётини модернизациялаш учун киритилган инвестициялар 700 млн. сўмни, тасарруфдаги даромад 3,2 млрд. сўмни, истеъмол харажатлари 2,8 млрд. сўм, давлат бюджети ортиқчалиги 100 млн. сўмни ташкил этди. Соф экспорт миқдорини топинг.

### **2-масала**

Минтақа иқтисодиёти  $Y=A \times K^{0.4} \times L^{0.6}$ . Маълумки, капиталнинг ўсиш суръати йилига 3 %, аҳолининг ўсиш суръати-2 %. Омилларнинг умумий унумдорлиги йилига 1,5 % суръат билан ўсади. Ишлаб чиқариш ҳажми қандай ўзгаради?

### **3-масала**

Ўтган йили уй хўжаликларининг истеъмол харажатлари 8 млн. сўмни тасарруфдаги даромад миқдори эса 10 млн. сўмни ташкил этган бўлса, жорий йилда жамгармалар ҳажми 1,2 млн. сўмни, истеъмолга чегараланган мойиллик эса 75 %ни ташкил қилгани маълум бўлса, ўтган йилдаги жамгармалар, истеъмолга ва жамғаришга ўртacha

мойиллик кўрсаткичлари, жорий йилдаги истеъмол, тасарруфдаги даромад, истеъмолга ва жамғаришга ўртача мойиллик кўрсаткичлари ҳамда жамғаришга ва истеъмога чегараланган мойиллик кўрсаткичларини топинг.

#### **4-масала**

Агар минтақа иқтисодиётининг ялпи ҳудудий маҳсулотдаги капитал улуши 20 %, меҳнатнинг улуши 80 % бўлса, у ҳолда капитал захираси йилига 2 %га, ишчи кучи сони 3 %га ҳамда ЯИМ эса 2 %га кўпайса, омилларнинг жами унумдорлигини топинг.

## KIRISH

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning hozirgi bosqichida ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish va rivojlantirishning mintaqaviy jihatlarini o'rganish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

SHu bois mamlakatimizda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda, yaqin istiqbolda, mintaqalarda tabiiy, mineral xomashyo va suv-er imkoniyatidan oqilona foydalanish, mintaqalarning demografik holatini hamda aholini ish bilan bandligini, bozor tuzilmasi, transport yo'llar va kommunikatsiya holatini, jumladan, energetika, tabiiy gaz va ichimlik suvi bilan ta'minlanishi, mintaqalarning moliyaviy barqarorligida o'z-o'zini moliyalashtirish, mahalliy byudjetning kamomadini bartaraf etish va investitsiya resurslarini kuchaytirish imkoniy yaratiladi.

Bu esa o'z navbatida kelajak avlodni har tomonlama etuk, bilimli va o'z ishining ustasi qilib tarbiyalashdek mas'uliyatni yuklaydi. Bundan ko'rinaridiki, bo'lajak iqtisodchi mutaxassisdan turli mintaqalarning geografik o'rni, tabiiy sharoiti, resurslari, ixtisoslashuvdagi farqli va o'xshash tomonlarini aniqlab, ularning xususiyalarini tahlil qilishni o'rganish, mamlakat hududi va uning mintaqalarini tabiiy-resurs salohiyatini, rivojlanish darajasini, etakchi tarmoqlar joylashuvi haqida tushunchalarni bilish, har bir mintaqaning tabiiy-iqtisodiy, demografik, ekologik va boshqa xususiyatlarini hisobga olgan holda iqtisodiyotni yuksaltirish bo'yicha vazifalarini hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bilan mushtarak holda amalga oshirishning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishi lozim bo'ladi.

Bundan tashqari qo'llanmani har bir o'quvchisiga tushunarli bo'lishini ta'minlash uchun muallif barcha masalalar va ularning echilish usullari hamda ko'rsatmalarni ham kirill ham lotin alifbosida bayon etgan. SHuningdek, ushbu qo'llanmada berilgan masalalar va ularning echilish usullari turmushimizda ko'plab duch keladigan jarayonlarni o'z ichiga olgan.

SHu ma'noda taqdim etilayotgan qo'llanma talabalarda mintaqalarning turli iqtisodiy salohiyatlarini, bozor islohotlarini amalga oshirish, avvalo, hududiy darajada namoyon bo'lishini, mavjud ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etishda hududiy boshqaruva organlari mas'uliyati va ularning vakolatlari kengayishini hamda muhim iqtisodiy masalalar tarmoq, umumrespublika miqyosidan hududiy darajaga o'tkazilishini amalda qanday borayotganini o'rgatishda muhim ahamiyat kasb etadi.

## **1-bob. MINTAQAVIY IQTISODIYOT FANINING PREDMETI, MAQSADI VA VAZIFALARI**

### **1.1. YAlpi mintaqaviy mahsulotni hisoblash uslublari va ularga doir masalalar**

YAlpi mintaqaviy mahsulot ham yalpi ichki mahsulot kabi ikkita usul: ya'ni ishlab chiqarish va pirovard foydalanish usullari bo'yicha hisoblanadi. Ishlab chiqarish usuli bo'yicha yalpi mintaqaviy mahsulot – mintaqalar bo'yicha yalpi ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlar bilan oraliq iste'mol o'rtaсидиги farq bo'yicha hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda u mintaqalar tarmoqlarida yaratilgan barcha qo'shilgan qiymatlar yig'indisiga teng. YAMM bozor baholarida hisoblash uchun yuqoridagi qiymatga mahsulotlarga qo'yilgan sof soliqni qo'shish zarur. Uning formulasi kuyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$\mathcal{YMM} = (\mathcal{Y} - \mathcal{OI}) + M_{cc} \text{ yoki } \mathcal{YMM} = \sum_{i=1}^n \mathcal{YKK}_i + M_{cc}$$

bu erda:  $\mathcal{Y}$  – yalpi ishlab chiqarish;

$\mathcal{OI}$  – oraliq iste'mol;

$M_{cc}$  – mahsulotga sof soliq.

Pirovard foydalanish usuli bo'yicha hisoblangan YAMM – pirovard iste'mol va yalpi jamg'arishga qilingan barcha xarajatlar yig'indisi sifatida aniqlanadi va u quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$\mathcal{YMM} = \mathcal{PI} + \mathcal{YK}$$

bu erda:  $\mathcal{PI}$  – pirovard iste'mol;

$\mathcal{YK}$  – yalpi jamg'arma.

Milliy daromad sof milliy mahsulotdan bilvosita(egri) soliqlarni ayirmasiga teng bo'lgan ko'rsatkich hisoblanadi.

Sof milliy mahsulot yalpi ichki mahsulotdan ammortizatsiya ajratmasini ayirmasiga teng.

YAlpi milliy mahsulot – o'z mamlakati yoki xorijda joylashuvidan qat'i nazar, milliy korxonalar tomonidan yaratilgan mahsulot va xizmatlar umumiy hajmining jami qiymati. YAMM ko'rsatkichiga sof eksport (eksport va import o'rtaсидиги farq) kiradi.

YAlpi ichki mahsulot – ma'lum vaqt davomida, masalan, bir yilda yaratilgan va bevosita iste'molchilarga borib etadigan barcha tayyor mahsulot va ko'rsatilgan xizmatlarning bozor narxidagi qiymati.

#### **1-masala**

Jadvalda keltirilgan ma'lumotlar asosida YAIM, SMM, MD va YAMMni hisoblang.

T/n	Ko'rsatkichlar	Belgilanishi	mlrd. pul birligi
1.	YOllanma xodimlarning ish haqi	W	194,2
2.	Tovar va xizmatlar eksporti	E	13,4
3	YAkka qo'yilmalardan daromadlar	H	23,3
4.	Amortizatsiya	A	21,8
5.	Tovar va xizmatlarning davlat xaridi	G	59,4
6.	Biznesga egri soligalar	T <sub>1</sub>	12,3
7.	Sof xususiy ichki investitsiyalar	I	52,1
8.	Foiz stavkasi	R	14,5
9.	Korporatsiyalar foydasi	P	33,9
10.	Tovar va xizmatlar importi	I <sub>m</sub>	16,5
11.	Daromad solig'i	T <sub>2</sub>	33,7
12.	Iste'mol xarajatlar	C	219,1
13.	YAlpi jamg'arma	S	65,7

## MASALANING ECHILISHI

### 1-usuli xarajatlar ko'rinishida aniqlash

ЯИМ ni 2 xil usulda hisoblab topish mumkin.

Birinchisi xarajatlar orqali hisoblash formulasini quyidagicha tasvirlash mumkin:

$$ЯИМ = C + I + G + X_n$$

tengligini e'tiborga olgan holda dastlab,  $X_n$  – sof eksport qiymatini aniqlab olamiz.  $X_n$  – eksport va import o'rtasidagi farq.

$$X_n = 16,5 - 13,4 = 3,1 \text{ bundan}$$

$$ЯИМ = C + I + G + X_n = 219,1 + 52,1 + 59,4 + 3,1 = 333,7$$

### 2-usuli daromadlar ko'rinishida aniqlash

$$ЯИМ = W + H + A + T + R + P = 194,2 + 23,3 + 21,8 + 46 + 14,5 + 33,9 = 333,7$$

Xarajatlar va daromadlar ko'rinishida hisoblab topilgan YAIM hajmi o'zaro mos keladi. CHunki milliy iqtisodiyot doirasida bir sub'ekt tomonidan qilingan har qanday xarajat ikkinchi sub'ekt uchun daromad bo'lib tushadi.

$$CMM = ЯИМ - A = 333,7 - 21,8 = 311,9$$

$$MД = CMM - T_1 = 311,9 - 12,3 = 299,6$$

$$ЯММ = (Я - ОИ) + M_{cc} = (333,7 - 219,1) + YAMM$$

### 2-masala

Reja yilidagi fond qaytimini aniqlang. Reja yilidagi yalpi milliy mahsulot 165 mlrd. so'm. Milliy daromad 78 mlrd so'm. Asosiy fondlarning ishlab chiqaruvchi qismi 220,5 mlrd so'm, aylanma mablag' qismi 31,5 mlrd. so'm.

## MASALANING ECHILISHI

Fond qaytimi ( $f_o$ ) aniqlash formulasi quyidagicha:

$$f_o = \frac{Q}{\phi}$$

bu erda: Q – mahsulot hajmi, qiymat pul ko‘rinishida;  
F – asosiy ishlab chiqarish fondlari qiymati.

$$f_o = \frac{165}{220,5 + 31,5} \cdot 100 = \frac{165}{252} \cdot 100 = 65,5 \%$$

Fond qaytimi fond sig‘imiga teskari mutanosibdir. Demak, fond qaytimi qanchalik yuqori va fond sig‘imi qanchalik past bo‘lsa, ishlab chiqarish va mehnat qurollaridan foydalanish samaradorligi shunchalik yuqori bo‘ladi va aksincha. Mashina va uskunalaridan unumli foydalanish, ishlab chiqarish texnologiyalarini takomillashtirish hamda xodimlar malakasini oshirish, fond qaytimini ko‘paytirishning muhim zaxirasi hisoblanadi.

## MUSTAQIL BAJARISH UCHUN MASHQLAR

### 1-masala

Mamlakatda reja yilidagi yalpi milliy mahsulot 150 mld. so‘m, milliy daromad 75 mld. so‘m. Ijtimoiy xarajatlар 84 mld. so‘m, asosiy fondlarning ishlab chiqaruv qismi 201,2 mld. so‘m, oborot qismi 25,4 mld. so‘mga teng bo‘lsa, reja yilidagi fond qiymatini aniqlang (%).

### 2-masala

Viloyatda 1680 mln so‘m tovar-mahsulot ishlab chiqarilgan va uning 1440 mln. so‘m realizatsiya qilingan. Viloyatda 12,4 mln. so‘m pulli xizmat ko‘rsatilgan. Umumiyl holda viloyatning ijtimoiy xarajatlari 552,8 mln. so‘m. Ijtimoiy xarajatlarda moddiy xarajatlarning salmog‘i 65 %ni tashkil etsa, korxonalarining foydasini aniqlang.

### 3-masala

Mamlakatda rejlashtirilayotgan yildagi aholi soni – 25 mln. kishini tashkil etib, jami ijtimoiy mahsulot – 56 mld. so‘m va moddiy xarajatlар – 31 mld. so‘mga teng bo‘lganda ishlab chiqarilgan milliy daromadni va aholini jon boshiga to‘g‘ri keladigan milliy daromadini aniqlang.

## **2-bob. MINTAQALARING MINERAL XOMASHYO VA TABIIY RESURSLARI**

### **2.1. CHekli texnologik almashtirish normasini aniqlashga doir masala**

#### **Uslubiy ko'rsatma**

Iqtisodiyotda ishlab chiqarish to'g'risida gap borar ekan, birinchi navbatda mayjud xomashyo va resurslardan samarali foydalanish nazarda tutiladi. Buning uchun "CHekli texnologik almashtirish normasi" tushunchasini anglab olish zarur bo'ladi. CHekli texnologik almashtirish normasi( $MRTS_{xy}$ ) – ishlab chiqarish hajmi o'zgarmaganda bir birlik X omilni necha birlik Y omil bilan almashtirish mumkin bo'lgan iqtisodiy ko'rsatkichga aytildi va quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$MRTS = \frac{K}{L} \quad (1)$$

bunda:  $K$  – kapital yoki ishlab chiqarish omillaridan biri;

$L$  – mehnat sarfi yoki ishlab chiqarish omillaridan ikkinchisi deb qarash mumkin.

Ishlab chiqarish omillari deb, biror ne'matni ishlab chiqarishda foydalaniladigan har qanday tovar yoki ne'matlarga aytildi.

#### **1-masala**

Aytaylik, mintaqada umumiy ishlab chiqarish funksiyasini  $Q = L^{0.4} K^{0.2}$  bilan ifodalansin. Mintqa yalpi xarajati 15 mlrd. so'mga teng bo'lib, mehnat narxi 2 mlrd. so'm va kapital qiymat 2,5 mlrd. so'm bo'lsa, mintaqada maksimal mahsulot ishlab chiqarishni ta'minlaydigan resurslar sarfi aniqlansin.

#### **MASALANING ECHILISHI:**

$$MRTS = \frac{0,4 L^{-0,2} K^{0,2}}{0,2 L^{0,4} K^{-0,4}} \quad \text{ёки} \quad MRTS = \frac{2K}{L}$$

aniqlangan natijaga ko'ra, muvozanat nuqtada:

$$\frac{2K}{L} = \frac{2}{2,5}; \quad K = \frac{1}{2,5}L \quad \text{ga teng bo'ladi.}$$

Masala shartiga ko'ra,  $2L + 2,5K = 15$  bo'ladi. Bundan,  $K$  ni  $L$  orqali ifodalash orqali,

$$2L + 2,5 \cdot \frac{1}{2,5}L = 15 \quad 3L = 15 \quad L = 5 \Rightarrow K = \frac{1}{2,5} \cdot 5 = 2$$

Ifodani hosil qilamiz va bu orqali  $L=5$  va  $K=2$  miqdorda sarflash lozimligini aniqlaymiz.

Javob: mehnat 5 birlik, kapital 2 birlik sarflanganda mintaqada maksimal mahsulot ishlab chiqariladi.

## 2.2. Resurslardan optimal foydalanish masalasi

### Uslubiy ko'rsatma

Ishlab chiqarish jarayoni samaradorligiga, ya'ni mahsulot ishlab chiqarishning maksimal darajasiga erishishda, eng avvalo, xomashyo va resurslardan foydalanishni optimal sarflanadigan holatlarni aniqlash lozim. Bundan tashqari, albatta, ishlab chiqarishning uzlusizligi va davomiyligini ta'minlashda ishlab chiqaruvchilarning muvozanat shartlari bajarilishi ham muhim ahamiyat kasb etadi. YUqorida keltirilgan fikrlar bir-biri bilan chambarchas bog'liq.

Ishlab chiqaruvchi muvozanat yoki maksimal mahsulot ishlab chiqarish uchun optimal sarflanadigan mehnat va kapital miqdorini aniqlash sharti bo'lib, ishlab chiqarishning shunday holati tushuniladiki, bunda har qanday omil uchun sarflanadigan bir birlik pul miqdori, bir xil miqdordagi mahsulot ishlab chiqarilishini ta'minlaydi. U quyidagi formula orqali ifodalanadi:

$$\frac{MRF_1}{P_1} + \frac{MRF_2}{P_2} + \dots + \frac{MRF_n}{P_n} = \frac{MRF_1}{MRF_2} = \frac{P_1}{P_2}$$

bunda:  $MRF$  – ishlab chiqarilgan mahsulot birligi;

$P$  – omil uchun sarflanadigan bir birlik pul miqdori.

YUqorida keltirilgan ifodadan foydalangan holda ishlab chiqaruvchining muvozanat shartini keltirib chiqarish mumkin:

$$\frac{MP_1}{P_1} = \frac{MP_2}{P_2} = \dots = \frac{MP_n}{P_n}$$

### 2-masala

Mintaqada xomashyo resurslari mavjud bo'lib, mahsulot ishlab chiqarish uchun faqat mehnat va kapitalga xarajat qilishi rejalashtirilgan. Rejaga ko'ra, mehnat sarfi qiymati  $P_L = 10$  mln. so'm,  $P_K = 20$  mln. so'mga teng bo'lishi kerak. Mintqa byudjeti 300 mln. so'mga teng. Mintaqada ishlab chiqarish funksiyasi  $Q(K, L) = K^{\frac{2}{3}} \cdot L^{\frac{1}{3}}$  ko'rinishda ifodalansa, mintaqada maksimal mahsulot ishlab chiqarish uchun qancha kapital va mehnatdan foydalanish talab etiladi.

## MASALANING ECHILISHI:

Bizga ma'lumki, maksimal ishlab chiqarish hajmi o'zgaruvchan omilning chekli unumdorligi nolga teng bo'lganda ta'minlanadi  $MP_L = 0$ . SHuning uchun biz mehnat omillarining chekli unumdorligini topishda ishlab chiqarish funksiyasidan masala shartiga ko'ra, xususiy hosila olib, uni nolga tenglashtiramiz

$$MP_K = \frac{dQ}{dK} = \frac{1}{2} \times \sqrt{\frac{L}{K}}, \quad MP_L = \frac{dQ}{dL} = \frac{1}{2} \times \sqrt{\frac{K}{L}}$$

bularni ishlab chiqaruvchining muvozanat sharti

$$\frac{MP_K}{P_K} = \frac{MP_L}{P_L} \text{ ga qo'ysak, } \sqrt{\frac{K}{L}} = 1 \text{ bo'ladi.}$$

Bundan  $K = L$  ekanini aniqlaymiz.

Masala shartiga asosan,  $10 \cdot L + 20 \cdot K = 300$  dan  $30 \cdot L = 300$  bundan  $L = 10$  ga tengligi kelib chiqadi.

Javob:  $K = L = 10$  birlik.

## MUSTAQIL BAJARISH UCHUN MASHQLAR

### 4-masala

$Q = K^{0.5}L$  funksiya bilan berilgan ishlab chiqarishning 8 birlik kapital va 4 birlik mehnatdan foydalanilganda chekli texnologik almashtirish normasi, ya'ni kapitalni mehnat omili bilan almashtirish normasi nimaga teng bo'ladi?

### 5-masala

Mintaqa agrar sohaga ixtisoslashgan bo'lib, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaradi va mintaqa ishlab chiqarish funksiyasi  $Q = 2K^{\frac{1}{2}}L^{\frac{1}{2}}$  orqali ifodalanadi. Mehnat sarfi qiymati 6 mln. so'm, kapital narxi 10 mln. so'm. Mintaqa yalpi xarajati 1800 mln. so'm bo'lsa, maksimal mahsulot hajmi va uni ta'minlovchi resurslar sarfini aniqlang.

### 6-masala

Hududiy korxonaning ishlab chiqarish funksiyasi  $Q = 6K^2 \cdot L^3$  ko'rinishga ega. Kapital xarajati 60 mln. so'm, ishchi kuchi qiymati 130 mln. so'm bo'lsa, korxona mahsulot ishlab chiqarishi uchun qancha ishchi kuchidan va qancha miqdordagi kapitaldan foydalanadi?

### **3-bob. ISHLAB CHIQARUVCHI KUCHLARNI JOYLASHTIRISHNING (ICHKJ) NAZARIY ASOSLARI**

#### **Uslubiy ko'rsatma**

O'tish davrini boshidan kechirayotgan, o'zlarining mustaqil mintaqaviy siyosatini joriy etayotgan mamlakatlar, jumladan, O'zbekiston uchun xorijiy olimlar va mintaqashunos mutaxassislar tomonidan ishlab chiqilgan ishlab chiqarishni joylashtirishning nazariy asoslari muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Ular chuqur ilmiy izlanishlarga, boy tajribaga va mintaqaviy ekspertizalarga asoslangan.

Ishlab chiqarish kuchlarini oqilona va samarali joylashtirish deganda mahsulot ishlab chiqarish xaratjatlarini minimal holatga keltirish va ishlab chiqarishning barcha (tayyor mahsulotgacha bo'lgan) bosqichlarini muayyan hududga joylashtirish tushuniladi.

#### **4-masala**

Agar korxonada mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha 5 ta ishlab chiqarish jarayonlarining davomiyligi 0,5; 1,5; 0,25; 0,75; 1,0 (min) bo'lsa, hamda soatiga 480 ta detal ishlab chiqarilayotgan bo'lsa ishlab chiqarish zanjiridagi ishchilar joylashuvini va ularning umumiyligi sonini aniqlang.

### **MASALANING ECHILISHI**

Davomiyligi bo'yicha eng minimal jarayonning mehnat sig'imi aniqlanadi:  $480 \cdot 0,25 = 120$  min. Ishlovchilarning zarur bo'lgan soni 2 ta ( $120:60$ ). Qolgan jarayonlar uchun ishlovchilar soni quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$P_c = \frac{J_D}{J_{\min}}$$

bu erda:  $P_c$  – ishlovchilar soni;

$J_D$  – ishlab chiqarish jarayonlarining davomiyligi;

$J_{\min}$  – ishlab chiqarishning eng minimal jarayoni.

SHunday qilib, birinchi jarayonda 4 kishi ( $\frac{0,5}{0,25} \cdot 2$ ), ikkinchisida – 12 ta ( $\frac{1,5}{0,25} \cdot 2$ ), uchinchisida – 2 ta, to'rtinchisida – 6 ta ( $\frac{0,75}{0,25} \cdot 2$ ) va beshinchisida – 8 ta ishchi ( $\frac{1,0}{0,25} \cdot 2$ ). Jami – 32 kishi.

Tekshirish. 480 ta detalning mehnat sarfi 1920 min (480·4). 32 ta ishchi ham soatiga 1920 min ishlaydi (32·0), shunday ekan zanjirimiz to'xtovsiz ishlaydi.

### **5-masala**

Viloyatda faoliyat yuritayotgan korxona 3 ta sexdan iborat. Agar 1-sexda bir oyda bajarilayotgan ishlar mehnat sarfi 4569 me'yor-soat, 2-sexida – 5860 va 3-sexda – 2513 norma-soat bo'lsa, sexlarning o'zaro bog'liq uchastkalarida minimal, biroq etarli ishchilar sonini hisoblang. Ishlab chiqarish normalari rejasining bajarilishi mos holda 118, 124 va 111 %, bitta ishchining ish vaqtiga jamg'armasi 176 soat.

## **MASALANING ECHILISHI**

Har bir uchastka bo'yicha ishchilar soni quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$P_c = \frac{M_c \cdot 100}{H_T \cdot H_{\text{yph}}}$$

Bu erda:  $P_c$  – ishchilar soni;

$M_c$  – uchastka bo'yicha ishlar hajmining me'yordagi mehnat sig'imi;

$H_T$  – hisobot davridagi bitta ishchining ish vaqtiga jamg'armasi;

$H_{\text{yph}}$  – rejalashtirilayotgan ishlab chiqarish normalari bajarilishining o'rtacha foizi.

$$\text{Bizning misolimizda } P_1 = \frac{4569 \cdot 100}{176 \cdot 118} = 22 \text{ kishi;}$$

$$P_2 = \frac{5860 \cdot 100}{176 \cdot 124} = 27 \text{ kishi; va } P_3 = \frac{2513 \cdot 100}{176 \cdot 111} = 13 \text{ kishi.}$$

### **6-masala**

Agar korxona sexidagi ishchilar o'z operativ vaqlarining 10 %ini o'z-o'zlariga xizmat ko'rsatishga sarflayotgan bo'lsalar, asosiy ishchilarga xizmat ko'rsatish uchun zarur bo'ladigan yordamchi ishchilarning minimal, biroq etarli sonini aniqlang. Sexdag'i asosiy ishchilar soni 300 kishi, smenadagi operativ vaqt 410 minut.

## **MASALANING ECHILISHI**

O'z-o'ziga xizmat ko'rsatishga ketayotgan operativ vaqt sarflari yig'indisi 12300 minut (300·410·0,1). Zarur bo'lган yordamchi ishchilar soni 330 kishi. (12300:410).

## **MUSTAQIL BAJARISH UCHUN MASHQLAR**

### **5-masala**

Korxonada mahsulot ishlab chiqarish jarayoni 5 ta o'zaro bog'liq va ketma-ket bajariladigan operatsiyalardan iborat bo'lib, ularning mehnat sig'imi 16, 22, 4, 31 va 15 minut. Agar smena ichidagi mahsulot ishlab chiqarish rejasи 240 dona bo'lsa, har bir operatsiyani bajarish uchun va umuman ishlab chiqarish zanjiriga zarur bo'lgan ishchilar sonini aniqlang.

### **6-masala**

Sexning uchta o'zaro bog'liq ishlab chiqarish uchastkalarida normalangan ishlar mehnat sig'imi 2050, 3440 va 1890 me'yor-soatni tashkil qiladi. Agar birinchi ikki uchastkada bitta ishchining oylik ish vaqtiga jamg'armasi 176 soatdan bo'lsa, uchinchisida belgilangan qisqartirilgan ish kuni bo'yicha-154 soat bo'lsa, uchastkalar bo'yicha ishchilar sonini va ularning sexdagi umumiy sonini aniqlang.

### **7-masala**

Korxonada 100 ta asosiy stanokchi ishchilar bor. Smena davomida ularning har biri kesuvchi asbobni charxlash uchun 35 minut va yarim mahsulotni keltirish uchun 42 minut sarflaydi. Asbob charxlovchi va avtokaralarni haydovchilardan iborat yordamchi ishchilar brigadasi tashkil qilinsa, asosiy ishchilar yordamchi ishlardan ozod bo'ladi. Ularning har birini smenadagi operativ vaqtiga 343 dan 420 minutgacha ko'payadi. Agar ixtisoslashtirilgan brigada sharoitida bu ishlarning mehnat sig'imi 20 % kamaysa yordamchi ishchilar brigadasidagi asboblarni charhlovchi va avtokaralar haydovchilarining sonini hisoblang.

### **8-masala**

Smena davomida 100 ta bolalar ko'ylagi ishlab chiqariladi. Bitta ko'ylakni ishlab chiqarish uchun ketadigan me'yor-soatlar yig'indisi 40 minutni tashkil qiladi. Agar jarayonlarning mehnat sarfi 1:3:2:0, 5:0, 25:0,5 ga tenglashtirilgan bo'lsa, ishchilarning smena bo'yicha sonini va ish joylari bo'yicha taqsimlanishini aniqlang.

## **4-bob. MINTAQALAR AHOLISI VA MEHNAT RESURSLARI**

### **Uslubiy ko'rsatma**

Har bir o'lka, hudud, viloyat yoki mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, avvalo, shu joyda yashovchi aholining mehnat faoliyatiga bog'liq. Mahalliy aholining mehnat madaniyati, jamoa ishlardagi ijtimoiy faolligi, bilim va malakalari, oilaviy tarkibi, yoshi va jinsi shu o'lkada iqtisodiy taraqqiyotning rivojlanshida katta rol o'yaydi.

Aholining tug'ilishini o'limdan ko'pligi natijasida mehnat resurslari soni ko'payadi. Ayrim hududlarda inson resurslarining miqdoriga aholi migratsiyasi ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Mehnat resurslarining oshib borishi o'z navbatida aholining bandligini ta'minlash muammosini keltirib chiqaradiki, bu masalani echishda mehnat bozori muhim ahamiyat kasb etadi.

Mehnat bozori bozor infratuzilmasida ishchi kuchini yollash va undan foydalanish bo'yicha ijtimoiy-iqtisodiy va mehnat munosabatlari majmui bo'lib, mehnatga bo'lgan talab va taklifda o'z ifodasini topadi.

Mehnat bozoridagi vaziyat faqatgina ish bilan bandlar va ishsizlarning mutlaq soni orqali emas, balki ish bilan bandlik va ishsizlik darajasi orqali ham baholanadi.

Mamlakat, mintaqaga yoki hududlardagi mehnat resurslari sonini aniqlashdagi boshlang'ich ma'lumotlar bo'lib, ushbu hudud aholisining soni, tarkibi va harakati ko'rsatkichlari hizmat qiladi. Bunda quyidagi ko'rsatkichlar nazarda tutiladi.

1) Yil davomida aholining o'rtacha yillik soni:

$$P = \frac{P_{u, \bar{o}} + P_{u, o}}{2};$$

bu erda:  $P_{u, \bar{o}}$  – aholining yil boshidagi soni;

$P_{u, o}$  – aholining yil oxiridagi soni.

2) Yil davomida umumiy tug'ilish koeffitsienti ( $n$ ) (promillda):

$$n = \frac{N_i}{P} \cdot 1000;$$

3) Yil davomida umumiy o'lish koeffitsienti ( $m$ ) (promillda):

$$m = \frac{N_j}{P} \cdot 1000;$$

4) Yil davomida aholining tabiiy o'sishi (kamayishi):

$$E = N_i - N_j;$$

bu erda:  $N_i$  – yil davomida tug'ilganlar soni;

$N_j$  – yil davomida vafot etganlar soni;

5) Aholining tabiiy o'sish koeffitsienti ( $\kappa$ ) (promillda):

$$K_s = \frac{E}{P} 1000 ;$$

6) Yil davomida aholining mexanik (migratsion) ko‘payishi (kamayishi):

$$C = M_s - M_i ;$$

bu erda:  $M_s$  – yil davomiда ko‘chib kelgan aholi soni;

$M_i$  – yil davomida ko‘chib ketgan aholi soni.

7) Aholining mexanik ko‘payishi koeffitsienti:

$$K_m = \frac{C}{P} 1000 ;$$

8) Yil davomida aholining umumiy ko‘payishi:

$$\Delta P = E + C ;$$

9) Aholining umumiy o‘sish koeffitsienti ( $K_u$ ) (promillda):

$$K_u = \frac{\Delta P}{P} 1000 ;$$

10) Tahlil qilinayotgan yil oxiriga yoki kelasi yil boshiga aholi soni bashorati ( $P_k$ ):

$$P_k = P_n + E + C ;$$

Mehnat resurslari mehnatga layoqatli yoshdagи hamda mehnatga layoqatli yoshdan kichik va katta yoshdagи ishlayotgan fuqarolardan tashkil topadi. Hozirgi vaqtда O‘zbekiston Respublikasi mehnat qonunchiligiga asosan mehnatga layoqatli yosh chegarasi erkaklar uchun 16-60; ayollar uchun 16-55 yosh hisoblanadi. Biroq odam organizmiga qattiq ta’sir etuvchi psixofiziologik omillar bilan bog‘liq ba’zi bir kasbiy faoliyat turlari uchun pensiyaga chiqish chegarasi 5-10 ba’zan undan ham ko‘proqqa qisqaradi. Bu noqulay og‘ir mehnat sharoitlari bilan bog‘liq ishlab chiqarishga (masalan konchilar) hamda yillar davomida “mehnat formasи”ni tutib turish imkoniyati yo‘qolishiga (masalan balet) tegishli.

Real hayotda ko‘pgina imtiyozli pensionerlar o‘z ishida yoki boshqa ishlarda mehnat qilishni davom ettiradilar, shu mehnat resurslari tarkibiga kiradilar. Ishlamaydiganlari esa ular tarkibidan chiqariladi. Mehnatga layoqatli yoshdagи odamlarning ma’lum qismini sog‘lig‘ining yomonligi tufayli hech qachon ishlamagan yoki ishlamay qo‘yanlar tashkil etadi. Ular I va II guruh nogironlari bo‘lib, ularni davlat pensiya bilan ta’minlaydi. SHunday qilib mehnat resurslari soni quyidagicha aniqlanadi:

$$MP = P_{ut} + P_{nec} + P_{men} + P_{scu} ;$$

Bu erda:  $P_{ut}$  – mehnatga layoqatli aholi soni;

$P_{nec}$  – I-II guruh nogironlari va imtiyozli pensionerlar;

$P_{neu}$  – pensiya yoshida ishlayotganlar;

$P_{pcu}$  – 16 yoshgacha bo‘lgan ishlayotgan o‘smirlar.

Mehnat resurslarining tabiiy ko‘payishi:

$$MP_t = P_k - P_n;$$

bu erda:  $P_k$  – mehnatga layoqatli yoshga to‘lganlar;

$P_n$  – mehnatga layoqatli yoshdan chiqqanlar.

Mehnat resurslarining migrantsion ko‘payishi hamda mehnat resurslari soni dinamikasining nisbiy ko‘rsatkichlari (umumiyligi, tibiyligi va mexanik ko‘payish koeffitsientlari) barcha aholi uchun o‘xshash ko‘rsatkichlarni hisoblash kabi aniqlanadi.

## 5-masala

Agar joriy yilda mintaqaning mehnat resurslari bo‘yicha quyidagi ma’lumotlar mavjud bo‘lsa, kelasi yilning boshida mehnatga layoqatli aholi sonini aniqlang: yil boshida mehnatga layoqatli aholi soni 70 mln. kishi; yil davomida mehnatga layoqatli yoshda o‘lganlar – 0,2 mln. kishi; ushbu yilda mehnatga layoqatli yoshga to‘lgan yoshlar – 2 mln. kishi; joriy yilda pensiya yoshiga etganlar – 1,6 mln. kishi.

## MASALANING ECHILISHI

Masala shartiga ko‘ra:

$$P_{n\bar{o}} = 70 \text{ млн}, \quad P_k = 2 \text{ млн}, \quad P_{neu} = 1,6 \text{ млн}$$

Kelasi yil boshiga aholi soni bashorati ( $P_k$ ) orqali belgilab, quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$P_k = P_n + E + C;$$

bu erda:  $E$  – Yil davomida mehnatga layoqatli aholining tabiiy o‘sishi (kamayishi);

$C$  – Yil davomida mehnatga layoqatli aholining mexanik (migrantsion) ko‘payishi (kamayishi).

$$E = P_k - P_n - P_{neu} = 2 \text{ млн} - 0,2 \text{ млн} - 1,6 \text{ млн} = 0,2 \text{ млн}$$

Masala shartiga ko‘ra, yil davomida mehnatga layoqatli aholining mexanik (migrantsion) ko‘payishi kuzatilmagan shu bois,  $C = 0$  bo‘lgani uchun, masala javobi quyidagicha bo‘ladi:

$$P_k = P_n + E + C; = 70 \text{ млн} + 0,2 \text{ млн} = 70,2 \text{ млн}$$

## 6-masala

Mintaqaning mehnatga layoqatli aholi soni 80 mln. kishini tashkil etadi, sh.j. ishlamaydigan I-II guruh nogironlar – 1,2 mln. kishi;

ishlaydigan o'smirlar-0,1 mln. kishi; ishlaydigan pensioner-lar – 4,5 mln. kishi. Mehnat resurslari sonini aniqlang.

## MASALANING ECHILISHI

Masala shartiga ko'ra:

$$P_{\text{мл}} = 80 \text{ млн} \text{ kishi}; P_{\text{ноч}} = 1,2 \text{ млн} \text{ kishi};$$

$$P_{\text{нен}} = 4,5 \text{ млн} \text{-kishi}; P_{\text{жсн}} = 0,1 \text{ млн} \text{ kishi};$$

$$MP = P_{\text{мл}} + P_{\text{ноч}} + P_{\text{нен}} + P_{\text{жсн}} = 80 + 1,2 + 4,5 + 0,1 = 85,8 \text{ млн}$$

### 7-masala

Mintaqa aholisi soni 120 ming kishini tashkil qiladi, bazis davrda aholining o'sish koeffitsenti-100 promill, mehnat resurslari ulushi – 50 %. Mehnat resurslarining aholi sonidagi ulushi o'zgarmagani holda rejalsashtirilayotgan davr boshiga aholi va mehnat resurslarining istiqboldagi sonini aniqlang.

## MASALANING ECHILISHI

Masala shartiga ko'ra:

$$P = 120 \text{ минг} \quad K_t = 100 \text{ промилл}$$

Davr boshiga aholi soni

$$P_n = 120 \text{ минг} \cdot 50\% = 60 \text{ минг}$$

$$K_t = \frac{E}{P} 1000; \Rightarrow E = (K_t \cdot P) / 1000 = (100 \cdot 120000) / 1000 = 1200$$

Mehnat resurslarining istiqboldagi soni:

$$P_k = P_n + E + C = 60 \text{ минг} + 1,2 \text{ минг} = 61,2 \text{ минг}$$

### 8-masala

Agar viloyatda mehnatga layoqatli aholi soni 750 ming kishi, mehnatga layoqatli yoshdagи I-II guruh nogironlar – 10 ming kishi, 16 yoshgacha bo'lган ishlovchi yoshlar – 15 ming kishi, mehnatga layoqatli yoshdan yuqori yoshda ishlovchilar – 55 ming kishi bo'lsa, mehnat resurslari sonini aniqlang.

## MASALANING ECHILISHI

Masala shartiga ko'ra:

$$P_{\text{мл}} = 7500 \text{ минг} \text{ kishi}; P_{\text{ноч}} = 10 \text{ минг} \text{ kishi};$$

$$P_{\text{жсн}} = 15 \text{ минг} \text{ kishi}; P_{\text{нен}} = 55 \text{ минг} \text{ kishi};$$

Mehnat resurslari sonini:

$$MP = P_{\text{aet}} + P_{\text{noe}} + P_{\text{neu}} + P_{\text{yem}} = 750 + 10 + 15 + 55 = 830 \text{ минг}$$

## MUSTAQIL BAJARISH UCHUN MASHQLAR

### 5-masala

Agar mintaqada joriy davr boshida mehnatga layoqatli aholi soni 1 mln. kishi; mehnatga layoqatli yoshga kiruvchi aholi soni 25 ming kishi; mehnatga layoqatli yoshdan chiqib ketuvchilar – 17 ming kishi; mehnatga layoqatli yoshdan o'lganlar – 5 ming kishi; mehnatga layoqatli yoshdag'i mexanik o'sish – 3 ming kishi bo'lsa, rejalashtirilayotgan davr oxirida mehnatga layoqatli aholi sonini aniqlang.

### 6-masala

Yil boshida mehnatga layoqatli yoshdag'i viloyat aholisi 1 mln. kishini tashkil qilgan, pensiya yoshidagi va 16 yoshgacha bo'lgan ishlovchilar soni 35 ming kishidan iborat. Yil davomida mehnatga layoqatililar tarkibida quyidagi o'zgarishlar yuz berdi: 260 ming kishi mehnatga layoqatli yoshga to'lgan; 65 ming kishi boshqa viloyatlardan ko'chib kelgan; pensiya yoshida ishlovchilar 20 ming kishi; pensiya yoshiga, nogironlikka o'tganlar va o'lganlar 150 ming kishi; 15 mingta pensioner ishlashdan to'xtagan; mehnatga layoqatli 75 ming kishi boshqa hududlarga ko'chib ketgan. Yil boshi va oxirida mehnat resurslari sonini; mehnat resurslarining umumiyligi va mexanik o'sishni hamda mos ravishda mehnat resuslari harakati koeffitsentlarini hisoblang.

### 7-masala

Viloyatda aholining umumiyligi o'sish koeffitsenti 10 promill, aholining umumiyligi sonidagi mehnat resurslari ulushi bazis davriga nisbatan 0,01 punktga pasayishi. rejalashtirilayotgan davr boshida aholi soni 10 mln.kishi, mehnat resurslari – 6 mln.kishini tashkil qilgani holda hudud bo'yicha mehnat resusrslarining istiqboldagi sonini hisoblang.

### 8-masala

Mintaqaning mehnatga layoqatli aholi soni yil boshida 1 mln. kishi; mehnatga layoqatli yoshga to'lganlar 30 ming kishi; shu yoshlardagi o'lganlar 5 ming kishi; mehnatga layoqatli yoshdan oshganlar 35 ming kishi; boshqa hududlardan kelganlar 350 ming kishi; ketganlar – 100 ming kishi bo'lsa yil oxirida hududda mehnatga layoqatli yoshdag'i aholi sonini aniqlang.

## **5-bob. O'ZBEKISTON MINTAQALARIDA SANOAT TARMOG'INI RIVOJLANTIRISHNING HUDUDIY JIHATLARI**

### **Uslubiy ko'rsatma**

Tarmoqlar orasida asosiy bo'g'in sanoatning ishlab chiqarish majmuasi hisoblanadi. Sanoat majmuasiniq muhim xususiyati shundaki, uning barcha tarmoqlarida mehnat vositalari va iste'mol tovarlari, milliy daromadning katta qismi yaratiladi, ilmiy-texnika taraqqiyotiga erishiladi. Ayni paytda O'zbekistondagi mehnatga yaroqli aholining asosiy qismi ham sanoat ishlab chiqarishida band. Ijtimoiy mehnat unumdarligi moddiy ishlab chiqarishda band bo'lgan bitta ishlovchiga to'g'ri keladigan milliy daromad o'lchovi bilan baholanadi. Hisob-kitoblarni mutlaq va nisbiy o'lchovlarda amalga oshirish mumkin.

Individul mehnat unumdarligi –  $I_{MY}$  vaqt birligida (soat, smena, oy, kvartal, yil) ishlab chiqarilgan mahsulot soni (ishlar hajmi) bilan o'lchanadi, shuningdek, ish yoki mahsulot birligini ishlab chiqarish uchun sarflangan vaqt orqali(kishi -soat, kishi- smena) ham aniqlanadi. Birinchi holatda mehnat unumdarligi mahsulot ishlab chiqarish o'zgarishini, ikkinchisida esa mahsulot mehnat sarfini bildiradi. Birinchi va ikkinchi ko'rsatkichlar o'rtasida teskari mutanosib bog'liqlik mavjud.

Amaliy hisob-kitoblarda mehnat unumdarligi o'zgarishi indeksi – ( $I_{Mu}$ ) mehnat sarfi indeksi –  $I_{M_s}$  ga teskari o'lchov sifatida aniqlanadi:

$$I_{MY} = \frac{1}{I_{M_s}}; \text{ va aksi } I_{M_s} = \frac{1}{I_{MY}}$$

Foizlardagi hisob-kitoblarda ( $a$ - mehnat unumdarligi,  $b$  -mehnat sarfi) quyidagilardan foydalaniladi:

$$A = \frac{b \cdot 100}{100 - b} \quad B = \frac{a \cdot 100}{100 + a}$$

Vaqt birligida mahsulot ishlab chiqarish ham mahsulot hajmi kabi ko'rsatkichlarda: natural, shartli- natural, mehnat va qiymat birliklarida o'lchanadi. Hisob-kitoblarni amalga oshirishda quyidagilarga e'tibor berish zarur:

Vaqt miqyosi bir xil bo'lishi kerak. Masalan, 7 soatlik ish kuni qabul qilingan bo'lsa, davomiyligi boshqacha bo'lgan ish kunlarini 7 soatlikka hisob-kitoblar orqali keltirish mumkin.

Mehnat unumdarligi shartli-natural usulda o'lchanganda, mahsulotning boshqa qandaydir xususiyatlari ko'ra emas, balki normativ mehnat salmog'ini hisobga olgan holda amalga oshirish zarur.

Natural ko'rsatkichlarni nisbiy normativ mehnat sarfi koef-fitsienti orqali shartli-natural ko'rinishga keltirilganda o'lchov birligi sifatida eng kam mehnat sarfiga ega bo'lgan mahsulotni qabul qilish tavsiya etiladi.

Qiymat usulidan foydalanib mehnat unumdorligini aniqroq o'lchash uchun doimiy o'zgaruvchan tarkibiy indekslar va tuzilmaviy o'zgarishlar hisoblanadi. O'zgaruvchan tarkib indeksi hisobot davrida ishlab chiqarilgan mahsulotni ( $V_1$ ) bazis davridagi ko'rsatkich bilan ( $V_0$ ) solishtirish orqali aniqlanadi. Mazkur ko'rsatkich mahsulot assortimentigina emas, balki uning material talabligi tarkibidagi o'zgarishlarning ta'siri ostida bo'ladi.

Ushbu ta'sirlarni bartaraf etish uchun doimiy tarkibning indeksi mehnat unumdorligi xususiy indekslarining o'rta hisobdagagi arifmetik ko'rsatkichi sifatida hisoblanib chiqarilsa, ushbu xususiy indekslar xodimlarning soni yoki hisobot davridagi ishlangan vaqt bo'yicha hisoblangan bo'ladi.

Xususiy indekslar korxonaning bo'linmalari bo'yicha yoki aniqrog'i taqqoslanadigan mahsulot va ishning ayrim turlari bo'yicha hisoblab chiqariladi.

### **3-masala**

Reja bo'yicha mahsulot hajmi 2000 dona, hisobot bo'yicha 2200 dona, mehnat sarflari reja bo'yicha 400 kishi-smena, haqiqatda 423 kishi-smena. Mehnat unumdorligi o'sishini ishlab chiqarish va mehnat sarfi bo'yicha hisoblash kerak.

## **MASALANING ECHILISHI**

Mehnat unumdorligining o'sishi 1 kishi-smenadagi mahsulot ishlab chiqarishning o'zgarishi bo'yicha aniqlanadi ya'ni,  $MY = \frac{Q_2 / M_{2c}}{Q_1 / M_{1c}}$  formula orqali topiladi:  $MY = \frac{Q_2 / M_{2c}}{Q_1 / M_{1c}} = \frac{2200 / 423}{2000 / 400} = 104\%$  demak, ishlab chiqarish rejaga nisbatan 104 %ni tashkil qilgan.

Mahsulot ishlab chiqarishga ketgan mehnat sarfini 3,85 %  $(M_c = \frac{M_{2c} / Q_2}{M_{1c} / Q_1} = \frac{423 / 2200}{2000 / (400 \cdot 100)} = \frac{0,1923}{0,05} = 3,85)$  ga nisbatan quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$M_c = \frac{M_{2c} / Q_2}{M_{1c} / Q_1}$$

$$M_c = \frac{M_{2c} / Q_2}{M_{1c} / Q_1} = \frac{423 / 2200}{400 / 2000} = \frac{0,1923}{0,2} = 0,9615$$

Mehnat sarfining pasayishi bo'yicha o'lchangan mehnat unumdorligining o'sishi o'sha yuqorida ko'rsatilganidek, 4 %ni tashkil qilgan ya'ni,

$$MV = \frac{1}{0,9615} = 1,04 \text{ yoki } MV = \frac{M_{1c}/Q_1}{M_{2c}/Q_2} = \frac{400/200}{423/2200} = 1,04$$

#### 4-masala

Korxonada uch turdag'i №1, №2 va №3 mahsulotlar ishlab chiqaradi va har bir mahsulotdan yuqorida keltirilgan tartibda reja asosida 100, 250 va 760 dona haqiqatda esa 120, 225 va 820 dona mahsulot ishlab chiqarilgan bo'lib, bitta mahsulotning mehnat sarfi 20, 15 va 5 norma-soyatga teng. Ushbu keltirilgan ma'lumotlar asosida mehnat unumdorligi o'sishini shartli-natural ko'rsatkich-larda aniqlang. (Ishlovchilar soni o'zgarmaydi).

### MASALANING ECHILISHI

O'lchov birligi sifatida minimal mehnat sarfiga ega bo'lgan №3 – mahsulot qabul qilinadi. SHunda shartli-natural o'lchovda mahsulot ishlab chiqarish ko'rsatkichlari qayidagicha bo'ladi:

$$\text{Reja: } 100 \cdot \frac{20}{5} + 250 \cdot \frac{15}{5} + 750 \cdot \frac{5}{5} = 400 + 650 + 760 = 1910 \text{ dona}$$

$$\text{Hisobot: } 120 \cdot \frac{20}{5} + 225 \cdot \frac{15}{5} + 820 \cdot \frac{5}{5} = 480 + 675 + 820 = 1975 \text{ dona}$$

Ishlovchilar soni o'zgarmaganligi uchun mahsulot ishlab chiqarishning oshishi mehnat unumdorligining o'sishiga proporsional:

$$MV = \left( \frac{Q_h}{Q_r} - 1 \right) \cdot 100$$

bu erda:  $Q_h$  – hisobot bo'yicha ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi,

$Q_r$  – reja bo'yicha ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi

$$MV = \left( \frac{Q_h}{Q_r} - 1 \right) \cdot 100 = \left( \frac{1975}{1910} - 1 \right) \cdot 100 = (1,034 - 1) \cdot 100 = 3,4 \%$$

#### 3-masala

Uskunani yangisiga almashtirilgandan so'ng mahsulotning birligiga ketadigan mehnat sarfi 18 % kamaydi. Mehnat unumdorligi oshishi imkoniyatini aniqlang.

### MASALANING ECHILISHI

Berilgan masalani echishda  $MV = \frac{M_s \cdot 100}{100 - M_s}$  formuladan foydalanamiz.

bu erda:  $MV$  – mehnat unumdorligi;

$M_s$  – mehnat safi;

$$MV = \frac{18 \cdot 100}{100 - 18} = \frac{1800}{82} = 21,95 \%$$

Indeks usuli bilan hisoblanسا:

$$MV = \frac{I_{MV}}{I_r}; \quad MV = \frac{100}{100 - 18} = \frac{100}{82} = 1,2195$$

#### 4-masala

Yangi texnologiyaning joriy qilinishi bilan 1000 so'm tovar mahsulotining mehnat sarfi ( $t$ ) 210dan 186 kishi soatga kamaydi. Mehnat unumdorligi o'sishini va mehnat sarfi kamayishini hisoblang.

### MASALANING ECHILISHI

Berilgan masala shartidan kelib chiqqan holda quyidagi formuladan foydalananamiz

$$MV = \frac{M_s}{I_r} \cdot 100 - 100; \quad MV = \frac{210}{186} \cdot 100 - 100 = 112,9 - 100 = 12,9 \%;$$

$$M_s = 100 - \frac{186}{210} \cdot 100 = 100 - 88,57 = 11,43\% \text{ yoki } 2-\text{usul}, \text{ ya'ni } 100 / (100 + \epsilon)$$

$$\text{formulasi bilan hisoblaganda } M_s = \frac{MV \cdot 100}{100 + MV} = \frac{12,9 \cdot 100}{100 + 12,9} = 11,43\%$$

#### 5-masala

Mintaqa korxonalarida tashkiliy texnik chora-tadbirlar rejasiga amalga oshirilganda «A» mahsulotning(12000 dona ishlab chiqariladi) mehnat sarfi 12 dan-10,2 norma soatga kamaygan, «B» mahsulotning (750 dona ishlab chiqariladi) mehnat sarfi 56 dan 48 norma soatgacha, «V» mahsulotniki (495 dona) 124 dan 117 norma-soatgacha kamaygan. Korxonaning barcha mahsulotlar bo'yicha ishlab chiqarishning mehnat sarfi bazaviy sharoitlar bo'yicha 124000 norma-soatni tashkil qilgan edi. Mehnat unumdorligi o'sishini aniqlang.

### MASALANING ECHILISHI

Mehnat sig'imi kamayishining umumiy yig'indisi me'yor-soatda:

$$M_c = 12000 \cdot (12 - 10,2) + 750 \cdot (56 - 48) + 495 \cdot (124 - 117) = 31065$$

$$MV = \frac{31065 / 100}{1240000 - 31065} = 2,6 \%$$

## **MUSTAQIL BAJARISH UCHUN MASHQLAR**

### **2-masala**

Mamlakat milliy iqtisodiyotida milliy daromadlar 4,2 % o'sgan, moddiy ishlab chiqarishda ish bilan bandlar soni esa 0,6 %ga oshgan. Mazkur yil uchun ijtimoiy mehnat unumdorligi qanchaga oshganligini aniqlang.

### **2-masala**

30 yilda milliy daromad 6 marta o'sdi, aholi soni 24 %ga oshdi, moddiy ishlab chiqarishda band bo'lgan aholining umumiyligi aholi sonidagi ulushi 10 %ga qisqardi. Ijtimoiy mehnat unumdorligi necha foiz o'sdi.

### **3-masala**

5 yil davomida milliy daromad 290 dan 375 mlrd. so'mgacha o'sdi, bu vaqt davomida mehnatga layoqatli aholi soni 153,4 dan 170 mln. kishigacha o'sdi. Moddiy ishlab chiqarishda band bo'lganlar salmog'i 76,9 foizdan 75 foizga tushdi. Berilgan davrda ijtimoiy mehnat unumdorligi qanchaga o'sdi?

### **4-masala**

Agar milliy daromad yaratishda band bo'lgan mehnatga yaroqli aholi soni 9,5 mln. dan 9,3 mln. kishiga kamaygan bo'lsa, yaratilgan milliy daromad hajmi joriy davrda 9664100 mln. so'mdan 9872100 mln. so'mga ko'paygan bo'lsa (shu davrda baholar 120 % o'sgan), shu davr mobaynida ijtimoiy mehnat unumdorligi o'zgarishini aniqlang.

### **5-masala**

Agar milliy daromad 2048,4 dan 2233,1 mlrd. so'mgacha oshsa (narx 120 %ga o'sgan bo'lsa), mehnatga layoqatli aholi sonidan, moddiy ishlab chiqarishda bandlar 8,5 mln. kishidan 7,3 mln. kishigacha kamaysa, ijtimoiy mehnat unumdorligi qanchaga o'zgargan?

## 6-bob. MINTAQALARDA IQTISODIY–HUDUDIY IXTISOSLASHUV

### Uslubiy ko‘rsatma

Ixtisoslashtirish – tushunchasi bu turli mintaqalarda bir xil nomdag'i yoki o‘zaro o‘rnini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarilishining eng o‘zaro foydali hududlarga nisbatan iqtisodiy chegaralarini aniqlashdir.

SHuni alohida ta'kidlash lozimki, ixtisoslashgan hududlarda ishlab chiqarilgan mahsulotlarni sotishda ularning iqtisodiy samaradorligini oshirishda optimal variantlarni aniqlash lozim bo‘ladi. Bunda mazkur yoki boshqa hududlarda ishlab chiqariladigan mahsulotlarni tarqatadigan optimal hududlarning chegaralarini bu mahsulotni ishlab chiqarish va tashish xarajatlari turli kattalikda bo‘lgan punktlarga mos kelishi ko‘zda tutiladi.

Mahsulotlarni maqsadga muvofiq sotish hududlarini aniqlash nazariy jihatdan quyidagi iqtisodiy matematik tenglama bilan asoslab beriladi:

$$Q_1 + X \cdot T_p = Q_2 \cdot (M - X) \cdot T_p$$

Bu erda:  $X$  – mazkur hududda ishlab chiqarilgan mahsulotni tashish uzoqligining oxirgi chegarasi;

$Q_1$  va  $Q_2$  – mazkur v boshqa hududlarda ishlab chiqarilgan mahsulot birligining tannarxi;

$T_p$  – mahsulot birligini 1 km ga tashish tannarxi (1 t/km xarajatlari);

$M$  – ishlab chiqarish punktlari o‘rtasidagi masofa.

YUqoridagi tenglamaga muvofiq mazkur hudud mahsulotini tashishning oxirgi (maqsadga muvofiq) radiusi quyidagi formulada hisoblab chiqiladi:

$$X = \frac{Q_2 + M_T - Q_1}{2T_p}$$

Albatta berilgan bu echim juda soddalashgan xarakterga ega. Amaliyotda boshqa bir qator jumladan, ma'lum hududlarning ehtiyojlarini qoplash uchun ishlab chiqarish quvvatlarining etishmasligi, aksincha, ortiqchaligi, aloqa yo'llarining mavjudligi va holati, turli transport turlarida mahsulotlarni tashish qiymati kabi boshqa omillar ham hisobga olinadi. SHu sababdan ana shunday xildagi masalalarni amalda zamonaviy matematik metodlar, xususan, chiziqli dasturlash metodlarini qo'llash asosida echishga to‘g‘ri keladi.

Xo‘jalik tarmoqlarini ixtisoslashgan yoki xizmat ko‘rsatadigan tarmoqlar kategoriyasiga kiritishning me’zonlari bo‘lib turli ko‘rsatkichlar xizmat qiladi. SHu maqsadlarda foydalaniladigan ko‘rsatkichlarning xilma-xilligi sharoitida ularning har biri u yoki bu darajada hududiy ishlab

chiqarishning qandaydir ikki tomonidan birini ifodalaydi, ya’ni ishlab chiqarish va ayirboshlash. Ishlab chiqarish tomoni tarmoqning mamlakat miqyosida mintaqada rivojlanish darajasini ta’riflaydi. Jumladan, hududning ixtisoslashishi, tarmoq bo‘yicha mamlakatdagi salmog‘ini, umumiy mamlakat aholisidagi salmog‘iga nisbatini belgilaydi.

$$K_i^r = \frac{U_i^r + A}{U_i^r + A'}$$

bu erda:  $K_i^r = r$  – hududdagi ( $r = 1, 2, 3, \dots, n$ )  $i$  – tarmoqning ( $i = 1, 2, 3, \dots, m$ ) ixtisoslashish koeffitsienti;

$U_i^r - r$  – hududdagi  $i$  – tarmoq ishlab chiqarishining hajmi;

$U_i - i$  – tarmoqning ishlab chiqarishini umuman mamlakat bo‘yicha hajmi;

$A' - r$  – hududdagi aholi soni;

$A$  – butun mamlakatning umumiy aholisi soni;

$K$  – ko‘rsatkichi birga teng yoki birdan katta bo‘lganda ( $K_i^r / U_i$ ) tarmoqlar ixtisoslashgan tarmoqlar bo‘ladi yoki hududning ixtisoslashishi lokalizatsiya koeffitsienti orqali hududning tarmoq bo‘yicha mamlakatdagi salmog‘ini mamlakatning barcha sanoatidagi (qishloq xo‘jaligi v.b.) hudud salmog‘iga nisbati sifatida aniqlanadi:

$$K_i^r = \frac{U_i}{U}$$

bu erda:  $U_i - i$  – hududdagi barcha sanoat (qishloq xo‘jaligi) mahsulot ishlab chiqarish hajmi;

$U$  – umuman mamlakat bo‘yicha barcha sanoat (qishloq xo‘jaligi) mahsuloti ishlab chiqarish hajmi.

Ixtisoslashishning ayirboshlash tomonini tarmoqning hududiy ayirboshlashda, ya’ni ishlab chiqarilgan mahsulotni olib ketishda qatnashishi darajasi ta’riflaydi. SHu maqsadda hududlararo tovarlilik koeffitsienti  $-a_i^r$  ko‘rsatkichlaridan foydalilanadi. Bu ko‘rsatkich mahsulotni sof chiqarishning, ya’ni boshqa hududlardan ana shunday mahsulot olib kelishni chiqarib tashlab, mazkur hududda uni ishlab chiqarishning umumiy hajmiga nisbati sifatida aniqlanadi:

$$a_i^r = \frac{f_i^r - I_i^r}{X_i^r}$$

bu erda:  $a_i^r - i$  – tarmoqning ( $i = 1, 2, 3, \dots, m$ ),  $r$  – hududdagi ( $r = 1, 2, 3, \dots, n$ ) –hududlararo tovarlilik koeffitsienti;

$f_i^r - i$  – tarmoqning  $r$  – hududdan mahsulotni olib chiqishi;

$I_i^r - r$  – hududga  $i$  – tarmoq mahsulotini olib kelish;

$X_i' = r$  – hududda  $i$  – tarmoq ishlab chiqarishi hajmi.

Formulaga muvofiq ixtisoslashgan tarmoqning  $a$  koeffitsienti 0,5 dan yuqori ( $a'_i > 0,5$ ) ko‘rsatkichga bo‘ladi.

### 1-masala

Angrenda ishlab chiqarilayotgan ko‘mirning tashish tannarxi 800 tn/km, Farg‘onada ishlab chiqarilayotgan sementning tashish tannarxi 650 tn/kmni tashkil etadi. Agar ikki hududda mahsulot ishlab chiqarish hajmi mos ravishda 5 ming tonna ko‘mir va 12 ming tonna sement bo‘lsa, ushbu hududlardagi mahalliy ehtiyojlarni qondirish uchun harakat masofasini toping.

### MASALANING ECHILISHI

$$M = \frac{Q_1 + X_1 \cdot T_{p1} + Q_2 \cdot X_2 \cdot T_{p2}}{Q_2 T_{p2}} = \frac{5 + 310 \cdot 800 + 12 \cdot 315 \cdot 650}{12 \cdot 650} = \\ = \frac{248000 + 2457000}{780} = 3468 \text{ km}$$

### 2-masala

Mintaqani ixtisoslanganlik koffitsentini aniqlang. Hududda ishlab chiqarilgan yalpi mahsulot 6,5 mlrd. so‘m. Mamlakat yalpi ichki mahsulot 13 mlrd. so‘mga teng.

### MASALANING ECHILISHI

Masala shartiga ko‘ra,  $U_i = 6,5$  mlrd. so‘m;  $U = 13$  mlrd. so‘m

$$K'_i = \frac{U_i}{U} = \frac{6,5}{13} = \frac{1}{2} = 0,5$$

### 3-masala

Mintaqada yalpi mahsulot ishlab chiqarish hajmi 4,5 mlrd. so‘m. Mintaqada ishlab chiqarilgan mahsulotning 2,5 mlrd. so‘m miqdoridagisi qo‘shni hududlarga tarqatilib, mahalliy iste’mol uchun 1,5 mlrd. so‘mlik mahsulot hududga olib kiriladi. Masala shartidan kelib chiqqan holda, hududlararo tovarlilik koeffitsientini aniqlang.

### MASALANING ECHILISHI

Masala shartiga ko‘ra,  $Q'_i = 4,5$  mlrd. so‘m;  $f'_i = 2,5$  mlrd. so‘m;  $I'_i = 1,5$  mlrd. so‘m;

$$a'_i = \frac{f'_i - I'_i}{Q'_i} = \frac{2,5 - 1,5}{4,5} = \frac{1}{4,5} = 0,15$$

## **MUSTAQIL BAJARISH UCHUN MASHQLAR**

### **1-masala**

Mintaqada ishlab chiqarilayotgan birinchi mahsulot hajmi 24 mln. so‘mga teng. O‘rin bosuvchi mahsulot 36 mln.ga teng bo‘lib, ushbu mahsulotlarning hududlararo 58 km.ga teng bo‘lgan masofaga tashish tannarxi 200 tn/km. Hudud mahsulotini tashishning oxirgi (maqsadga muvofiq) radiusini aniqlang.

### **2-masala**

Mamlakat miqyosida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 21 mlrd. so‘mga teng bo‘lib, mintaqada ushbu ko‘rsatkich 48 mln. so‘mni tashkil etadi. Mamlakat aholisining 42 foizi ushbu mintaqada qishloq xo‘jaligida faoliyat yuritishi ma’lum bo‘lsa, hududning ixtisoslashishi, koeffitsientini aniqlang.

### **3-masala**

Hududda ishlab chiqarilgan yalpi mahsulot 3,1 mln. so‘mga teng. Ishlab chiqarilgan tovar mahsulotning 1,5 qismi (0,5 mlrd. so‘m) shu mamlakat ichida iste’mol qilinishi aniq bo‘lsa, mintaqaning ixtisoslanganlik koeffitsientini aniqlang:

## **7-bob. MINTAQALARDA KOMMUNIKATSIYA MAJMUASI**

### **Uslubiy ko'rsatma**

O'zbekistonda hozirgi zamон transportining barcha asosiy turlari mayjud. Jumladan, temir yo'l va avtomobil yo'li, havo va daryo, quvur va elektr transportlari rivojlangan.

Transport hududlar uchun katta ahamiyaga ega. Transportning hududiy xususiyatlari shunday unda asosiy e'tibor avtomobil transportiga karatilganligidan iborat.

Albatta, texnika vositasidan foydalanilar ekan. Uning eskirishi yuzaga keladi. Har bir davr uchun amortizatsion chegirmalar summasi amortizatsiyalanadigan qiymatni (ob'ektning boshlang'ich qiymatidan uning qoldiq qiymati ayirmasi) ob'ektni ekspluatatsiya qilishning hisobot davri soniga bo'lish orqali hisoblanadi. Amortizatsiya normasi doimiy hisoblanadi.

### **1-masala**

Ishlab chiqarish korxonasi faoliyatini rivojlantirish maqsadida yuk mashinasi sotib olish ko'zda tutilgan. Sotib olinadigan yuk mashinasining boshlang'ich qiymati 10 mln. so'm, uning besh yil muddatli ekspluatatsiyasi oxiridagi qoldiq qiymati – 1 mln. so'm. Mashinaning amortizatsiya qiymatini ishlab chiqarish va tezlash-tirilgan hisobdan chiqarish usullari orqali aniqlang.

### **MASALANING ECHILISHI**

Masala shartiga ko'ra, har yillik amortizatsiya summasi amortizatsiyalanadigan qiymatning 20 %ni tashkil qiladi yoki to'g'ri chiziqli hisobdan chiqarish usuliga binoan 1800 so'mni tashkil etadi. Bu hisoblar quyidagicha bajariladi;

$$\frac{\text{Бошлангичкимат} - \text{колдиккимат}}{\text{Хизматкилиши муддати}} = \frac{10000 - 100}{5} = 1800$$

**1-usul.** Bu usul amortizatsiya (eskirish) faqat ekspluatatsiya natijasidir va uni hisoblash jarayonida vaqt davrlari ahamiyat kasb etadi.

**Masala shartining qo'yilishi:** Sotib olingan yuk mashinasi, ma'lum miqdorda operatsiyalar bajara oladi, uning yurish hajmi (probeg) 90000 km. hisoblangan. U holda amortizatsiya xarajatlari har bir km. uchun quyidagicha aniqlanadi:

$$\frac{\text{Бошлангич киймат} - \text{колдик киймат}}{\text{Тахмин. килинаётган ишлар хажми}} = \frac{10000 - 100}{90000} = 0.10 \text{ хар бир км.. учун}$$

Agar ekspluatatsiyaning birinchi yilda yuk mashinasasi 20000 km. yurgan, ikkinchi yil – 30000, uchinchi yil – 10000, to’rtinchi yil – 20000 va beshinchi yil 10000, unda amortizatsiya hisobi jadvali quyidagi ko’rinishda baladi (1-jadval).

### 1-jadval

#### Ishlab chiqarish usuli orqali hisoblangan amortizatsiya chegirmalari summasi

(ming so’m hisobida)

Ishlatilish muddati	Boshlang’ich qiymati	YUrishi, km	Yillik amortizatsiya summasi	Jamg’argan amortizatsiya	Balans qiymati
Xarid qiymati	10000	-	-	-	10000
1 yil oxiri	10000	20000	2000	2000	8000
2 yil oxiri	10000	30000	3000	5000	5000
3 yil oxiri	10000	10000	1000	6000	4000
4 yil oxiri	10000	20000	2000	8000	2000
5 yil oxiri	10000	10000	1000	9000	1000

Bu usulga muvofiq har bir ob’ektning taxmin qilinayotgan foydali xizmat muddatini aniqlashda qo’llaniladigan ish yoki foydalanish birligi ma’lum aktivlarga mos kelishi lozim.

### 2-usul. Tezlashtirilgan hisobdan chiqarish usullari

Bu usul o’zi 2 usulda hisoblanadi:

#### a) sonlar yig’indisi bo’yicha qiymatni hisobdan chiqarish usuli.

Bu usul qandaydir ob’ektning xizmat qilish yillari summasi orqali aniqlanadi va bu summa hisoblash koeffitsientida maxraj bo’lib xizmat qiladi. Bu koeffiencientning sur’atida ob’ektning xizmat muddati oxirigacha qolgan yillar soni turadi.

**Masala shartining qo'yilishi:** YUk mashinasining taxmin qilinayotgan foydali xizmat muddati 5 yil. Foydalanish yillari summasi - 15 yil bo’lib uni quyidagi kumulyativ sonlar tarzida aks ettirish mumkin bo’ladi:

$$1+2+3+4+5=15$$

So’ngra, har bir kasrni 9000 ga (10000 – 1000) teng bo’lgan amortizatsiyalaridan qiyomatga ko’paytirish yo’li orqali har yillik amortizatsiya summasi aniqlanadi: 5/15, 4/15, 3/15, 2/15, 1/15 (2-jadval).

## 2-jadval

### Sonlar yig'indisi bo'yicha qiymatni hisobdan chiqarish usuli orqali hisoblangan amortizatsiya chegirmalari summasi

(ming so'm hisobida)

Ishlatilish muddati	Boshlangich qiymat	Yillik amortizatsiya summasi	Jamlangan amortizatsiya	Balans qiymati
Xarid qiymati	10000			10000
1 yil oxiri	10000	(5/15x9000)=3000	3000	7000
2 yil oxiri	10000	(4/15x9000)=2400	5400	4600
3 yil oxiri	10000	(3/15x9000)=1800	7200	2800
4 yil oxiri	10000	(2/15x9000)=1200	8400	1600
5 yil oxiri	10000	(1/15x9000)=600	9000	1000

Jadvaldan ko'rinish turibdiki, eng katta amortizatsiya summasi birinchi yilda hisoblanadi, keyin yilma-yil u kamayadi, jamlangan amortizatsiya kam-kam ortib boradi, balans qiymati qoldiq qiymatga etib bormagunicha har yili amortizatsiya summasiga kamayib boradi.

**b) Kamayib boruvchi qoldiq usuli.** Ushbu usul sonlar yig'indisi usuli tamoyillariga asoslangan. Bu usulda har qanday qat'iy stavka qo'llanilishi mumkin bo'lsa ham, ammo ko'pincha to'g'ri chiziqli usulda foydalangan normal stavkaga nisbatan ikki karra ko'paytirilgan me'yor qo'llaniladi. Bu jarayon ikkilangan amortizatsiyada kamayib boruvchi qoldiq usuli deb ataladi.

**Masala shartining qo'yilishi:** Kamayib boruvchi qoldiq usulida hisobdan chiqarishning ikkilangan me'yorida amortizatsiya me'yori 40 % (2x20 %)ga teng bo'ladi. Qayd qilingan ushbu 40 % har yil oxirida balans qiymatiga ko'paytiriladi. Amortizatsiyani hisoblashda taxmin qilinayotgan qoldiq qiymati, oxirgi yildagisi-dan tashqari hisobga olinmaydi (3-jadval).

## 3-jadval

### Kamayib boruvchi qoldiq usuli orqali hisoblangan amortizatsiya chegirmalari summasi

(ming so'm hisobida)

Ishlatilish muddati	Boshlang'ich qiymat	Yillik amortizatsiya summasi	Jamlangan amortizatsiya	Balans qiymati
Xarid qiymati	10000	-		10000
1 yil oxiri	10000	(40%x10000)=4000	4000	6000
2 yil oxiri	10000	(40%x6000)=2400	6400	3600
3 yil oxiri	10000	(40%x3600)=1440	7800	2160
4 yil oxiri	10000	(40%x2160)=864	8704	1296
5 yil oxiri	10000	1296-1000=296	9000	1000

SHuni alohida ta'kidlash lozimki, amortizatsiya qaysi usulda hisoblanmasin, u o'z qiymatini o'zgartirmaydi. Ammo yillik amortizatsiya summasining faqatgina yillik qiymati o'zgarishi mumkin. SHunda ham umumiy to'lov qiymati o'zgarmaydi.

## MUSTAQIL BAJARISH UCHUN MASHQLAR

### 1-masala

Korxonada dastgohlar ishini masofadan nazorat va hisob qiluvchi dispatcherlik qurilma ishlatala boshlandi. Bu yangilik ish vaqtining yo'qolishini 10 dan 2 gacha kamaytiradi. Agar korxonadagi ishchilar 150 kishi, bitta ishchining o'rtacha yillik maoshi 1,2 mln so'm, bitta ishchining bir yillik foydali ish vaqtি 1840 soat, o'zgarmas qo'shimcha xarajatlar ishchilar maoshining 200 %ini tashkil qilishi ma'lum bo'lsa, ishchilarning maoshi va shartli o'zgarmas qo'shimcha xarajatlarni iqtisod qilishdan keladigan yillik samara miqdorini aniqlang.

### 2-masala

Korxona bir birlik mahsulot ishlab chiqarish uchun 30 ming so'm xarajat qiladi. Va uni 40 ming so'mga sotadi. Korxona bir kunda 300 ta mahsulot ishlab chiqarish imkoniyatiga ega. Korxona modernizatsiya qilinishi bilan mahsulot ishlab chiqarishi 20 %ga ortib, xarajat 10 %ga sotuv narxi ham 5 %ga kamaydi. Korxonaning umumiy tushumi o'zgarishini aniqlang.

## **8-bob. MINTAQALAR MOLIYACI VA UNI TARTIBGA SOLISH**

### **Uslubiy ko'rsatma**

Hududiy moliya davlat moliya tizimining muhim tarkibiy qismi bo'lib, u turli darajadagi (viloyat, tuman, shahar) mahalliy byudjetlar, nobyudjet fonlari, mintaqal ehtiyojini qondirish uchun sarflanadigan xo'jalik sub'ektlarining moliyaviy vositalaridan iborat. Hududiy moliya aholiga ijtimoiy-madaniy va kommunal-maishiy xizmat ko'rsatish bilan bog'liq tadbirlarni moliyalashtirish bilan shug'ullanadi. SHunday qilib, hududiy moliya - hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi jarayonida milliy daromadni taqsimlaydigan va qayta taqsimlaydigan iqtisodiy munosabatlar tizimidir.

Moliya – pul mablag'larining harakati, ya'ni ularning shakllanishi, taqsimlanishi va foydalanilishi bilan bog'liq ravishda vujudga keladigan munosabatlar.

Moliya tizimi – moliyaviy munosabatlar va turli darajada ularga xizmat qiluvchi moliyaviy muassasalardir.

Davlat byudjeti – davlat xarajatlari va ularni moliyaviy ta'minlash manbalarining tartiblashtirilgan rejasи.

Soliqlar – jamiyatda vujudga keltirilgan sof daromadning bir qismini byudjetga jalb qilish shakli.

Soliq stavkasi – soliq summasining soliq olinadigan summaga nisbatining foizdagi ifodasi.

### **1-masala**

Mintaqa iqtisodiyotida iste'mol xarajatlari –  $S = 2500$ , modernizatsiyalashni amalga oshirishga qilingan investitsiyalar –  $I = 750$ , davlat xarajatlari –  $G = 850$ , transfert to'lovleri –  $TR = 150$ , davlat qarzi bo'yicha foiz to'lash –  $N = 100$  va soliqlarlarga to'lovlar –  $T = 750$  pul birligiga teng bo'lsa, aholining shaxsiy jamg'armalari, davlat jamg'armalari aniqlansin. SHuningdek, agar defitsit obligasiyalar chiqarish bilan 80 %ga moliyalashtirilishi ma'lum bo'lsa, davlat byudjeti defitsitini qoplash uchun chiqarilgan davlat obligasiyalarini qiymati va qo'shimcha pul miqdori qanchaga teng bo'lishi kerak.

### **MASALANING ECHILISHI**

SHaxsiy jamg'armalar quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$S_p = (Y + TR + N - T) - C, \quad Y = C + I + G$$

$$Y = 2500 + 750 + 850 = 4100$$

$$S_p = (4100 + 150 + 100 - 800) - 2500 = 1000$$

Davlat jamg'armalari quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$S_s = T - TR - G - N$$

$$S_s = 850 - 150 - 750 - 100 = -250$$

Davlat jamg'armalarining salbiy belgisi davlat byudjeti defitsiti mavjudligini anglatadi:  $BD = S_s = -250$

Defitsit 80 % obligasiyalar chiqarish bilan moliyalashtiriladi, ya'ni:

$$\Delta B = 0,8 \cdot BD \quad \Delta B = 0,8 \cdot 250 = 200$$

Defitsitning qolgan qismi qo'shimcha pul chiqarish orqali moliyalashtiriladi:

$$\Delta M = BD - \Delta BD \quad \Delta M = BD - \Delta BD = 250 - 200 = 50$$

$$\text{Javob: } S_p = 100, \quad BD = -250, \quad \Delta BD = 200, \quad \Delta M = 50$$

### 2-masala

Mintaqa hududida faoliyat ko'rsatayotgan korxonaning daromadi 65 mln. so'mga teng bo'lib, 5,2 mln. so'm daromad solig'i to'lansa, soliq stavkasini aniqlang.

### MASALANING ECHILISHI

Soliq stavkasini aniqlash uchun quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$R = \frac{R}{D} \times 100 \%$$

$$R = \frac{R}{D} \times 100 \% = \frac{5,2}{65} \cdot 100 \% = 8 \%$$

Javob: 8%

### 3-masala

Mintaqa ishlab chiqarishini rivojlantirish uchun hududda joylashgan zavodga 100 mln. so'mlik yangi stanok sotib olindi. Yangi stanokni qo'llashdan zavod 10 mln. so'm sof foyda olgan bo'lsin. Kutilayotgan sof foyda normasini aniqlang.

### MASALANING ECHILISHI

$$R_n = \frac{\text{Соф фойда}}{\text{Станок киймати}} = \frac{10\ 000000}{100000000} \cdot 100 \% = 10 \%$$

Javob: kutilayotgan sof foyda normasi 10 %ga teng

#### **4-masala**

Nominal foiz stavkasi 16 %ga teng bo'lsa, inflyasiya darajasi yiliga 12 %ni tashkil etsa, unda real foiz stavkasini aniqlang.

### **MASALANING ECHILISHI**

Investitsiya xarajatlari foyda keltirishini aniqlashda nominal foiz stavkasi emas, balki real foiz stavkasi hisobga olinadi. Real foiz stavka narxlar darajasining o'zgarishini aks ettirib, nominal stavkadan inflyasiya darajasi ayirmasi ko'rinishida aniqlanadi ( $16\% - 12\% = 4\%$ );

Javob: Real foiz stavkasi 4 %.

### **MUSTAQIL BAJARISH UCHUN MASHQLAR**

#### **1-masala**

2010 yilda mintaqqa iqtisodiyotining YAHM 25 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bir yildan so'ng deflyator 1,5 martaga ortdi, real YAIM esa 10 %ga o'sdi. 2011 yilda mintaqqa iqtisodiyotidagi nominal YAMM hajmini toping (masala shartida 2011 yil – bazis yili deb qaralsin).

#### **2-masala**

Namangan viloyati iqtisodiyotini rivojlantirish maqsadida horijiy banklardan 8 foiz yillik stavka bo'yicha 1 mlrd. AQSH dollari miqdorida kredit oldi. Bu mablag'lar kelgusi yillar mobaynida milliy mahsulotni yiliga 300 mln. AQSH dollariga ko'paytirish imkonini beruvchi loyihalarga investitsiyalanishi ma'lum bo'lsa, olingan qarz mamlakat qarzi oshishiga olib keladimi, olib kelsa, qanday o'lchamda va mamlakat fuqarolari zimmasidaga moliyaviy yuk oshadimi?

#### **3-masala**

Fermer xo'jaligi belgilangan rejani bajarish uchun hukumatdan bir yil muddatga 4 foiz stavka bo'yicha 100 mln. so'm qarz olgani ma'lum bo'lsa, yil oxirida miqdori qanday bo'ladi va agar yillik inflyasiya sur'atlari 3 %ni tashkil etsa, bu qarz miqdori nominal qarz miqdoridan qanday farq qiladi, agar inflyasiya mavjud bo'lmaganda qarz summasi va foiz qiymati nimaga teng

## **9-bob. MINTAQALARNING TASHQI IQTISODIY ALOQALARI VA EKSPORTNI KO'PAYTIRISH YO'LLARI**

### **Uslubiy ko'rsatma**

O'zbekiston o'z mustaqilligining dastlabki yillardayoq tashqi siyosiy va iqtisodiy aloqalarni shakllantirish yuzasidan ishlab chiqilgan quyidagi asosiy tamoyillarga amal qilmoqda:

Jahon iqtisodiyotining rivojlanish tendensiyalarini diqqat bilan kuzatar ekanimiz, ayonlashadiki, O'zbekiston iqtisodiyotining yuqori o'sish sur'ati jahon iqtisodiyotiga chuqur integratsiyalashuv asosida xorijiy investitsiya hamda eksport salohiyati barqaror rivojlanishi tufayli ta'minlanishi mumkin.

### **1-masala**

Mintaqa aholisining iste'mol xarajati 2,5 mlrd. so'mni tashkil etadi. Mintaqa ishlab chiqarishini rivojlantirish va aholi turmush farovonligini oshirish uchun 1,7 mlrd. so'm investitsiya kiritilgan bo'lib, buning natijasida mintaqaga hududida ishlab chiqarilgan mahsulotning 1,3 mlrd. so'mligi qo'shni davlatlarga eksport qilindi va buning uchun hukumat tomonidan 6,5 mlrd. so'm xarajatlar rejalashtirilganligi ma'lum. Davlat xaridini aniqlang.

### **MASALANING ECHILISHI**

Masala shartidan kelib chiqqan holda  $E = C + I + G + X_n$  ifodadan foydalanish mumkin.

bu erda:  $E$  – rejalashtirilgan xarajatlar;

$C$  – iste'mol xarajati;

$I$  – kiritilgan investitsiya;

$G$  – Davlat xaridi;

$X_n$  – sof eksport.

$$G = E - (C + I + X_n) = 6,5 - (2,5 + 1,7 + 1,3) = 6,5 - 5,5 = 1$$

Javob: 1 mlrd. so'm.

### **2-masala**

Mintaqada hukumat tomonidan belgilangan mahalliy lashtirish dasturini amalga oshirish natijasida importga bo'lgan xarajatlar 1,8 birlikka o'zgardi. Agar importga chegaralangan moyillik 0,3 birlikka teng bo'lsa, mintaqaga daromadi o'zgarishini aniqlang.

## MASALANING ECHILISHI

Masala shartidan kelib chiqqan holda  $m = \frac{\Delta M}{\Delta Y}$  formula orqali so'ralgan ko'rsatkichni aniqlanadi.

$$\Delta Y = \frac{\Delta M}{m} = \frac{1,8}{0,3} = 60$$

Javob: Mintqa daromadi o'zgarishi 60 birlikka o'zgargan.

YAlpi daromadlarning oshishi bilan import ham oshadi. Chunki, bunda iste'molchilar va investorlar ham milliy ham import mahsulotlarga bo'lgan xarajatlari miqdorini oshiradilar. Ayni paytda mamlakatning eksport hajmi shu mamlakatdagi yalpi daromadlar ( $Y$ ) miqdoriga bevosita bog'liq bo'lmaydi, balki tovar olib chiqib ketayotgan mamlakatning yalpi daromadlari o'zgarishiga bog'liq bo'ladi. SHuning uchun ham mamlakatdagi yalpi daromadlar ( $Y$ ) o'zgarishi bilan sof eksport ( $X_p$ ) o'rtaсидаги bog'liqlik salbiydir va sof eksport funksiyasida minus ishorasi bilan belgilanadi.

## MUSTAQIL BAJARISH UCHUN MASHQLAR

### 1-masala

Viloyat iqtisodiyotini modernizatsiyalash uchun kiritilgan investitsiyalar 700 mln. so'mni, tasarrufdagi daromad 3,2 mlrd. so'mni, iste'mol xarajatlari 2,8 mlrd. so'm, davlat byudjeti ortiqchaligi 100 mln. so'mni tashkil etdi. Sof eksport miqdorini toping.

### 2-masala

Germaniyada bir dona mashina ishlab chiqarishga 10 soat, bir dona traktor ishlab chiqarishga esa 15 soat sarflanadi. Ushbu tovarlarni ishlab chiqarish bo'yicha O'zbekiston nisbatan pastroq unumdarlikka ega, ya'ni bir dona mahsulot ishlab chiqarish hajmi mashina uchun 19 soat, traktor uchun 45 soatni tashkil qiladi. Ushbu mamlakatlar o'rtaсида ikki tomon uchun ham manfaatl bo'lgan savdoni yo'lga qo'yib bo'ladimi? Agar mumkin bo'lsa har bir mamlakat qaysi tovarni eksport qilishini izohlab bering.

### 3-masala

Mamlakat iqtisodiyotida milliy daromad – 85,0 mlrd. so'mni, iste'mol xarajatlari – 70,0 mlrd. so'm davlat xarajatlari – 15,0 mlrd. so'mni tashkil etib, investitsiya funksiyasi  $I = 25 - 10r^2$  bilan ifoda-langanda mamlakatning sof eksportini aniqlang. Bunda jahon foiz stavkasi 5 %ga teng.

## **10-bob. MINTAQALARNING IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANISHINI TARTIBGA SOLISH**

### **Uslubiy ko'rsatma**

Mintaqaviy siyosatni amalga oshirish shakllaridan biri davlatning mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanadirish bo'yicha maqsadli dasturlari hisoblanadi. Ularga hozir ham, kelajakda ham alohida e'tibor berish kerak.

Hududiy o'sish nazariyalarini ko'rib chiqishda ikki xil asosiy yondashuv mavjud. Birinchisi – hududlarda iqtisodiy o'sish modellarini qo'llash. Bunday modellarni mamlakat iqtisodiyotining o'sishini izohlash uchun ishlab chiqilgan modellarga o'xshatish mumkin (development economics). Ikkinchisi esa, alohida korxona va firmalarning xattiharakatlarini tahlil etishga asoslangan. CHunki mintaqalarning iqtisodiy rivojlanishini, avvalambor, ularning faoliyatigina aniqlab beradi.

Mamlakatlar bo'yicha iqtisodiy statistikani taqqoslash uchun ma'lumotlar avval yagona valyuta holiga keltirilishi kerak. Valyuta kurslarining bozorda ayrboshlanishidan farqli ravishda xarid qobiliyati paritetining ayrboshlash kurslari mamlakatlar o'rtafigi narx-navolardagi farqlarni hisobga olish imkonini beradi. SHuning uchun jon boshiga YAID (xarid qibiliyati pariteti bo'yicha, AQSH dollari hisobida) odamlar turmush darajasini aniqroq ifoda etadi.

Nazariy jihatdan xarid qibiliyati pariteti bo'yicha 1 AQSH dollari (uni xalqaro dollar ham deb atashadi) u yoki bu mamlakat iqtisodiyotida AQSH iqtisodiyotidagi 1 AQSH dollariga teng xarid qibiliyatiga egadir. Xarid qibiliyati paritetining yangi miqdor ko'rsatkichlari 2008 yildan boshlab ko'llanilib kelmoqda. Xarid qibiliyati pariteti hisoblab chiqilgan, 2005 yilda so'nggi marta o'tkazilgan Xalqaro taqqoslash dasturi doirasidagi tadqiqotlarda

146 mamlakat, avvalgi tadqiqotlarga qaraganda 26 tadan ko'proq mamlakat ishtirok etdi.

**Iste'mol savati** - insonning salomatligini saqlash va uning hayotfaoliyatini ta'minlash uchun zarur bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlari, nooziq-ovqat tovarlari va xizmatlarning minimal to'plamidir. Aslida, iste'mol savati uchta savatdan iborat: oziq-ovqat, nooziq-ovqat, xizmat savatchalari. Iste'mol savati kamida 5 yilda bir marta uslubiy tavsiyalar asosida aniqlashtiriladi. Iste'mol savatida oziq-ovqat savati muhim o'rinn tutadi.

Minimal iste'mol savatini ishga layoqatli yoshdagisi aholi uchun shakllantirishga asos qilib ishlayotgan erkak kishiga sutkada 2720 kkal, oqsil iste'molini - 88,7 (shu jumladan, hayvonniki -31,5), uglevodlarni 4412 sutkani ta'minlovchi oziq-ovqatlar to'plami olinadi.

**Oziq-ovqat savati** - bir odamning bir oyda ovqatlanishi uchun ketadigan mahsulotlar to‘plami (u mahsulotlar iste‘molining minimal me’yori asosida hisoblab chiqilgan) va bu to‘plam jismoniy ehtiyojlarga mos keladi, zarur kaloriyanı ta‘minlaydi, asosiy oziq moddalar mavjud va ovqatlanishni tashkil etishning an‘anaviy ko‘nikmalariga to‘g‘ri keladi

**YAshash minimumni** ko‘rsatkichlari davlat tomonidan ijtimoiy siyosat yuritishda qo‘llaniladi (xususan, aholining turmush darajasini baholash uchun yashash minimumidan past, teng va yuqori daromadli aholi salmog‘i aniqlanadi), aholining kam ta‘minlangan qatlamlarini qo‘llab-quvvatlash uchun aniq etib boradigan manzilli ijtimoiy yordam uchun negiz bo‘lib xizmat qiladi, eng kam ish haqi va pensiyalarni asoslashda foydalaniladi, shuningdek, kam ta‘minlanganlik mezoni hamdir.

Masalalarni echishda O‘zbekistondag‘i oila daromadlarini: ish haqi, moddiy erdag‘i, nafaqalar, soliq to‘lanadigan boshqa to‘lovlar, pensiya va stipendiyalar, bolalarga to‘lanadigan oylik nafaqalar, yosh bolasiga qarash uchun to‘lanadigan nafaqalar, tomorqa xo‘jaligidan olinadigan natural mahsulotlar qiymati, shaxsiy mulkidan va shaxsiy tomorqasidagi mahsulotlarni sotishdan keladigan daromadlar, bankdagi jamg‘armalari, aksiya va boshqa qimmatli qog‘ozdan keladigan foizlar e’tiborga olinadi. CHunki, jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadlar oila farovonligini moddiy jihatdan aks ettirishni hisobga olish zarur.

### **1-masala**

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi aholi jon boshiga belgilangan yillik me’yorlar quyidagicha belgilangan: non va non mahsulotlari 98,61 kg, sabzavot 104,12 kg, kartoshka 53,37 kg, uzum 25,34 kg, go‘sht va go‘sht mahsulotlari 54,83 kg, sut va sut mahsulotlari 364,36 kg, tuxum 181 dona. Me’yor ko‘rsatkichlarini hamda jadval ma‘lumotlarini e’tiborga olgan holda jadvaldagi bo‘sh kataklarni to‘ldiring (1-jadval).

**Namangan viloyati aholisi jon boshiga to‘g‘ri keladigan yillik me’yorlar**

№	Ko‘rsatkichlar	Yillar					
		2010			2011		
		Haqiqatda	Me’yor bo‘yicha talab qilinadi	Farqi	Haqiqatda	Me’yor bo‘yicha talab qilinadi	Farqi
1.	Aholi soni, ming. kishi	2264,5	x	x	2304,7	x	x
2.	YAlpi hududiy mahsulot ishlab chiqarish, mlrd. so‘m.	1863,4			2426,6		
a)	tuxum mln. dona	84,4	409,9	-325,5	99,6	409,9	-317,6
b)	sabzavot mahsulotlari ming t	394405,0	235779,7	158625,3	439425,0	235779,7	203645,3
v)	kartoshka, ming t	135344,0			152790,0		
g)	uzum, ming tn.	71896,0			73991,0		
d)	sut va sut mahsulotlari, ming t	359777,0			384929,0		
e)	go‘sht va go‘sht mahsulotlari, ming t.	75863,0			81522,0		

Manba: Namangan viloyati statistika boshqarmasi ma’lumotlar

### Masalaning echilishi

Masala shartiga ko‘ra, Namangan viloyati aholisi iste’mol me’ori asosida bir yil mobaynida qancha tuxum iste’mol qilishini aniqlash uchun jami aholi sonini me’yor soniga ko‘paytirish orqali aniqlanadi, ya’ni

2010 yilda  $2264500 \cdot 181 = 409874500$  demak, me’yor bo‘yicha  $409874500$  dona tuxum aholi jon boshiga nisbatan iste’mol uchun lozim ekan, haqiqatda esa  $84400000$  dona tuxum etishtirilgan. Ularning farqida esa  $409874500 - 84400000 = -325474500$  dona tuxum etishmovchiligi aniqlandi.

2011 yilda esa  $2304700 \cdot 181 = 417150700$  dona tuxum viloyat aholisi iste’molini qondirishi belgilanadi, haqiqatda esa  $99600000$  dona tuxum etishtirilib, farqi  $317550700$  donaga kam ekanani aniqlandi.

2010 yilda viloyat aholisi bir yil davomida me’yor bo‘yicha  $2264500 \cdot 104,12 = 235779740$  kg sabzavot iste’mol qilishi mo‘ljallangan. Haqiqatda esa,  $394405000$  kg sabzavot viloyatda etishtirilib, iste’moldan tashqari  $394405000 - 235779740 = 158625260$  kg ortiq mahsulot ishlab chiqarilgan.

2011 yilda esa haqiqatda 439425000 kg sabzavot etishtirildi. Bu esa, me'yordan tashqari  $439425000 - 235779740 = 203645260$  kg iste'moldan ortiq sabzavot etishtirildi.

(Qolgan ko'rsatkichlar ham xuddi yuqorida hisob-kitoblar orqali amalga oshirish uchun foydalanuvchilarga havola etiladi)

## 2-masala

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida agrosanoat majmuasining o'rnnini aniqlang. Tegishli tahlil yozing.

Nº	Ko'rsatkichlar	2000 y.	2010 y.	2010 y.ni 2000 y.ga nisb. farqi (+, -)
1.	YAlpi hududiy mahsulot, mld. so'm: Namangan viloyatida Viloyat ASMda	1863,4 972,1	2426,6 1378,9	563,2 406,8
2.	Mehnat bilan band aholi soni ming kishi: Namangan viloyatida Viloyat ASMda	788,9 581,6	815,3 617,7	26,4 36,1
3.	Jami investitsiyalar, mld. so'm: Namangan viloyatida Viloyat ASMda	478,2 86,5	554,0 101,9	75,8 15,4
4.	ASMning viloyat iqtisodiyotidagi salmog'ini aniqlang: a) yalpi hududiy mahsulotda, % b) mehnat resurslarida, % v) investitsiyalarda, %	52,2 73,7 18,1	56,8 75,8 18,4	4,6 2,1 0,3

Manba: Namangan viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlar

## MASALANING ECHILISHI

1. YAlpi hududiy mahsulot farqi

Viloyatda:  $2426,6 - 1863,4 = 563,2$  ASMda:  $1378,9 - 972,1 = 406,8$

2. Mehnat resurslaridagi farqi

Viloyatda:  $815,3 - 788,9 = 26,4$  ASMda:  $617,7 - 581,6 = 36,1$

3. Investitsiyalardagi farqi

Viloyatda:  $554,0 - 478,2 = 75,8$  ASMda:  $101,9 - 86,5 = 15,4$

$$\text{a)} \quad \Delta X M_{2010 \text{ y}} = \frac{972,1}{1863,4} \cdot 100\% = 52,2 \% \quad \Delta X M_{2011 \text{ y}} = \frac{1378,9}{2426,6} \cdot 100\% = 56,8 \%$$

$$\text{b)} \quad M_{2010 \text{ y}} = \frac{581,6}{788,9} \cdot 100 \% = 73,7 \% \quad M_{2011 \text{ y}} = \frac{617,7}{815,3} \cdot 100 \% = 75,8 \%$$

$$\text{s)} \quad I_{2010 \text{ y}} = \frac{86,5}{478,2} \cdot 100 \% = 18,1 \% \quad I_{2011 \text{ y}} = \frac{101,9}{554,0} \cdot 100 \% = 18,4 \%$$

### **3-masala**

Namangan viloyati korxonalarda 1025 mln. soʻmlik tovar mahsulot ishlab chiqarilgan va uning 625 mln. soʻmi realizatsiya qilingan. Viloyatda 4,5 mln. soʻmlik pulli xizmat koʻrsatilgan. Umumiy holda viloyatning ijtimoiy xarajatlari 27,6 mln. soʻm. Ijtimoiy xarajatda moddiy xarajat salmogʻi 75 %. Viloyat korxonalarining foydasini aniqlang:

### **MASALANING ECHILISHI**

$$\phi = ((1025 - 625) + 4,5) - 27,6 \cdot 0,75 = 404,5 - 20,7 = 383,8$$

Javob: Korxonalar foydasi 383,8 mln. soʻmga teng.

### **4-masala**

Mintaqa aholisini sutga boʻlgan ehtayojini qondirish uchun zarur boʻlgan qora mollar sonini aniqlang.

Berilgan maʼlumotlar:

1. Mintaqa aholisi soni 49 ming kishi.
2. Aholi jon boshiga yillik isteʼmol qilish normasi 250 litr.
3. Bitta sigirdan sogʼib olinadigan sutning oʼrtacha yillik miqdori 2800 litr.

### **MASALANING ECHILISHI**

Masalani echish uchun birinchi navbatda mintaqaga aholisining jon boshiga yillik isteʼmol normasini aniqlab olamiz.  $C_n = 49000 \cdot 250 = 12250000$  litr;

$$N_s = 12250000 : 2800 = 4375$$

Javob: Demak, mintaqaga aholisining sutga boʻlgan ehtiyojini qondirish uchun 4375 ta qoramollar kerak boʼlishi lozim ekan.

### **MUSTAQIL BAJARISH UCHUN MASHQLAR**

#### **1-masala**

Isteʼmol savati qiymati 240 soʻmni tashkil qiladi. YAshash minumimi byudjetining (YAMB) tuzilmasi jadvalda keltirilgan. Ishga layoqatli ishlovchining YAMB qiymatini aniqlang.

## Mamlakat o‘rtacha ijtimoiy-demografik guruhlar bo‘yicha yashash minimumi byudjeti tuzilmasi

№	Xarajatlar turi	Aholi jon boshiga	Ijtimoiy-demografik guruhlar		
			Mehnatga layoqatilar	Pensioner- lar	Bolalar
			0-6	7-15	
1.	Oziq-ovqat	68,3	61,6	82,9	74,5 73,4
2.	Nooziq-ovqat tovarlar	19,1	21,4	10,0	18,9 19,8
3.	Xizmatlar	7,4	8,9	7,1	6,6 6,8
4.	Soliqlar va boshqa to‘lovlar	5,2	8,1	-	- -
	Jami xarajatlar	100	100	100	100 100

### 2-masala

Quyidagi jadvalda yashash darajasi minimumini o‘z ichiga olgan oziq-ovqat mahsulotlarining bahosi va tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar berilgan.

X yilda minimal ish haqi miqdori 2450 so‘mni, 4 yildan so‘ng 5440 so‘mni tashkil etgan. SHu yillarda belgilangan minimal ish haqiga beriladigan har bir mahsulot turining hajmini aniqlang.

SHu yillarda minimal nominal va real ish haqlarining o‘zgarish xarakteri bo‘yicha xulosa chiqaring.

YAshash darajasi minimumining turlari	O‘lchov birligi	Mahsulotlarning birligi bahosi, so‘m	
		2012 yil	2013 yil
Go‘sht mahsulotlari (mol go‘shti)	Kg	1800	2000
Sut mahsulotlari (sut)	L	150	200
Tuxum	10 dona	40	60
Baliq mahsulotlari	Kg	1500	2000
Qand va qandolat mahsulotlari	Kg	550	650
O’simlik yog‘i	L	900	1100
Kartoshka	Kg	200	250
Sabzavotlar	Kg	100	150
Mevalar	Kg	600	700
Non mahsulotlari	Kg	265	300

### 3-masala

Oila besh kishidan iborat: eri-qurilishda kranchi-mashinist, xotin-shahar kutubxonasida kutubxonachi, ikkita bolasi maktabgacha yoshda, ularning qari onasi-pensioner. Oila daromadi (to‘lov va soliqlar chiqarib tashlangandan so‘ng) erining ish haqi oyiga 1800 so‘m va xotinniki-600 so‘m, bolalarga olinadigan moddiy yordam va nafaqalar oyiga 120 so‘mdan har biriga, onasining pensiyasi-300 so‘m, hamda jamg‘arma

bankka qo'yilgan pullarining yillik 7,2 foizini, tomorqa xo'jaligidan olinadigan meva-sabzavotlarning narxi-1 yilda 1140 so'm.

Kishi boshiga to'g'ri keladigan oylik daromadlarni aniqlash zarur va oila farovonligi darajasi haqida xulosa chiqarish kerak.

#### **4-masala**

Oila besh kishidan iborat: eri-tijorat bankida yurist-maslahatchi, xotini uy bekasi, qizi-talaba, otasi-xarbiy pensioner, onasi 2-guruh nogironi. Oilaning umumiy daromadi 1 oyga erining oylik maoshdan – 3600 so'm, qizining stipendiyasi – 200 so'm, otasi-ning pensiyasi – 950, onasining pensiyasi – 300 so'm, obligatsiya va boshqa qimmatli qog'ozlardan tushadigan 15,6 ming so'm miqdordagi yillik foizlar, hamda ota-onalari kvartirasini ijaraga berishdan tushadigan – oyiga 2600 so'mlik daromaddan iborat.

Kishi boshiga to'g'ri keladigan oylik daromadni hisoblang va oiladagi farovonlik darajasi haqida xulosangizni bering.

#### **5-masala**

Samarali faoliyat yuritayotgan tadbirkor oilasi to'rt kishidan iborat (eri, xotini, 2ta yuqori sinf o'quvchi-farzandlari). Oilaning oylik o'rtacha daromadi 280 ming so'mdan iborat bo'lib, erining tadbirkorlik faoliyati daromadlaridan (40 ming so'm) tashkil topgan.

Kishi boshiga to'g'ri keladigan oylik oila daromadini hisoblang va oilaning farovonligi haqida xulosa qiling.

#### **6-masala**

Besh kishidan iborat yaxshi ta'minlangan oila (eri-tijorat bankida yurist-maslahatchi, xotini-uy bekasi, qizi-talaba, otasi-harbiy pensioner, onasi 2-guruh nogironi) yillik jami pul daromadlari 120,6 ming so'mga ega. Oila byudjetining daromad qismi erining maoshi (53 ming so'm), qizining stipendiyasi (2,4 ming so'mi) ota-onalarining pensiyasi (15 ming so'm), qimmatli qog'oz va obligasiya foizlari (15,6 ming so'm) va uy-joy ijerasi (34,6 ming so'm) dan tashkil topgan.

Xarajatlар qismi esa quyidagilardan iborat: erining yillik daromad solig'i va badallari – 10 ming so'm, uy-joy va ijara daromadidan soliqlar – 4,8 ming so'm har oylik oziq-ovqat xarajatlari – 4220 so'm, nooziq-ovqat tovarlar xaridi – 2250 so'm, turli xizmat-larga (uy-joy-kommunal, maishiy, transport, pochta va h.k.) haq to'lash – 1665 so'm. Yillik pul daromadlarining xarajatlardan ortadigan qismi (8,1 ming so'm) omonat va qimmatli qog'ozlardagi jamg'armalarga ketadi.

Oila yillik xarajatlarda soliq va badallarga ovqat tovarlar xaridiga, turli xizmat va jamg‘armalarga ketadigan sarflarning ulushini foizda hisoblang.

### Mintaqaviy o‘sish nazariyalarini tahlil etish masalalari

Mamlakatning iqtisodiy o‘sish sur’atini tafsiflaydigan mazkur ko‘rsatkichlar (real YAIM va aholi jon boshiga real YAIMning o‘sishi) miqdoriy ko‘rsatkichlar bo‘lib, ular birinchidan, mahsulot sifatining oshishini to‘liq hisobga olmaydi va shu sababli farovonlikning haqiqiy o‘sishini to‘liq tafsiflab berolmaydi; ikkinchidan, real YAIM va aholi jon boshiga YAIMning o‘sishi bo‘sh vaqtning sezilarli ko‘payishini aks ettirmaydi va farovonlik real darajasining pasaytirib ko‘rsatilishiga olib keladi; uchinchidan, iqtisodiy o‘sishni miqdoriy hisoblash boshqa tomondan uning atrof-muhitga va insonning hayotiga salbiy ta’sirini hisobga olmaydi.

SHunga ko‘ra, iqtisodiy o‘sishning barcha tavsifi yillik o‘sish sur’atlarining foizdagagi o‘lchovida to‘liq o‘z ifodasini topadi:

$$\check{Y}C = \frac{YAIM_{\text{жорий давр}} - YAIM_{\text{базис давр}}}{YAIM_{\text{базис давр}}} \times 100 \%,$$

bu erda: O‘S – iqtisodiy o‘sish sur’ati, foizda;

$YAIM_{\text{базис давр}}$  – taqqoslanayotgan davr (yil)dagi real YAIM hajmi;

$YAIM_{\text{жорий давр}}$  – joriy davr (yil)dagi real YAIM hajmi.

Ma’lumki, yalpi milliy (ichki) mahsulot ishchi kuchi, kapital va tabiiy resurslar sarflarining funksiyasi hisoblanadi, ya’ni:

#### 1-masala

Namangan viloyatining bazis yil sifatida tanlab olingan 2000 yilga nisbatan asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlarining o‘sish sur’atini aniqlang. Ma’lumotlar quyidagi jadvalda keltirilgan.

No	Asosiy ko‘rsatkichlar	O‘lchov birligi	2000 y.	2001 y.	2002 y.	2003 y.	2004 y.	2005 y.
1	<b>YAXM ishlab chiqarish</b>	mlrd. sum	171,6	247,2	364,9	475,7	565,3	715,5
2	<b>Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish</b>	mlrd. sum	59,6	90,4	124,6	167,2	214,1	247,1
3	<b>Xalq iste’moli mollari ishlab chiqarish</b>	mlrd. sum	47,7	60,7	80,6	95,0	110,2	119,1

Manba: Namangan viloyati statistika boshqarmasi ma’lumot!

## MASALANING ECHILISHI

Masala shartiga ko'ra, bazis yil sifatida 2000 yilni tanlab olib, berilgan formula yordamida hisob-kitob natijalarini xuddi yuqorida berilgan jadvalni chizib olib to'ldiramiz.

$$1) \dot{y}_{\text{YAXM}} = \frac{\text{YAXM}_{2001} - \text{YAXM}_{2000}}{\text{YAXM}_{2001}} \cdot 100 \% = \frac{247,2 - 171,6}{247,2} \cdot 100 \% = 30,6 \%$$

$$2) \dot{y}_{\text{CM}} = \frac{\text{CM}_{2001} - \text{CM}_{2000}}{\text{CM}_{2001}} \cdot 100 \% = \frac{90,4 - 59,6}{90,4} \cdot 100 \% = 34,1 \%$$

$$3) \dot{y}_{\text{XIM}} = \frac{\text{XIM}_{2001} - \text{XIM}_{2000}}{\text{XIM}_{2001}} \cdot 100 \% = \frac{60,7 - 47,7}{60,7} \cdot 100 \% = 2174 \%$$

No	Asosiy ko'rsatkichlar	O'Ichov birligi	2001 y.	2002 y.	2003 y.	2004 y.	2005 y.
1	YAXM ishlab chiqarish	%	30,6				
2	Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish	%	34,1				
3	Xalq iste'moli mollari ishlab chiqarish	%	21,1				

Jadvalni qolgan katakchalarini mustaqil to'ldiring

### 2-masala

Hududiy jamg'arishga chegaralangan moyillik ko'rsatkichi 0,4 ga, avtonom iste'mol hajmi 700 mln. so'mga, chegaralangan soliq stavkasi 0,25 ga, daromadlar darajasi 7 mlrd. so'mga teng bo'lsa, hududiy iste'mol va jamg'armalar hajmi hamda iste'molga va jamg'arishga chegaralangan moyillik ko'rsatkichlari topilsin.

## MASALANING ECHILISHI

Masala shartida keltirilgan iste'mol va jamg'armalar hajmini aniqlashdan avval iste'molga chegaralangan moyillik ko'rsatkichini hisoblab topamiz:

$$MPC + MPS = 100 \Rightarrow MPC = 100 - MPS = 100 - 40 = 60\%, \text{ yoki } 0,6$$

Iste'mol funksiyasiga ko'ra iste'mol xarajatlari miqdorini aniqlaymiz

$$C = a + b(Y - Y_r) = 700 + 0,6(7000 - 0,25 \cdot 7000) = 700 + 3150 = 3850 \text{ mln. so'm.}$$

Jamg'arish miqdorini tasarrufdag'i daromaddan iste'mol xarajatlarini ayirib topamiz

$$S = \Delta Y - C = (Y - Y_r) - C = (7000 - 7000 \cdot 0,25) - 3850 = 5250 - 3850 = 1400$$

Iste'molga va jamg'arishga o'rtacha moyillikni topamiz

$$APC = \frac{C}{\Delta Y} = \frac{3850}{5250} = 0,7 \quad APS = \frac{S}{\Delta Y} = \frac{1400}{5250} = 0,27$$

Javob:  $MPC = 0,6$ ,  $C = 3850$ ,  $S = 1400$ ,  $APC = 0,7$ ,  $APS = 0,27$

## MUSTAQIL ISHLASH UCHUN MASHQLAR

### 1-masala

Namangan viloyatining bazis yil sifatida tanlab olingan 2006 yilga nisbatan YAXM va xalq iste'mol mollari ishlab chiqarish bo'yicha ko'rsatkichlarining o'sish sur'atini aniqlang. Ma'lumotlar quyidagi jadvalda keltirilgan.

No	Asosiy ko'rsatkichlar	O'ichov birligi	2006 y.	2007 y.	2008 y.	2009 y.	2010 y.
1	<b>YAXM ishlab chiqarish</b>	mldr. sum	791.4	1045.0	1449.7	1872.5	2426.6
2	<b>Xalq iste'moli mollari ishlab chiqarish</b>	mldr. sum	139.2	184.1	329.5	329.5	441.9

### 2-masala

Quyida jadvalda keltirilgan statistik ma'lumotlar asosida mintaqa iqtisodiyotining 2006-2010 yillardagi iqtisodiy ko'rsatkichlarining o'sish sur'atlarini aniqlang.

No	Asosiy ko'rsatkichlar	O'ichov birligi	2006 y.	2007 y.	2008 y.	2009 y.	2010 y.
1	<b>YAXM ishlab chiqarish</b>	mldr. sum	791.4	1045.0	1449.7	1872.5	2426.6
2	<b>YAlpi qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish</b>	mldr. sum	520.1	649.4	838.2	910.0	1162.9
3	<b>Pullik xizmat</b>	mldr. sum	104.6	149.3	231.2	316.3	434.0
4	<b>Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish</b>	mldr. sum	269.9	331.6	434.5	534.5	748.7
5	<b>CHakana savdo aylanmasi</b>	mldr. sum	442.5	575.9	761.5	965.1	1318.8

### Mehnat unumdorligini aniqlashga doir masalalar

#### Uslubiy ko'rsatma

Mehnat unumdorligi deganda bir-birlik mehnat sarfiga to'g'ri keluvchi mahsulot hajmi tushuniladi. Iqtisodiyotda ishlab chiqarish funksiyasidan kelib chiqqan holda yalpi (milliy) ichki mahsulot funksiyasi quyidagicha bo'ladi:

$$Y = f(L, K, N),$$

bu erda: Y – yalpi milliy (ichki) mahsulot;

L – ishchi kuchi sarflari;

K – kapital sarflari;

N – tabiiy resurslar sarflari.

Bu funksional bog'lanishdan kelib chiqqan holda iqtisodiy o'sishni belgilab beruvchi bir qator xususiy ko'rsatkichlarni keltirib chiqarish mumkin:

7) **mehnat unumdorligi (Y/L)** – mahsulot ishlab chiqarish hajmining jonli mehnat sarflariga nisbati;

8) **mehnat sig‘imi (L/Y)** – jonli mehnat sarflarining mahsulot ishlab chiqarish hajmiga nisbati;

9) **kapital samaradorligi (Y/K)** – mahsulot ishlab chiqarish hajmining unga sarflangan kapital xarajatlariga nisbati;

10) **kapital sig‘imi (K/Y)** – kapital xarajatlarining mahsulot ishlab chiqarish hajmiga nisbati;

11) **tabiiy resurslar samaradorligi (Y/N)** – mahsulot ishlab chiqarish hajmining unga sarflangan tabiiy resurslar xarajatlariga nisbati;

12) **mahsulotning resurslar sig‘imi (N/Y)** – tabiiy resurslar sarfming mahsulot ishlab chiqarish hajmiga nisbati;

7) **ishchi kuchining kapital bilan qurollanganlik darajasi (K/L)** – ishlab chiqarish jarayonida qo‘llanilayotgan kapital hajmining ishchi kuchi miqdoriga nisbati.

Iqtisodiy o‘sishni tahlil qilishda yuqorida ko‘rib chiqilgan ko‘rsatkichlardan tashqari yana **keyingi qo‘shilgan ishlab chiqarish omillari unumdorligi** ko‘rsatkichlari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu ko‘rsatkichlar, boshqa omillar sarfi o‘zgarmagani holda, har bir alohida omil sarfming qo‘sishimcha o‘sishi ta’sirida mahsulot ishlab chiqarish hajmining qo‘sishimcha o‘sishi hajmini belgilab beradi:

4)keyingi qo‘shilgan mehnat unumdorligi ( $\Delta Y / \Delta L$ );

5)keyingi qo‘shilgan kapital unumdorligi ( $\Delta Y / \Delta K$ );

6)keyingi qo‘shilgan tabiiy resurslar unumdorligi ( $\Delta Y / \Delta N$ ).

Bu ko‘rsatkichlar yalpi mahsulot ishlab chiqarish umumiy hajmining o‘sishida har bir omilning hissasini namoyon etib, u quyidagicha aniqlanadi:

$$Y = (\Delta Y / \Delta L)L + (\Delta Y / \Delta K)K + (\Delta Y / \Delta N)N.$$

Neoklassik model ko‘p omilli hisoblanib, amerikalik iqtisodchi P.Duglas va matematik CH.Kobb yaratgan ishlab chiqarish funksiyasi asos qilib olingan. Cobb-Duglas modeli orqali ishlab chiqarish hajmining o‘sishida ishlab chiqarish turli omillarining ulushini aniqlashga harakat qilinib, u quyidagicha ifodalanadi:

$$Y = AK^{\alpha}L^{\beta},$$

bu erda: Y – ishlab chiqarish hajmi;

K – kapital sarflari;

L – ishchi kuchi sarflari;

A – mutanosiblik koefitsienti;

$\alpha$  va  $\beta$  - ishlab chiqarish hajmining ishchi kuchi va kapital sarflari bo'yicha elastiklik koefitsienti yoki ishlab chiqarish funksiyasining koefitsientlari.

Elastiklik koefitsienti bir ko'rsatkich miqdorining o'zgarishi natijasida boshqa bir ko'rsatkich miqdorining o'zgarishi darajasini ifodalaydi. SHunga ko'ra,  $\alpha$  koefitsienti kapital sarflarining 1 %ga o'sishi ishlab chiqarish hajmining necha foizga o'sishini,  $\beta$  koefitsienti esa ishchi kuchi sarflarining 1 %ga o'sishi ishlab chiqarish hajmining necha foizga o'sishini ko'rsatadi.  $\alpha$  va  $\beta$  ning yig'indisi ishchi kuchi va kapital sarflarining bir vaqtning o'zida 1 %ga o'sishi ishlab chiqarish hajmining necha foizga o'sishini ko'rsatadi.

### 1-masala

Mintaqada faoliyat ko'rsatayotgan korxona mahalliy lashtirish dasturiga ko'ra, har biri 80 ming so'mdan bo'lgan avtomobil ehtiyyot qismini ishlab chiqaradi va raqobatlashgan bozorda harakat qiladi. Agar chekli xarajat ishlab chiqarilgan umumiylar mahsulot hajmini yarmini, o'zgarmas xarajat 60 ming so'mni tashkil etib, umumiylar funksiyasi  $TC = 60 + Q^2$ , bo'lsa, korxona foydasini maksimallashtirish uchun qancha miqdorda ehtiyyot qismi ishlab chiqarishi kerak va olingan foyda qancha bo'ladi?

## MASALANING ECHILISHI

Masala shartiga ko'ra,  $TC = 60 + Q^2$ , bo'lib, bu erda  $Q$  - ishlab chiqarish hajmi.

CHekli xarajat  $MC = 2 \cdot Q$  va o'zgarmas xarajat  $FC = 60$ .

Raqobatlashgan bozorda harakat qilayotgan korxona foydasini maksimallashtiruvchi shartdan foydalanamiz:  $MC = P$  yoki  $2 \cdot Q = 80$ , bundan  $Q = 40$  ta ehtiyyot qismi.

Demak, maksimal foyda olish uchun korxona 40 ta ehtiyyot qismi ishlab chiqarishi kerak.

Olingen foyda  $\pi$  ni quyidagicha aniqlaymiz:

$$\pi = TR - TC = P \cdot Q - TC = 80 \cdot 40 - [60 + (40)^2] = 3200 - 1660 = 1540 \text{ ming so'm}.$$

Javob: 40 ta ehtiyyot qismi ishlab chiqarishi kerak va bu orqali 1 mln. 540 ming so'm foyda.

### 2-masala

Mintaqada 150 ta korxona faoliyat ko'rsatadi. Barcha korxonalarining umumiylar funksiyasi  $TC = Q^3 - 36Q^2 + 384Q$  ko'rinishda berilgan. Bu erda  $Q$  - ishlab chiqarish hajmi bo'lib, ming dona hisobida. Uzoq muddatli

oraliqda korxonalar muvozanat holatda bo‘lishlari uchun bozor narxi va mintaqal taklifini aniqlang.

## MASALANING ECHILISHI

Uzoq muddatli oraliqda raqobatlashayotgan korxonalarning mahsuloti narxi  $P=\min ATC$  bo‘lishi kerak.

O‘rtacha xarajat:  $ATC = \frac{TC}{Q} = Q^2 - 36Q + 384$  ifodani quyidagicha qisqa

ko‘paytuvchiga keltirib, masalani echanizm:  $ATC = (Q - 18)^2 + 60$  bu funksiya minimum nuqtaga  $Q=18$  bo‘lganda erishiladi va minimum qiymati 60 ga teng bo‘ladi.

Mintaqaning taklif hajmi:  $Q_s = 150 \cdot 18 = 2700$ .

Javob: Demak, bozor narxi 60 birlik, mintaqal taklifi esa 2 mln. 700 ming donani tashkil etadi.

## MUSTAQIL ISHLASH UCHUN MASHQLAR

### 1-masala

Viloyatda faoliyat yuritayotgan firmaning chekli xarajati ishlab chiqarilayotgan mahsulot hajmi  $Q$  ga bog‘liq bo‘lib, quyidagi funksiya orqali berilgan:

$$MC=(Q-15)^2+150$$

Agar firma sarflayotgan o‘zgarmas xarajatlar miqdori  $FC=2200$  ming so‘mga teng bo‘lsa, firmaning o‘rtacha xarajatini toping.

### 2-masala

Mintaqada mahsulot ishlab chiqarish jarayoniga o‘zgartirish kiritilib, mehnat resurslari 9 foiz ( $L=9\%$ )ga, kapitalni 4 foiz ( $K=4\%$ )ga orttirilsa, ishlab chiqarish hajmi qanday o‘zgaradi. Bunda, ishlab chiqarish funksiyasi quyidagicha:  $Q=L^{0.25} \times K^{0.75}$ .

### 3-masala

Mintaqada faoliyat ko‘rsatayotgan korxona ishlab chiqarishining umumiy xarajatlar funksiyasi quyidagicha berilgan:

$$TC = 2Q^2 - 20Q + 800$$

Bu erda  $Q$ -ishlab chiqarish hajmi ming dona hisobida bo‘lib, agar korxona mahsulotining bozor narxi 50 ming so‘m bo‘lsa, u qancha foyda yoki zarar ko‘radi. Agar korxona zarar bilan ishlayotgan bo‘lsa, qisqa muddatli orliqda u bozorda qoladimi?

## **11-bob. MINTAQALARNI IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANISH IMKONIYATLARI**

### **Uslubiy ko'rsatma**

Hududlar rivojlanishida o'ziga xos o'rin tutuvchi moliyalashtirishning turli manbalari mavjud. Ularni quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin: davlat byudjeti mablag'lari; korxonalarning o'z mablag'lari; aholi mablag'lari; chet el investitsiyalari; byudjetlardan tashqari fondlarning mablag'lari va hokazolar.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida milliy iqtisodiyotimiz uchun zarur bo'lgan mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi hudud ob'ektlari moliyalashtiriladi, xususiy moliyalashtirish kengayib, xususiy sektor rivojlangan sari davlat byudjeti mablag'lari hisobiga investitsiyalash ortib boradi. **Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi** iqtisodiyotni erkinlashtirish izchil, aniq maqsadga yo'naltirilgan holdagini amalga oshiriladi va bu o'z navbatida makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy o'sishning barqaror sur'atlari ni ta'minlaydi.

Mintaqalarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, avvalambor, ishlab chiqarishning mavjudligi va uning kengayishiga, ya'ni ishlab chiqarishda foydalaniladigan omillar miqdorining o'zgarishiga bog'liq bo'lib, iqtisodiyotda bu **ishlab chiqarish miqyosi** tushunchasini ifodalaydi hamda uning samarasini orqali o'lchanadi.

**Miqyos samarasi** – ishlab chiqarish hajmining kengayish sur'ati bilan mahsulot ishlab chiqarish o'sishi o'rtasidagi bog'liqlikni ifodalaydi va u uchta miqyos samarasini orqali o'rganiladi:

**1. O'suvchi miqyos samarasi yoki nisbat miqyos samarasi** – unda ishlab chiqarish miqyosining kengayishi (ishlab chiqarishda foydalanadigan resurslar sarfining o'sishi) sur'atidan mahsulot ishlab chiqarishning o'sish sur'ati yuqori bo'lgan holat. Masalan, resurslar sarfi 100 foizga oshsa, mahsulot ishlab chiqarish sur'ati 120 foiz o'sishiga erishiladi.

**2. O'zgarmas miqyos samarasida** ishlab chiqarishda foydalaniladigan resurslar sarfining o'sish sur'ati mahsulot ishlab chiqarishning o'sish sur'atiga teng bo'ladi, ya'ni resurslar sarfi 100 foizga oshsa, mahsulot ishlab chiqarish ham 100 foizga o'sadi.

**3. Pasayuvchi miqyos samarasi** – resurslar sarfining o'sish sur'atidan mahsulot ishlab chiqarish sur'ati past, ya'ni resurslar sarfi 100 foizga oshsa, mahsulot ishlab chiqarish 80 foizga o'zgaradi.

#### **1-masala**

Mintaqada faoliyat yuritayotgan pullik xizmat ko'rsatishning kapitalga bog'liq elastikligi 0,8 ga, mehnatga bog'liq elastikligi

0,4 ga teng bo'lib, mehnat omili 10 foizga qisqarsa, kapital omili esa 5 foizga oshirilsa, ishlab chiqarish qanday o'zgaradi.

### MASALANING ECHILISHI:

Masala shartiga ko'ra,  $K = 5$ ,  $L = -10$  bo'ladi. Undan kelib chiqqan holda ishlab chiqarish hajminiq o'zgarishi

$$(Q_1 - Q_0) = 0,8 \cdot 5 + 0,4(-10) = 4 - 4 = 0$$

Javob: Demak, ishlab chiqarish hajmida hech qanday o'zgarish hosil qilmaydi.

### Investitsiyalar va investitsion loyihalarni tanlashga oid masalalar

Neokeynscha modelda investitsiyalarning o'sishi iqtisodiy o'sish va uning sur'atlarini belgilovchi omil hisoblanib, u bir tomondan, milliy daromadning o'sishiga imkon yaratadi, ikkinchi tomondan esa, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytiradi. O'z navbatida daromadning o'sishi bandlikning oshishiga imkon yaratadi. Investitsiya hajmining ko'payishi natijasida kengaygan ishlab chiqarish quvvatlari daromadning o'sishi orqali to'liq ishga tushirilishi lozim.

Pul daromadining qo'shimcha o'sishi(talab) ishlab chiqarish quvvatlarining qo'shimcha o'sishi (taklif)ga tenglik munosabati muvozanatni ta'minlaydi (E. Domar modeli).

Bu tenglikni formula tarzida yozilsa, u quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$\Delta I \times \frac{1}{a} = I \times \sigma \quad \text{yoki} \quad \frac{\Delta I}{I} = \sigma \times a,$$

bu erda:  $I$  – har yillik sof kapital qo'yilmalar;

$\Delta I$  – sof kapital qo'yilmalarning qo'shimcha o'sishi;

$\Delta I/I$  – sof kapital qo'yilmalarning o'sish sur'ati;

$1/a$  – multiplikator;

bu erda:  $a$  – jamg'arishga bo'lgan o'rtacha moyillik;

$\sigma$  – kapital samaradorligi.

SHunday qilib, iqtisodiyotdagি ishchi kuchining to'la bandligini hamda ishlab chiqarish quvvatlarining to'liq ishlashini ta'minlovchi sof investitsiyalar yoki kapital qo'yilmalarning o'sish sur'ati  $\sigma \times a$  ga teng bo'lishi lozim.

Investitsion qaror strategiyasi kapitalni talab va takliflari baholariga bog'liq.

Avtonom investitsiya funksiyasi quyidagi ko'rinishga ega:

$$I = e - dR$$

bu erda:  $I$  – avtonom investitsiya xarajatlari;

e – foiz stavkasi 0 ga teng bo‘lganligi investitsiya xarajatlarining maksimal hajmi. U tashqi iqtisodiy omillar, resurs imkoniyatlari, er, foydali qazilma boyliklari va boshqalar bilan belgilanadi;

R – real foiz stavkasi;

d – investitsiyalarning real foiz stavkasi dinamikasi o‘zgarishga ta’sirchanligini miqdoriy belgilovchi empirik koeffitsient.

Agar kutilayotgan foyda me’yori foiz stavkasidan yuqori bo‘lsa, investitsiyalash foydali va aksincha, foiz stavkasi kutilayotgan foyda miqdoridan yuqori bo‘lsa, investitsiyalashning foydasi yo‘q.

## **2-masala**

Agar mintaqaga iqtisodiyotda foydalananlayotgan investitsiyalarning potensial o‘rtacha samaradorligi 0,6 ga, jamg‘arishga bo‘lgan o‘rtacha moyillik 0,4 ga teng bo‘lsa, u holda iqtisodiyotdagagi investitsiyalarning o‘sish sur’atini aniqlang.

### **MASALANI ECHILISHI**

YUqorida keltirilgan  $\frac{\Delta I}{I} = \sigma \times \alpha$  formuladan foydalanim, masalada so‘ralgan ko‘rsatkichni aniqlaymiz. Unga ko‘ra investitsiyalarning o‘sish sur’ati:

$$\frac{\Delta I}{I} = (0,6 \cdot 0,4) \cdot 100 = 0,24 \cdot 100 = 24\%$$

Javob: Investitsiyaning o‘sish sur’ati 24 %ga teng bo‘ladi.

## **3-masala**

“General motors” kompaniyasini qurishga 720 mln. so‘m sarflandi. Ushbu kompaniyada bir oyda 6000 dona dvigatel ishlab chiqarish uchun 18000 kishi/soat mehnat va 30 ming kg mis sarflaydi. Ishlab chiqarilgan har bir dvigatelning bahosi 9000 so‘m qilib belgilangan. Agar bir ishchi soatiga 4000 so‘m, bir kg misning bahosi 800 so‘m bo‘lsa, u holda bir oylik umumiyligi o‘zgaruvchan xarajatlarni, bir dvigatel uchun o‘zgaruvchan xarajatlarni va bir oydagisi hamda umumiyligi foydani qanchaga teng bo‘lishini aniqlang.

### **MASALANING ECHILISHI**

Umumiyligi o‘zgarmas xarajat

$$TC = 18000 \cdot 4000 - 30000 \cdot 800 = 72000000 - 24000000 = 48000000 \text{ so‘m};$$

Bir dvigatel uchun o‘zgarmas xarajat

$$AC = TC / Q = 48000000 : 6000 = 8000 \text{ so‘m};$$

Har bir dvigatel uchun o'rtacha foyda, masala shartidan kelib chiqqan holda

$$AR = 9000 - 8000 = 1000 \text{ so'm};$$

Umumiy foyda

$$TR = 6000 \cdot 1000 = 6000000 \text{ so'm}.$$

Javob: Kompaniya umumiy ravishda 48 mln. so'm va bir dvigatel uchun 8000 so'm o'zgaruvchan xarajat qiladi. SHuningdek, har bir dvigateldan 1000 so'm, bir oyda ishlab chiqargan dvigateli uchun 6 mln. so'm umumiy foyda ko'radi.

#### 4-masala

"General motors" kompaniyasini qurish loyihasini tanlanganligini to'g'ri va noto'g'riliгини isbotlang.

### MASALANING ECHILISHI

Demak, kompaniyaga sarflangan kapital 720 mln. so'mni tashkil etgan holda oyiga 6 mln. so'm foydaga ega. Investitsiyani kiritish to'g'risidagi qaror to'g'ri va noto'g'riliгини bilish uchun uning asosiy kapital qiymati ishslash davomida keltiradigan umumiy foyda summasi bilan solishtirish lozim.

Ushbu zavod bir xilda 15 yil ishlay olsin. U holda 15 yilda oyiga 6 mln. so'm foyda bilan kompaniyaning umumiy foydasi  $TR = 6 \cdot 15 \cdot 12 = 1080$  mln. so'mga teng bo'ladi.

Javob: Kompaniyaning 15 yilda umumiy foydasi 1 mlrd. 80 mln. so'mga teng bo'ladi.

Ushbu qiymat qarorning to'g'riliгини ko'rsatadi. Ammo, ana shu 15 yildan keyin bugungi 6 mln. so'mni qiymatini beradimi?

Jahon tajribasida kelgusida kutilayotgan daromad va sotiladigan uskunalarning barchasini diskontlashgan narx deb yuritilib, u diskontlashgan hisob-kitob deyiladi. Diskontlashgan bahoni tushunish uchun uskuna hozir sarflanadigan summani bankka pulni qo'yishdan olgan daromad bilan solishtiriladi.

#### 5-masala

Hududiy investitsiyalar –  $I=50$  mlrd. so'mni, davlat xarajatlari –  $G=20$ , sof eksport –  $X_n=7,0$  mlrd. so'm, avtonom iste'mol xarajatlari –  $S=100$  mlrd. so'mni va jamg'armaga chegaralangan moyillik –  $MRS=0,25$  ni tashkil etsa, YAHMning muvozantli darjasini aniqlang.

## MASALANING ECHILISHI

$$MPC = 1 - 0,25 = 0,75;$$

Masala shartidan kelib chiqqan holda iste'mol xarajatlari funksiyasini belgilab olamiz:

$$C = 100 + 0,75 \cdot Y \quad Y = C + I + G + X_n$$

Mayjud ma'lumotlarni asosiy makroiqtisodiy ayniyatga qo'ygan holda YAHMning izlanayotgan muvozanatli miqdorini topamiz.

$$Y = 100 + 0,75 \cdot Y + 50 + 20 + 7 = 0,75 \cdot Y + 177$$

$$0,25 \cdot Y = 177, \quad Y = 177 : 0,25 = 780$$

Javob: YAHMning muvozanatli miqdori 780 mlrd. so'm ekanligini aniqlaymiz.

## MUSTAQIL ISHLASH UCHUN MASHQLAR

### 1-masala

Viloyat iqtisodiyotini modernizatsiyalash uchun kiritilgan investisiyalar 700 mln. so'mni, tasarrufdagi daromad 3,2 mlrd. so'mni, iste'mol xarajatlari 2,8 mlrd. so'm, davlat byudjeti ortiqchaligi 100 mln. so'mni tashkil etdi. Sof eksport miqdorini toping.

### 2-masala

Mintaqa iqtisodiyoti  $Y = A \times K^{0,4} \times L^{0,6}$ . Ma'lumki, kapitalning o'sish sur'ati yiliga 3 %, aholining o'sish sur'ati-2 %. Omillarning umumiyligida sur'ati bilan o'sadi. Ishlab chiqarish hajmi qanday o'zgaradi?

### 3-masala

O'tgan yili uy xo'jaliklarining iste'mol xarajatlari 8 mln. so'mni tasarrufdagi daromad miqdori esa 10 mln. so'mni tashkil etgan bo'lsa, joriy yilda jamg'armalar hajmi 1,2 mln. so'mni, iste'molga chegaralangan moyillik esa 75 %ni tashkil qilgani ma'lum bo'lsa, o'tgan yildagi jamg'armalar, iste'molga va jamg'arishga o'rtacha moyillik ko'rsatkichlari, joriy yildagi iste'mol, tasarrufdagi daromad, iste'molga va jamg'arishga o'rtacha moyillik ko'rsatkichlari hamda jamg'arishga va iste'moga chegaralangan moyillik ko'rsatkichlarini toping.

### 4-masala

Agar mintaqa iqtisodiyotining yalpi hududiy mahsulotdagi kapital ulushi 20 %, mehnatning ulushi 80 % bo'lsa, u holda kapital zaxirasi yiliga 2 %ga, ishchi kuchi soni 3 %ga hamda YAIM esa 2 %ga ko'paysa, omillarning jami unumdarligini toping.

## **ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ**

### **I. Ўзбекистон Республикаси қонунлари**

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Т.: Ўзбекистон, 2010.

2. Ўзбекистон Республикасининг 2003 йил 11 декабрдаги “Хусусий корхона тўғрисида”ги Қонуни. – Ўзбекистон Республикаси қонун хужжатлари тўплами. № 3 - Т.: Адолат, 2004. – 7-9 б.

### **II. Ўзбекистон Республикаси Президенти фармонлари ва карорлари**

3. “Монополияга карши ишларни тартибга солиш ва ракобатни ривожлантириш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”: Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2010 йил 26 февралдаги ПФ-4191-сон Фармони //Ўзбекистон Республикаси қонун хужжатлари тўплами – 9 сон – 2010 йил 9 март.

4. 2011-2015 йилларда Ўзбекистон Республикаси саноатини ривожлантиришнинг устувор йўналишлари тўғрисида. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори ПҚ-1442., 15.12.2010 й.

5. “Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик” Давлат дастури. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори. 07.02.2011 й. № ПҚ-1474.

### **III. Ўзбекистон Республикаси Президенти асарлари**

6. Каримов И.А. Мамлакатимизда демократик ислоҳотларни янада чукурлаштириш ва фукаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси (Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги маъруза), //Халқ сўзи, 2010 йил 12 ноябрь (№ 220),

7. Каримов И.А. Барча режа ва дастурларимиз Ватанимиз тараққиётини юксалтириш, ҳалқимиз фаровонлигини оширишга хизмат киласди. //Халқ сўзи, 2011 йил 22 январь.

8. Каримов И.А. «Юксак билимли ва интеллектуал ривожланган авлодни тарбиялаш – мамлакатни баркарор тараққий эттириш ва модернизация килишнинг энг муҳим шарти» мавзусидаги ҳалқаро конференциянинг очилиш маросимиидаги нутк //Халқ сўзи, 2012 йил 18 февраль.

9. Каримов И. Бош максадимиз кенг кўламли ислоҳотлар ва модернизация йўлини катъият билан давом эттириш. – Т.: Ўзбекистон, 2013. – 36 б.

10. Каримов И.А. Тинчлик ва осойишталик – барча ютуқ ва мэрраларимизнинг асосидир. //Халқ сўзи, 2013 йил 19 май, № 91 (5765).

#### **IV. Дарслик ва ўқув қўлланмалар**

11. Бочаров В.В. Инвестиции: Учебник. - 2-е изд – СПб: Питер 2009. –384 с.
12. Кадырова Г.М. Инвестиционная деятельность Российской Федерации: международный аспект (опыт статистического анализа). – М.: Анкил, 2010. – 84 стр.
13. Браун К. Маленькая книжка, которая научит вас инвестировать /К. Браун; пер. с англ. П.А. Самсонов. – Минск: «Попурри», 2009. 240 с.
14. Грегори Менкью. Макроэкономика. – М.: МГУ, 2003.
15. Иvasенко А.Г. Иностранные инвестиции: Учебное пособие. /А.Г. Иvasенко, Я.И. Никонова. – М.: КНОРУС, 2010. – 272 с.
16. Ишмухамедов А.Э., Хайдаров М.Т. “Макроиктисодий таҳлил. Ўқув қўлланма. –Т.: ТДИУ, 2004.
17. Макконнел К.Р., Брю С.Л. Экономикс. – М.: Инфра-М, 2003.
18. “Макроиктисодиёт” Экономикс дарслигига амалий қўлланма. –Т.: “Иқтисодиёт ва хукуқ дунёси” нашрёт уйи, 2011.
19. Ремаш М.В., Шевчук В.И. Финансирование и кредитование инвестиций: Учебное пособие. –М.: Книжный дел, 2004, 160 с
20. Сухарев О.С. и др. Экономическая оценка инвестиций: Учеб. - прак. пособ. – М.: Альфа-Пресс, 2008. – 244 с.
21. Хазанович Э.С. Иностранные инвестиции: Учебное пособие. – М.: КНОРУС, 2009. – 320 с.
22. Юлдашева Ш.М. «Саноатда илмий техника тараққиёти иқтисодиёти» фани бўйича ўқув-услубий мажмуа. – Т.: ТДИУ, 2012. – 160 б.
23. Эффективный экономический рост: теория и практика: Учебное пособие для студентов экономических вузов. /Под. ред. Т.В. Чечеловой. –М.: Экзамен, 2003. –320 с.

#### **V. Интернет сайтлари**

24. [www.encycl.accoona.ru/?id](http://www.encycl.accoona.ru/?id),
25. [www.technormativ.ru/main.php?pkes](http://www.technormativ.ru/main.php?pkes),
26. [www.my-shop.ru/shop/books/6008.html](http://www.my-shop.ru/shop/books/6008.html),
27. [www.dev.csoft.spb.ru/Doclist/folder/648.html](http://www.dev.csoft.spb.ru/Doclist/folder/648.html),
28. [www.book.uz, study40.com.ru/book-44408.html](http://www.book.uz, study40.com.ru/book-44408.html).
29. [www.stat.uz](http://www.stat.uz)
30. [www.gov.uz](http://www.gov.uz)
31. [www.press-service.uz](http://www.press-service.uz)
32. [www.Lex.uz](http://www.Lex.uz)

Абдулҳакимов Зухрали Турсуналиевич

Минтақа ва маҳаллий хўжаликлар иқтисодиёти  
фанидан масалалар тўплами

Ўқув кўлланма

*“IQTISODIYOT” – 2014.*

*Муҳаррир  
Мирхидоятова Д.М.*

*Мусаҳҳих  
Расуловва С.С.*

Лицензия А1 № 240 04.07.2013 й. Теришга берилди 06.08.2014. Босишга руҳсат  
этилди 01.09.2013. Қоғоз бичими 60x80 1/16. Times гарнитураси. Офсет босма.  
Офсет көгози. Щартли босма табоги 7,0. Ҳисоб нашр вараги 6,6.  
Адади 100 нусха. Баҳоси келишилган нарҳда

“IQTISODIYOT” нашриёти ДУКнинг матбаа бўлумида чон этилди.  
100003. Тошкент шаҳри Ўзбекистон шоҳжӯчаси, 49-үй.

У 65+я 292(575.1) Абдулхакимов З.Т. Минтака ва маҳаллий  
хўжаликлар иқтисодиёти фанидан  
масалалар тўплами. Ўкув кўлланма. –Т.:  
“IQTISODIYOT”, 2014. – 112 б.

1. Абдулҳакимов З.Т.

ISBN 978-9943-4332-5-0

УЎК: 332.12(575.1)(075)  
КБК: У 65+я 292(575.1)

